21 Портер, М. Э. Конкуренция: учеб. пособие: пер. с англ. / М. Э. Портер. М.: Изд. дом «Вильямс», 2000. С. 205.

фирм, достигая конкурентоспособности на мировом рынке, распространяет свое влияние на ближайшее окружение: поставщиков, потребителей и конкурентов. В свою очередь, успехи окружения оказывают положительное влияние на дальнейший рост конкурентоспособности данной компании. В итоге формируется «кластер» - сообщество фирм, тесно связанных отраслей, взаимно способствующих росту конкурентоспособности друг друга. Портер в своих исследованиях отмечал, что «...конкурентоспособные отрасли стран не распространены равномерно по экономике, а соединены в то, что я называю кластерами, состоящими из отраслей хозяйства страны, соединенных друг с другом различными связями»[22].

Понятие «кластер» в экономической науке не имеет единого толкования, существуют различные определения этого толкования. В ходе исследования нами был проведён сравнительный анализ подходов к определению понятия «кластер».

Определения понятия «кластер», сформулированные разными учёными

Автор	Определение
Porter[23]	Промышленный кластер – ряд отраслей, связанных через связи покупатель-поставщик, или поставщик-покупатель, или через общие технологии, общие каналы закупок или распределения, или общие трудовые объединения.
Enright[24]	Региональные кластеры – это промышленные кластеры, в которых фирмы участники находятся в тесной близости друг к другу.
Rosenfeld[25]	Кластер – концентрация фирм, которые способны производить синергетический эффект из-за их географической близости и взаимозависимости даже при том, что их масштаб занятости может не быть отчетливым или заметным.
Porter[26]	Кластер – географически близкая группа связанных компаний и взаимодействующих институтов в специфической области, связанная общностями и взаимодополнениями.
Портер М.[27]	Кластеры - это географически близкие группы взаимосвязанных компаний и ассоциированных учреждений в отдельной отрасли, которые связаны общими технологиями и навыками. Это сконцентрированные по географическому признаку группы взаимосвязанных компаний, специализированных поставщиков, поставщиков услуг, фирм в соответствующих отраслях, а также связанных с их деятельностью организаций в определенных областях, конкурирующих, но вместе с тем и ведущих совместную работу
Elsner[28]	Кластер – группа фирм, которые функционально связаны как

[22]тамже

[23] Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. – London: Mac-millan, 1990. – 896 p.

[24] Enright M. J. Regional clusters and economic development: a research agenda. - Boston: Harvard Business School, 1993. – 756 p.

[25]Rosenfeld S. Bringing business clusters info the mainstream of eco-nomic development // European planning studies, 1997. N 5. – P. 3-23.

[26] Porter M.E. On Competitive. – Harvard Business School Press, 1998. – 592 p.

[27] Портер М. Международная конкуренция / Портер М. - М.: Междунар. отношения, 1993. С. – 51

	вертикально, так и горизонтально. Функциональный подход подчеркивает качество существующих взаимосвязей между фирмами и институтами, поддерживающими кластер, и такие взаимосвязи определяются через рынок.
Simmie and Sennett[29]	Инновационный кластер как большое количество связанных индустриальных и/или сервисных компаний, имеющих высокий уровень сотрудничества типично через цепь поставок и функционирующих при одинаковых рыночных условиях.
Bergman and Feser[30]	Промышленные кластеры – группа коммерческих предприятий и некоммерческих организаций, для которых членство в группе является важным элементом индивидуальной конкурентоспособности каждого члена фирмы. Кластер связывают вместе сделки купли-продажи, общие технологии, каналы распределения, трудовые объединения.
Bergman and Feser[31]	Региональные кластеры – это промышленные кластеры, которые сконцентрированы географически, обычно внутри региона, который образует столичный район, рынок труда и другие функциональные хозяйственные единицы.
OECD[32]	Региональные кластеры относятся к географически ограниченным концентрациям взаимосвязанных фирм и могут использоваться как ключевое слово для более старых концепций подобно индустриальным районам, специализированным промышленным агломерациям и местным производственным системам.

Приведенные точки зрения свидетельствуют о большом разнообразии определений понятия «кластер». Каждое определение формируется исходя из прикладных задач исследования.

В современных публикациях можно найти несколько десятков трактовок понятия «кластер», и при этом нет среди них исчерпывающего определения данного понятия. Встречаются как очень широкие, так и достаточно лаконичные и конкретные трактовки.

В большинстве определений, представленных в таблице, в понятие «кластер» выделяется факт, что региональная концентрация однотипных производств приводит, во-первых, к получению конкурентных преимуществ в части доступа к различным рынкам (сырья, рабочей силы и др.); во-вторых, к развитию коммуникаций и взаимодействия между предприятиями; в-третьих, к концентрации и развитию вспомогательных отраслей; в-четвёртых, к перетоку знаний и технологий.

Анализируя научные работы, касающиеся данного вопроса, мы решили рассмотреть характеристики кластера, приведенные в обзоре Европейской

[28] Elsner W., Groeneveger J. An imdustrial policy agenda 2000 and be-yond // Industrial Policies After 2000. – Boston, Dordrecht, London: Kluwer Acad. Publ., 2000. – P. 411-486.
[29] Simmie J., Sennett J. Innovation in the London Metropolitan Region. 1999. – P. 87-98.
[30] Bergman E.M., Feser E.J. Industrial and Regional Clusters: Concepts and Comparative Applications, Regional Research Institute, WVU. 1999. – 403 p.
[31] Bergman E.M., Feser E.J. Industrial and Regional Clusters: Concepts and Comparative Applications, Regional Research Institute, WVU. 1999. – 403 p.
[32] OECD. Boosting Innovation: The Cluster Approach, Paris, 1999. – 424 p.

экономической комиссии ООН 2008 года «Повышение инновационного уровня фирм: выбор политики и практических инструментов». Данный обзор представляет значительный интерес, поскольку охватывает большое количество государств, в нем отражены разнообразные подходы. Итак, в качестве основных характеристик кластеров выделено следующее[33]:

1. Географическая концентрация (близко расположенные фирмы привлекают друг друга возможностью экономить на быстром экономическом взаимодействии, обмене капиталом и процессах обучения);
2. Специализация (кластеры концентрируются вокруг определенной сферы деятельности, к которой все участники имеют отношение);
3. Множественность экономических агентов (кластеры и их деятельность охватывают не только фирмы, входящие в кластер, но и общественные организации, академии, институты, способствующие кооперации, и т.д.);
4. Конкуренция и сотрудничество (как основные виды взаимодействий между фирмами-членами кластера, которые присущи им в равной мере);
5. Достижение необходимой «критической массы» в размере кластера для получения эффектов внутренней динамики развития;
6. Жизненный цикл кластеров (они рассчитаны на долгосрочную перспективу);
7. Вовлеченность в инновационный процесс (фирмы и предприятия, входящие в состав кластера, обычно включены в процессы технологических, продуктовых, рыночных и организационных инноваций).

Списко использованной литературы:

1. Кластерное взаимодействие. Д. Асланова, М. Алимова. Экономическое обозрение № 1 (241) 2020г.
2. Карпов С.О. Особенности туристических услуг / С.О. Карпов // Полевской информационно-туристический портал // URL: http://www.polevskoy-turcentr.ru.
3. Алоева А.А. Туристические кластеры как особый фактор формирования социально-экономической системы региона. / А.А. Алоева, М.Д. Юсупова // Известия Кабардино-Балкарского центра РАН. — 2013. - № 4 (54). — С. 100-106.
4. Смородинская Н. В., Инновационные кластеры и кластерная политика: сравнение подходов России и Европы. Материалы круглого стола «Кластеры для развития инновационной экономики», М.: Институт экономики РАН, 2016.
5. Портер М. Конкуренция. Исправленная версия. М.: Издательский дом «Вильямс», 2005. 259 с.

[33] Enhancing the Innovative Perfomance of Firms: Policy Options and Practical Instruments. United Nations. ECE/CECI. CR2008. Geneva, 2008. P. 85

XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH

Erdonov Muhammadamin Erdon o‘g‘li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Real iqtisodiyot kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi
e-mail: erdonovmuhammad@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada xizmat ko‘rsatish korxonalarini rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish paradigmalari bo‘yicha ilmiy-amaliy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: xizmat ko‘rsatish korxonasi, xizmat, kambag’allikni qisqartirish.

Аннотатsiя . В этой статье разработаны научно-обоснованные предложения и рекомендатsии по парадигмам сокращения бедности путем развития предприятий сферы услуг.

Ключевые слова: сервисное предприятие, сервис, сокращение бедности.

Annotation. This article presents scientifically-based proposals and recommendations for paradigms of poverty reduction through the development of service enterprises.

Key words: service enterprise, service, poverty reduction.

Jahonda raqobatlashuv darajasining keskin darajada o‘sib borishi sharoitida xizmat ko‘rsatishda innovatsion faoliyatni rivojlantirish, zamonaviy xizmat ko‘rsatish turlarini joriy etish, xizmatlar sifatini oshirish hamda korxonalarning iqtisodiy samaradorligini ta’minlashga alohida ahamiyat qaratilmoqda. “Rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulot tarkibida xizmat ko‘rsatish sohasining ulushi 65-80 foizni, ilm-fan va innovatsion faoliyatni investitsiyalashga sarflanayotgan mablag‘lar hissasi esa 3 foizni tashkil etmoqda. Bugungi kunda xizmat ko‘rsatish sohasidagi bandlar ulushi 70,0 foizdan ortiqni va to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar hajmining 40,0 foizi xizmat ko‘rsatish sohasiga to‘g‘ri kelmoqda”[34]. Bugungi kunda xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash asosida xizmatlar sifati va raqobatbardoshligini oshirish kabi muammolarga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Zamon doimo rivojlanishda uning rivojlanishi esa ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga bog’liq. Shu sababdan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tizimlashtirish, har soha va tarmoqda ushbu ishlarni amalga oshirish bugungi kundagi barcha hukumat, tashkilotlar va korxonalar oldidagi asosiy va dolzarb masalalardan hisoblanadi. Zero, korxonalarning rivoj topishi iste’mol daromadlariga bog’liq. Bu esa aholining ish bilan ta’minlanganligi, aholining daromad sohalari kengayishi bilan bog’liq. Ayniqsa, mahallalarda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish orqali kambag’allikni kamaytirish, aholi daromadlarini oshirish, aholining iste’mol savatchasi miqdori va sifatini doimo oshirib boorish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022 yil 27 yanvardagi “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-104-son Qarori ham xizmat

[34] http://stats.oecd.org/

ko‘rsatish sohasini rivojlantirishga qaratilgan vazifa va topshiriqlar keltirib o‘tilgan. 2021 - 2023-yillarda O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturini amalga oshirish natijasida 2021-yilda xizmatlar ko‘rsatish hajmi qariyb 20 foizga o‘sishi ham belgilab berilgan. Bu esa ayniqsa, mahallalarda aholini ish bilan ta’minlash, xizmat ko‘rsatish sohalarida aholi bandligini oshirish asosida kambag’allikni qisqartirish masalalari belgilab berilgan. 2021-2023 yillarda O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturini amalga oshirish natijasida 2022 yilda xizmatlar ko‘rsatish hajmi qariyb 20 foizga o‘sdi.

Shu bilan birga, xizmatlar sohasini rivojlantirishga yangicha yondashuvlarni joriy etish orqali bozor xizmatlari hajmini 2022 yilda 1,5 baravarga oshirish hamda qo‘shimcha 1,5 million yangi ish o‘rinlarini yaratish imkoniyatlari mavjud. Yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi bandligini ta’minlash va daromadlarini oshirishda xizmat ko‘rsatish va servis sohasining alohida o‘rni bor. Bu sohada yangi ish o‘rinlarini kam xarajat bilan va qisqa muddatda tashkil etish mumkin. Chunki mamlakatimizda bu tarmoqni rivojlantirish imkoni katta bo‘lib, u ortiqcha mablag‘ talab etmaydi. Hozirgi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning tez rivojlanuvchi tarmoqlari bo‘lib, u O‘zbekiston iqtisodiyotini taraqqiyotini belgilovchi yangi yo‘nalish sifatida namoyon bo‘lmoqda.Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishning xududiy dasturlari va ularni amalga oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqishda esa quyidagilarga alohida ahamият berilgan: - xizmat ko‘rsatish sohasi tarkibini яnada takomillashtirish, aholi o‘rtasida talab katta bo‘lgan zamonaviy xizmat turlari bilan bozorni jadal rivojlantirish va to‘ldirish; - shahar va qishlok aholi punktlari xududlarining qurilishini rejalashtirishda, tasdiqlangan me’yorlardan kelib chiqqan holda, mintaqalar aholisiga turli ijtimoiy va kommunal-maishiy xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish; - birinchi navbatda qishloq aholi punktlarida xizmat ko‘rsatish korxonalarini rivojlantirish, xizmat ko‘rsatish sohasiga oilaviy tadbirkorlik sub’yektlari hamda ixtisoslashgan texnikumlar va oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari orasidan yoshlarni keng jalb etish. Iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida aholi daromadlarini ko‘paytirish va turmush farovonligini yaxshilashning muhim omili bo‘lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko‘rsatish va kasanachilik sohalarini qo‘llab quvvatlash va rivojlantirishni rag‘batlantirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Chunki mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi va milliy iqtisodiyotning jadal rivojlanishi ko‘p jihatdan ushbu muammoni hal etilishiga bog‘liqdir. Shu sababli bugungi kunda respublikamizda aholini ish bilan ta’minlash va uning farovonligini oshirish masalasiga ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishi sifatida qaralmoqda. Kambag’allikni qisqartirishning bosh omili sifatida tadbirkorlikni rivojlantirish, xususan, oilaviy tadbirkorlik, kichik biznes, yakka tartibdagi tadbirkorlik, o‘zini-o‘zi band qilish xizmat qiladi. Shundan kelib chiqib, tadbirkorlikni yanada rivojlantirish yo‘nalishlari, kambag’allikni qisqartirish yo‘llari bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borilgan.

O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasining yuksalishi, xususiy tadbirkorlik sub’ektlari uchun yaratilgan qulay shartsharoitlar natijasida iqtisodiy salohiyati ortgan ko‘plab korxonalar mazkur imtiyozlardan foydalanishni davom ettirish maqsadida o‘z xodimlari sonini belgilangan miqdoriy chegara doirasida saqlab qolishga harakat qilmoqdalar. Bu esa, ularning yiriklashish jarayoniga to‘sqinlik qilmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotida mustahkam o‘ringa ega bo‘lib bormoqda.

Xulosa va takliflar. Tadbirkorlikni yanada rivojlantirish orqali kambag’allikni qisqartirish masalasi bo‘yicha quyidagi paradigmalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1) Mahallalarda xizmat ko‘rsatish asnosida aholi tadbirkorligini rivojlantirish, jumladan, “mahallabay” ishlash tizimi orqali oilalarning daromad manbalarini, shu jumladan, tomorqa yerlardan foydalanish hamda daromadli mehnatga bo‘lgan intilishi va ehtiyojlarini «xonadonbay» o‘rganish, band bo‘lmagan aholining, ayniqsa, ishsiz yoshlar va xotinqizlarning muammolarini o‘rganish orqali ularni kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘rgatuvchi kurslarga yo‘naltirish va mehnat faoliyati bilan shug’ullanishga amaliy ko‘maklashish, yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslari va startap g’oyalarini yanada qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan kreditlar ajratish;

2) Uy sharoitida xizmat ko‘rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan yirik va o‘rta miqyosdagi korxonalar o‘rtasida sherikchilik mexanizmlarini, jumladan, kasanachilik ishlarini tashkil qilish, autsorsing shartnomalari asosida xizmat ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish. Ayniqsa, ishlab chiqarish korxonalari bilan sotuvdan keyingi servisni tashkil etish, servis markazlarga mutaxassislarni jalb qilish maqsadga muvofiqdir;

3) ishsiz yoshlarni IT sohalardagi ko‘nikma va malakasini oshirish orqali ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyatini rivojlantirish, ijtimoiy media marketolog, ijtimoiy tarmoqlarda tovar va xizmatlarni siljitish va reklama qilish, onlayn buyurtmalar qabul qilish, tovarlarni yetkazib berish kabilar orqali yoshlarni o‘zini o‘zi band qilish tizimini yanada rivojlantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag’allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g’risida” PF-29-son farmoni. 03.12.2021 yil. https://lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam ko‘rsatish hamda kambag’allik bilan kurashish ko‘lamini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g’risida” PF-6277-son farmoni. 11.08.2021. https://lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag’allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g’risida” PQ-31-son qarori. 03.12.2021 yil. https://lex.uz.

Real sektor korxonalari samaradorligini oshirishda xodimlarni boshqarish

Erdonov Muhammadamin Erdon o‘g‘li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Real iqtisodiyot kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi
e-mail: erdonovmuhammad@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqolada real sektor korxonalari xodimlari mehnatining samaradorligini ta’minlash maqsadida mehnat faoliyatiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni amaliyotga tadbiq etish zarurati o’rganilgan.

Аннотация: В данной статье рассматривается необходимость выявления факторов, влияющих на эффективность работы работников реального сектора, и применения их на практике для обеспечения эффективности их труда.

Annotation: This article examines the need to identify the factors that affect the performance of employees in the real sector and to put them into practice in order to ensure the efficiency of their work.

Kalit so‘zlar: Raqamli bozor iqtisodiyoti, xodimlarning qo’nimsizligi, kadrlar boshqaruvi, personal.

Ключевые слова: Цифровая рыночная экономика, текучесть кадров, управление персоналом, персонал.

Key words: Digital market economy, staff turnover, personnel management, personnel.

Bozor iqtisodiyoti talablari asosida milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda mavjud investitsiya, kapital, moddiy va tabiiy resurslardan tejamli va samarali foydalanishda xodimlarni boshqarish asosiy o’rin egallaydi.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida real sektor xodimlarni boshqarish jarayoniga asosiy e’tibor berilishiga sabab ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish sub’ektlari faoliyatini optimallashtirish, buning uchun esa, xodimlarning zamonaviy texnologiyalardan foydalanish darajasini oshirish, mijozlar bilan ishlash, muomala qilish kabi ijtimoiy-psixologik kompetentsiyalarini shakllantirish, ularni lavozimlar bo’yicha o’sib borishini ta’minlashdan iborat.

Raqamli bozor iqtisodiyoti sharoitida korxona xodimlari mehnatining samaradorligini ta’minlashda mehnat taqsimoti, xodimning ma’lum xizmat ko’rsatish yo’nalishida ixtisoslashuvi, ko’rsatilayotgan xizmatlarning sifat darajasiga ma’naviy va huquqiy darajada javobgar bo’lishi va intizom bo’yicha qo’yilgan talablarga javob berishi kerak.

Bozor munosabatlari sharoitida xodimlarning roli katta bo’lib, u iqtisodiy jamiyat tizimidagi o’rnini quyidagilar bilan belgilanishi mumkin:

- xodimlarning faoliyatdagi o’rnini baholashda ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan va yakka tartibdagi faoliyati darajalarini umumlashtirgan holda qarashda;

- xodimning mehnat faoliyatlari samaradorligini jismoniy, intellektual va psixologik holati darajasiga bog’liqligi;

- xodimlar faoliyati erkinligi, ularning bozor sharoitining erkin ishchi kuchi holatidagi harakatini ta’minlanishiga asoslanish kerak.

Real sektor korxonalari xodimlarining faoliyatini baholashda yuqorida keltirilgan asosiy ko’rsatkichlardan tashqari ulardan samarali foydalanishga ta’sir etadigan qiyosiy ko’rsatkichlar ham mavjud.

Jumladan, xodimlarning qo’nimsizligi. Bu, asosan, xizmat ko‘rsatish yoki ishlar chiqarish jarayoniga yetarli shart-sharoit bo’lmasligi oqibatida ish joylari ularning talablarini qoniqtirmasligi, turar-joyga nisbatan faoliyat yuritilayotgan tashkilotning uzoq masofada joylashishi, transport xizmatlari, mehnatni tashkil etish darajasining pastligi, ish haqining qanoatlantirmasligi, mehnat xavfsizligi va boshqa sabablar tashkil etadi. Bu qiyosiy ko’rsatkichlar korxona faoliyatini tashkil etish darajalariga ham bog’liq, deb hisoblash zarur.

Real sektor korxonalari tomonidan xodimlarning faoliyatiga baho berishda qiyosiy ko’rsatkichlardan foydalanish zarur. Bu ko’rsatkichlar xodimlarning qo’nimsizligi, ularning mehnat intizomiga rioya qilmasliklari, sababsiz ishga chiqmaslik, xizmat ko’rsatishni talabga nisbatan qoniqarsiz bo’lishi, ularning mehnat faoliyatlariga korxona boshqaruvi tomonidan noroziliklar bo’lishidan iborat.

Demak, yuqorida keltirilgan ob’ektiv va sub’ektiv sabablardan xodimlarning xizmat ko’rsatishdagi mehnatlari va ishlar chiqarish jarayonidagi ishtiroklari qiymatini hisoblashda foydalanish kerak. Lekin yuqorida keltirilgan xodimlar mehnati qiymatini o’lchashda keltirilgan ko’rsatkichlardan foydalanish kadrlar boshqaruvini tashkil etish darajasiga bog’liq. Hodimlar boshqaruvini samarali darajada olib borish uchun maxsus savolnomalar tuzib, ular orqali faoliyat yurituvchi xodimlar bilan muloqotda bo’lish ijobiy, ijtimoiy va iqtisodiy samara beradiki u korxonalarning faoliyat jarayonini takomillashtirish va uning foyda darajalari o’sib borishini ta’minlaydi.

Korxonalar faoliyati miqyosida xodimlar boshqaruvida quyidagilarga:

- korxonalarda personalni tashkil etish darajasi, uning asosiy maqsadi, mehnat resurslari boshqaruvining asosiy vazifalari bo’lgan mehnat munosabatlarini takomillashtirish, xizmat ko’rsatish va ishlab chiqarish jarayonida uning rivojlanishiga zid bo’lgan hollarni tugatish;

- boshqaruv bilan xodimlar o’rtasidagi tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, ularni korxona boshqaruviga jalb etish, ularni rag’batlantirish;

- korxona xodimlari mehnat faoliyatiga ta’sir etuvchi hollarni aniqlash, mehnat xavfsizligini ta’minlash;

- kadrlar boshqaruvi olib borayotgan faoliyatlari bo'yicha ularni axborot bilan ta'minlashga e'tibor berish zarur.

Korxonalar boshqaruvi samaradorligini ta'minlashda uning istiqbolda rivojlantirish rejalari va xodimlarga bo'lgan talablarni ishlab chiqish zarur. Bu istiqboldagi talablar bozor munosabatlari talablarini e'tiborga olgan holda xodimlarga bo'lgan xizmat ko'rsatish yo'nalishlari orqali aniqlanishi maqsadga muvofiq bo'lib, bu esa o'z navbatida xodimlarni o'qitish va kasbiy mahoratlarini oshirish bilan bog'liq. Bu esa o'z navbatida korxonalarda xodimlarning boshqaruv samaradorligini va uning rivojlanishiga sarflanayotgan innovatsiya kapitali mablag'lari hajmini oshirishni taqazo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida" PF-29-son farmoni. 03.12.2021 yil. https://lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish hamda kambag'allik bilan kurashish ko'lamini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6277-son farmoni. 11.08.2021. https://lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-31-son qarori. 03.12.2021 yil. https://lex.uz.

XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARDA RISKLARNI BOSHQARISHNING KONTSEPTUAL YONDASHUVLARI

Erdonov Muhammadamin Erdon o'g'li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Real iqtisodiyot kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi
e-mail: erdonovmuhammad@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada bugungi iqtisodiyotda korxonalar uchraydigan risklarning mazmuni va ularni boshqarish konsepsiyalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: risk, ehtimollik, xavf, og'ishlar, riskni boshqarish, risk sabablari, konsepsiya

Аннотация: В статье описано содержание рисков, с которыми сталкиваются предприятия в условиях современной экономики, и концепции управления ими.

Ключевые слова: риск, вероятность, риск, отклонения, управление риском, причины риска, концепция.

Annotation: The article describes the content of the risks faced by enterprises in the modern economy, and the concept of managing them.

Keywords: risk, probability, risk, deviations, risk management, risk causes, concept

Risklarni boshqarish menejerning asosiy savollarga javob berish qobiliyatiga asoslanadi hamda ular quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida riskning mohiyati va tabiatini aniqlash.

2. Tashkilotning asosiy biznes jarayonlariga ta'sir darajasining xususiyatlari

3. Imkoniyatlar tavsifi va riskni kamaytirishning istiqbolli usullari

V.V.Rimkevichning ta'kidlashicha, "riskni boshqarish korxonaning bozor faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan jiddiy oqibatlarni bartaraf etishga, o'z resurslari asosida kengaytirilgan takror ishlab chiqarishga yo'naltirilgan holda uning muvaffaqiyatli va barqaror faoliyatini ta'minlashga qaratilgan boshqaruv".

Risklarni boshqarish amalga oshiriladigan asosiy mumtoz tushunchalarga quyidagilar kiradi:

1) Riskni minimallashtirish kontseptsiyasi;

2) Maqbul risk tushunchasi;

3) Resurs sifatidagi risk tushunchasi.

Birinchi kontseptsiya - risklarni minimallashtirish kontseptsiyasi - iqtisodiy faoliyatning sof salbiy tarkibiy qismi riskiga an'anaviy yondashuv asosida yaratilgan usullarni o'z ichiga oladi. Bunday usullar faqat risk darajasini minimal qiymatga yetkazishga qaratilgan, ya'ni bu usullar riskni minimallashtirish kontseptsiyasiga asoslanadi.

Amalda risklarni kamaytirishning norasmiy usullari ham mavjud bo'lib, ular risklarni boshqarishni tashkil etish sifatiga va umuman korxona boshqaruviga bilvosita ta'sir ko'rsatadigan jarayonlarni o'z ichiga oladi. Norasmiy usullarga quyidagilar kiradi:

– inson resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish. Ko'pincha tashkilotning bozordagi muvaffaqiyati ko'p jihatdan inson omiliga bog'liq. Xodimlardan foydalanish samaradorligi xodimlarni tanlash va ishga olish sifati, xodimlarni o'qitish va rivojlantirishning intensivligi bilan belgilanadi.

– Tashkiliy tuzilmani takomillashtirish. Tashkiliy tuzilmaning moslashuvchanligi va uning tashkilotning umumiy xususiyatlariga muvofiqligi menejmentning yuqori professionalligi bildiradi.

– Korxonaning innovatsionlik darajasini oshirish;

Maqbul risk kontseptsiyasi iqtisodiy risk nazariyasining umumiy qoidalarini aks ettiradi, unga ko'ra risk harakatlarni tanlashda muqobil variantlarning mavjudligi bilan bog'liq, risk amalga oshirilgan harakatlar oqibatlarining noaniqligi bilan bog'liq. Shunga qaramay, maqbul risk tushunchasi uni umumiy nazariyadan ajratib turadigan bir qator muhim jihatlarni o'z ichiga oladi:

– risklarni boshqarish dastlabki va yakuniy riskni ajratishga asoslanadi;

– risk darajasi minimal darajaga emas, balki maqbul darajaga tushiriladi;

– Umumiy olganda, tashkilotning innovatsion faoliyati riski darajasi, an'anaviy faoliyatga qaraganda yuqori.

Maqbul risk kontseptsiyasining maqsadi uch bosqichni amalga oshirish natijalari bo'yicha ko'rib chiqilayotgan risk sharoitida maqbul yechimni majburiy topishdir:

1. Rivojlanayotgan risklarning omillarini aniqlash, birinchi navbatda g'oyaning riski har doim katta bo'lib tuyuladi.

2. Aniqlangan omillarni o'lchash va baholash, shu bilan birga, salbiy oqibatlarga tayyorgarlikning kuchayishi tufayli risk kamayishni boshlashini yodda tutish kerak.

3. Risk omillari riskini kamaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

Bundan xulosa qilish mumkinki, Maqbul risk tushunchasi, shuningdek, ratsional yondashuvni qo'llab-quvvatlagan holda, riskni to'plashga qaratilgan, ya'ni riskka qarshi choralar xarajatlari mumkin bo'lgan yo'qotishlar hajmi va mumkin bo'lgan oqibatlar o'lchovi bilan bog'liq.

Tadbirkorlik faoliyatida ko'pincha riskli qarorlar eng yaxshi natijalarga olib keladi, bu kelajakdagi daromadning ma’lum nisbati va tegishli zararga mos keladi.

Resurs sifatida risk konsepsiyasining asosiy g'oyasi shundaki, risklarni boshqarish tashkilotning resurslarini boshqarish bilan bir xil deb hisoblanadi. O'xshashlik tadbirkorlik tavakkalchiligini boshqarish uchun xarajatlar darajasini optimallashtirish bilan bog'liq bo'lib, u marjinal xarajatlar va foydalarni taqqoslash yo'li bilan amalga oshiriladi, bunda xarajatlar deb risklarni boshqarish xarajatlari hisoblanadi va foyda esa oldini olish mumkin bo’lgan yo’qotishlardir.

Resurs sifatidagi risk konsepsiyasi resursga o'xshash risklarni boshqarishning optimal tamoyilidir. Resursga o'xshash riskning quyidagi belgilari mavjud. Birinchi va eng muhim belgisi shundaki, risk darajasining oshishi qo'shimcha foyda keltirishi mumkin, ya'ni bu risk bir qator ijobiy omillarning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Bundan tashqari, korxonalar aksariyat hollarda resursga o'xshash riskni qabul qilishdan qochishadi. Va nihoyat, resursga o'xshash riskning o'ziga xos xususiyati shundaki, uning darajasining o'sishi faqat ma'lum bir chegaragacha samarali bo'ladi, ya'ni muayyan optimal daraja mavjud. Optimal risk darajasiga olib kelishi mumkin bo’lgan qarorga barcha mumkin bo'lgan ijobiy risk omillari allaqachon ta'sir qiladi. Risk darajasining yanada oshishi jarayonga qo'shimcha omillarning ta’sirini ko'rsatadi, ularning namoyon bo'lishi salbiy xarakterga ega bo'lib, bu korxona uchun o'ta samarasizdir. Shunday qilib, resursga o'xshash riskni boshqarish uning optimal darajasini saqlashga asoslangan bo'lishi kerak. Agar ushbu risk darajasi optimaldan yuqori bo'lsa, aksincha, uni kamaytirish kerak.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Rimkevich, V.V. (2005). Riskni boshqarish: nazariyasi va amaliyoti. Moskva: Iqtisodiy ilmiy nashrlar.

2. Aliev, A.A. (2013). Korxonalarda risklarni boshqarish va innovatsiyalar. Toshkent: Iqtisodiy tadqiqotlar institutining nashri.

3. Gorbachev, M.V., & Ivanov, P.D. (2011). Risk va xavflarni boshqarish: iqtisodiy va ijtimoiy kontekstda. Sankt-Peterburg: Ekonomika.

4. Kovalenko, A.N. (2008). Korxona va tashkilotlarda risklarni boshqarish. Kiev: Biznes nashriyoti.

MEXMONHONA XO‘JALIGIDA XIZMATLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

BURXONOVA NARGIZA MIRSHOHID QIZI
O‘zbekiston, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
“Menejment” kafedrasining assistenti
Muallifning elektron manzili: *dunyoburxonova@gmail.com*
Muallifning telefon raqami: +998 94 788 22 99

Annotatsiya: Maqolada, mexmonxona xo‘jaligida xizmatlar samaradorligini oshirishning asosiy yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Bugungi kunda turizm sanoatining rivojlanishi va mexmonxona sohasidagi raqobat kuchaygan bir paytda, mehmonlarga yuqori sifatli xizmatlarni taqdim etish muhim ahamiyatga ega. Maqolada xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash, xodimlar malakasini oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, mijozlar ehtiyojlariga moslashish kabi usullar tahlil qilinadi. Shuningdek, samarali marketing strategiyalari va mijozlar bilan muloqotning ahamiyati ham ta’kidlanadi. Ushbu maqola, mexmonxona xizmatlari bo‘yicha boshqaruvchilar va mutaxassislar uchun foydali tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: Mexmonxona, xizmatlar samaradorligi, turizm, xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash, xodimlar malakasi, texnologiyalar, marketing strategiyalari, mijozlar ehtiyoji, raqobat, boshqaruv.

Аннотация: В статье рассматриваются основные способы повышения эффективности услуг в гостиничном хозяйстве. В условиях роста туризма и усиливающейся конкуренции в гостиничной отрасли, предоставление высококачественных услуг является важным аспектом. В статье анализируются методы улучшения качества обслуживания, повышения квалификации сотрудников, внедрения новых технологий, а также адаптации к потребностям клиентов. Также подчеркивается важность эффективных маркетинговых стратегий и взаимодействия с клиентами. Эта статья будет полезна для руководителей и специалистов гостиничного бизнеса.

Ключевые слова: Гостиница, эффективность услуг, туризм, улучшение качества обслуживания, квалификация сотрудников, технологии, маркетинговые стратегии, потребности клиентов, конкуренция, управление.

Abstract: The article discusses the main ways to improve the efficiency of services in the hospitality industry. In the context of the growing tourism sector and increasing competition in the hotel industry, providing high-quality services is of significant importance. The article analyzes methods to enhance service quality, improve staff qualifications, implement new technologies, and adapt to customer needs. The importance of effective marketing strategies and customer communication is also highlighted. This article provides valuable recommendations for hotel managers and professionals.

Key words: Hotel, service efficiency, tourism, service quality improvement, staff qualifications, technologies, marketing strategies, customer needs, competition, management.

Kirish. Bugungi kunda turizm sanoatining global miqyosda rivojlanishi, mexmonxona xo‘jaligi sohasida raqobatning kuchayishiga olib kelmoqda. O‘z navbatida, mehmonxonalarning muvaffaqiyati ularning mijozlarga taqdim etadigan xizmatlari sifatiga bevosita bog‘liqdir. Mexmonxona xizmati samaradorligini oshirish nafaqat mehmonlarning mamnuniyatini ta’minlaydi, balki korxona rentabelligini ham sezilarli darajada oshiradi.

Maqolada mexmonxona xizmatlarining samaradorligini oshirish bo‘yicha asosiy yo‘llar va usullar ko‘rib chiqiladi. Xizmatlar sifatini yaxshilash, yangi

texnologiyalarni joriy etish, xodimlarning malakasini oshirish va mijozlar ehtiyojlariga moslashish kabi masalalar dolzarb sanaladi..

Asosiy qism. Mexmonxona xizmatlarining samaradorligini oshirishning asosiy yo‘llaridan biri – bu xizmat sifatini doimiy ravishda nazorat qilish va yaxshilashdir. Bunda mijozlarning fikr-mulohazalari va talablariga asoslanish muhimdir. Mexmonxonalarda xizmatlarni doimiy ravishda tahlil qilib, sifatini yaxshilash uchun yangi usullar va texnologiyalarni qo‘llash kerak. Masalan, raqamli tizimlar orqali mijozlarning fikrlarini tezda olish va ularni tahlil qilish, xizmatlarni shaxsiylashtirish imkonini beradi.

Xodimlarning malakasi va ularning mijozlarga xizmat ko‘rsatishdagi professionalligi ham xizmatlar samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Texnik va axloqiy malakalarni oshirish uchun muntazam treninglar va kurslar tashkil etish zarur. Shuningdek, jamoani motivatsiya qilish va ularni mukofotlash tizimlari samarali natijalarga olib keladi.

Texnologiya rivojlanishi bilan birga, mehmonxona xizmatlarida raqamli innovatsiyalarni qo‘llash imkoniyatlari ham kengaymoqda. Avtomatlashtirilgan tizimlar, onlayn bronlash platformalari va raqamli to‘lov tizimlari kabi texnologiyalar, xizmatlarni yanada tezroq va sifatli bajarishga yordam beradi. Mexmonxonalarda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, mijozlar uchun qulaylik yaratadi va xizmatlarni yanada samarali qiladi.

Mehmonxonalarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi, birinchi navbatda, mijozlarning ehtiyojlarini qondirishga bog‘liqdir. Har bir mehmonning turli talablariga moslashish va individual xizmatlar taklif qilish mexmonxonaning raqobatbardoshligini oshiradi. Mexmonxona xodimlari mijozlar bilan doimiy aloqada bo‘lishi, ularning istak va ehtiyojlarini inobatga olib, xizmat ko‘rsatishni shaxsiylashtirishi zarur.

Marketing strategiyalari mehmonxonaning xizmati samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Samarali marketing orqali brendni tanitish, mijozlarni jalb qilish va ularning ehtiyojlarini tushunish mumkin. Shuningdek, mijozlar bilan doimiy aloqada bo‘lish, ularning fikrlarini yig‘ish va xizmatni doimiy ravishda takomillashtirish orqali mehmonxona xizmatlarining samaradorligini oshirish mumkin.

Xulosa va takliflar. Mexmonxona xo‘jaligida xizmatlar samaradorligini oshirish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Xizmatlarning sifatini yaxshilash, xodimlarning malakasini oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, mijozlar ehtiyojlariga moslashish va samarali marketing strategiyalarini qo‘llash mexmonxona faoliyatini yanada samarali qiladi.

1-jadval

Mexmonxona xo‘jaligida xizmatlar samaradorligini oshirish yo‘llari mavzusida kichik SWOD tahlili

Kuchli tomonlar	**Zaif tomonlar**
✓ Yuqori xizmat sifati; ✓ Yaxshi malakali xodimlar; ✓ Yangi texnologiyalarni joriy etish; ✓ Brend va obro‘.	✓Xodimlar malakasining o‘zgarishi; ✓Yuqori xarajatlar; ✓Mijozlar bilan muloqotdagi xatoliklar; ✓Mijozlarga individual yondashuvning yetishmasligi.
Imkoniyatlar	**Tahdidlar**
✓ Turizmning o‘sishi; ✓ Yangi texnologiyalarning rivojlanishi; ✓ Yosh turistlar segmentining rivojlanishi; ✓ Qishloq turizmi va ekologik turizmning rivojlanishi.	✓ Raqobatning kuchayishi; ✓ Iqtisodiy noaniqliklar; ✓ Tabiiy ofatlar va pandemiyalar; ✓ Mijozlar ehtiyojlarining tez o‘zgarishi.

SWOD tahlili orqali mexmonxona xo‘jaligida xizmatlar samaradorligini oshirishda mavjud kuchli tomonlar, zaif tomonlar, imkoniyatlar va tahdidlar tahlil qilindi. Raqobat kuchaygan va turizm sohasida doimiy o‘zgarishlar yuz berayotgan sharoitda, mexmonxonalarga samarali boshqaruv, innovatsiyalar va mijozlarga moslashish orqali xizmatlar sifatini oshirish zarur. Bularning barchasi, o‘z navbatida, mexmonxonaning raqobatbardoshligini oshiradi va mijozlar sonining ko‘payishiga olib keladi. Samarali boshqaruv, innovatsiyalar va mijozlarga yuqori sifatli xizmatlarni taqdim etish orqali mexmonxona xizmati samaradorligini oshirish mumkin. Takliflar quyidagilardan iborat:

⇨ Xizmatlar sifatini monitoring qilishni tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish;

⇨ Xodimlarning malakasini muntazam ravishda oshirish uchun treninglar va seminarlar tashkil etish;

⇨ Texnologiyalarni samarali joriy etish va ularni doimiy ravishda yangilab boorish;

⇨ Mijozlarning ehtiyojlarini doimiy ravishda tahlil qilib, xizmatlarni shaxsiylashtirish;

⇨ Marketing strategiyalarini yanada rivojlantirish va mijozlar bilan aloqalarni mustahkamlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

11. A.X.Islomov, M.T.Rahimov, "Turizm va mexmonxona xizmati boshqaruvi", Tashkent, 2019.

12. N.A.Nurmatov, "Marketing strategiyalari va raqamli texnologiyalar", Tashkent, 2020.

13. V.V.Petrov, "Hotel Management and Services Efficiency", Moscow, 2018.

III SHO‘BA.XIZMATLAR SOHASIDA TARKIBIY O‘ZGARISHLARNI AMALGA OSHIRISH VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN HUDUDLARNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA FOYDALANISH.

XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI TAHLILI

Musinov Dilshod Sultanovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Real iqtisodiyot kafedrasi dotsenti v.v.b., PhD
dilshodmusinov1978@gmail.com
+99890-100-00-09

Annotatsiya. Ushbu maqola xizmat ko‘rsatish korxonalarida mehnat resurslaridan samarali foydalanishning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlik mezonlarini tahlil qilishga bag‘ishlanadi. Xizmat ko‘rsatish sohasining tez rivojlanayotgan bozor sharoitida mehnat resurslaridan samarali foydalanish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Maqolada mehnat samaradorligini baholashning o‘ziga xos xususiyatlari va mezonlari, xizmat ko‘rsatish tarmog‘ining iqtisodiy samaradorligi hamda ijtimoiy ta’sirlar orqali mehnat resurslaridan foydalanishning ijtimoiy samaradorligini oshirish yo‘llari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: xizmat ko‘rsatish, mehnat resurslari, iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy samaradorlik, samaradorlik mezonlari, mehnat salohiyati, tarmoq rivojlanishi, resurslardan foydalanish.

Аннотация. Статья посвящена анализу критериев экономической и социальной эффективности использования трудовых ресурсов на предприятиях сферы услуг. В условиях стремительно развивающегося рынка услуг вопрос эффективного использования трудовых ресурсов приобретает актуальное значение. В статье рассматриваются особенности и критерии оценки производительности труда, экономической эффективности сферы услуг, пути повышения социальной эффективности использования трудовых ресурсов за счет социальных воздействий.

Ключевые слова: оказание услуг, трудовые ресурсы, экономическая эффективность, социальная эффективность, критерии эффективности, трудовой потенциал, развитие отрасли, использование ресурсов.

Abstract. This article is devoted to the analysis of the criteria of economic and social efficiency of the effective use of labor resources in service enterprises. In the rapidly developing market conditions of the service sector, the issue of the effective use of labor resources is of urgent importance. The article studies the specific features and criteria for assessing labor efficiency, the economic efficiency of the service industry and ways to increase the social efficiency of the use of labor resources through social impacts.

Keywords: service, labor resources, economic efficiency, social efficiency, efficiency criteria, labor potential, industry development, resource use.

Xizmat ko‘rsatish tarmog‘i zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismi sifatida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishda muhim o‘rin egallaydi. Xizmat ko‘rsatish jarayonlari orqali nafaqat tovarlar, balki ijtimoiy va iqtisodiy aloqalar ham amalga oshiriladi. Bozor iqtisodiyoti rivojlanishining murakkabligi va raqobatning kuchayishi xizmat ko‘rsatish korxonalarining samaradorligini

oshirishni taqozo etadi. Mehnat resurslaridan samarali foydalanish — bu korxonaning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida, ayniqsa, xizmat koʻrsatish sohasida ahamiyatli boʻlib, yuqori sifatli xizmat koʻrsatish va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi. Shuning uchun xizmat koʻrsatish jarayonida mehnat resurslaridan samarali foydalanishning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlik mezonlarini aniqlash, ularni tahlil qilish va rivojlantirish zarur.

Xizmat koʻrsatish korxonalarida mehnat resurslaridan samarali foydalanishni belgilovchi asosiy omillar va shart-sharoitlarni tadqiqoti uning asosiy mezonlarini aniqlash imkoniyatini beradi. Ular xizmat koʻrsatish faoliyati samaradorligini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan takomillashtirishning asosiy yoʻnalishlarini tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi hamda mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi atroflicha tahlil qilinsa, uning asosiy mezonlarini qamrab olish va koʻrsatkichlar tizimini shakllantirish qulaylashadi. Chunki, xizmat koʻrsatish faoliyatida mehnat resurslaridan samarali foydalanish koʻrsatkichlari bir tomondan, xizmat koʻrsatish faoliyatini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan samaradorligi koʻrsatkichlari hisoblansa, ikkinchi tomondan, mazkur tarmoq rivojlanishining pirovard koʻrsatkichlari sifatida namoyon boʻladi.

Har qanday jarayonni baholash imkoniyatini beruvchi mezonlar yagona yoki bir nechta boʻlishi mumkin. Mezonlar voqea va hodisalarning qamrovini, darajasining yoʻnalishini belgilab olishga ham xizmat qiladi. "Mezon" soʻzi "tarozi, oʻlchov ma'nosini bildiradi". Bu soʻz rus tilida ishlatiladigan "kriteriya" soʻzini mazmunini anglatadi. Bizning talqinimizda, u xizmat koʻrsatish faoliyati samaradorligini oshirishning mohiyati va asosiy vazifalarini ifodalaydi. Mazkur mohiyat va asosiy vazifalarni aniqlash uchun xizmat koʻrsatish faoliyatida ishlab chiqarish samaradorligini pirovard natijalariga murojaat qilish muhim sanaladi. Pirovard natijalar esa bir qator ijtimoiy va iqtisodiy koʻrsatkichlarda oʻz ifodasini topadi. Bunda xizmat koʻrsatish korxonalari rivojlanishining mezon va koʻrsatkichlarini aniqlashda tarmoqning oʻziga xos xususiyatlarini tasniflash maqsadga muvofiqdir.

Xizmat koʻrsatish tarmogʻi korxonalarining samaradorligini umumiy mezonini belgilashda ham xozircha yagona fikr yoʻq. Ba'zi iqtisodchilar fikricha, xizmat koʻrsatish xizmati yuksak darajada boʻlgan va barcha resurslarda oqilona foydalangan holda aholining talabini toʻlaroq qondirish xizmat koʻrsatish samaradorligining mezonini hisoblaydi. Koʻpgina iqtisodchilar xarid quvvatiga ega boʻlgan aholiga xalq ist'emol buyumlariga boʻlgan talabini qondirish darajasi xizmat koʻrsatish samaradorligining umumiy mezoni hisoblanadi, deyishsa, boshqalar xizmat koʻrsatish tarmogʻining samaradorligiga oʻzaro bogʻlangan asosiy koʻrsatkichlar tizimi bilan belgilanishi kerak, koʻrsatkichlarni bu tizim xizmat koʻrsatishda budjetga keltiriladigan tarmoq yalpi daromadi miqdorini; xarid quvvatiga ega aholini talabini qondirish uchun xizmat koʻrsatishga yuboriladigan va chakana tovar aylanmasida oʻz ifodasini topadigan tovar-mahsulot qismining miqdori hamda uni sotish tizimini; aholiga koʻrsatiladigan xizmat koʻrsatish xizmatining miqdorini toʻla aks ettiradi, deyishadi.

Bizning fikrimizcha, xizmat koʻrsatish korxonalari xoʻjalik faoliyatiga samaradorlikni kompleks tahlil kilish faqat uning mezonini oʻz ichiga olish bilan

chegaralanib qolmasligi zarur, chunki mezon asosan samaradorlikni oshirishning mohiyati va asosiy vazifalarini ifodalaydi, lekin o‘lchov hamda baholash vositasi bo‘lib xizmat qila olmaydi. Bu vazifani samaradorlik ko‘rsatkichlari hal qiladi. Xizmat ko‘rsatish korxonalarini rivojlantirish kompleks dasturi mezonining murakkabligi uning maksadlari va resurslarini xarakterlovchi ko‘rsatkichlar zarurligini ifodalaydi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rivojlangan mamlakatlarda ish bilan bandlikni ta’minlashning iktisodiy tomonlari bilan birgalikda, uning ijtimoiy jihatlari tadqiqotga ham kuproq e’tibor berilmokda.

Bizning fikrimizcha, xizmat ko‘rsatish korxonalarida mehnat salohiyatidan foydalanishning ijtimoiy samaradorligi bu xizmat ko‘rsatish faoliyati jarayonida mehnat resurslarining ishtirok etishi bilan, ularning ijtimoiy jihatdan rivojlanishini ta’minlash bilan bog‘liq xizmat ko‘rsatish xodimlarining salomatligini va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishdagi ijtimoiy munosabatlar va holati tushiniladi. Shuningdek, xizmat ko‘rsatish xodimlarining mehnat va turmush sharoitlarini yanada yaxshilash ijtimoiy natijaga erishishni ifodalaydi.

Ijtimoiy samara, samaradorlik tushunchalari ko‘pgina iqtisodiy adabiyotlarda uchrasada, haligacha ijtimoiy samara va samaradorlikning mezoni va ko‘rsatkichlari qanday baholanadi va hisoblanadi degan savollarga haligacha konkret javob yo‘q.

Umuman olganda, insonning har tomonlama va uyg‘un rivojlanishi uchun maqsad qilib qo‘ygan jamiyatning ijtimoiy maqsadiga erishishi – ijtimoiy samaradorlik mezonidir. Mazkur tushuncha nuqtai nazardan turlicha qarashlar mavjud. Jamiyatning hozirgi rivojlanish bosqichida barkamol insonning kamol topishida ko‘maklashuvchi vosita ijtimoiy samaradorlik mezoni hisoblanadi. Ijtimoiy samaradorlik bir emas, balki bir nechta mezonga egadir. Uning birinchi mezoni – xalqning ehtiyojini qondirish darajasi va jamiyatning ijtimoiy tarkibini takomillashtirish bo‘lsa, ikkinchi mezoni ishlab chiqarish samaradorligining o‘sishiga bilvosita ta’sir qiluvchi ist’emol jarayonlarini kamaytirishdir.

Yuqoridagi fikrlarga ko‘ra, bizning fikrimizcha, muomala sohasi sifatidagi ijtimoiy samara tovarlar va xizmatlarga bo‘lgan talabni yuqori xizmat ko‘rsatish xizmati ko‘rsatgan holda to‘la qondirish, xizmat ko‘rsatish korxonasi xo‘jalik faoliyati sifatiga ega mehnat sharoitlarini yaxshilash, xodimlarning fondlar bilan qurollanish darajasini oshirishi va xizmat ko‘rsatish madaniyatini yuksaltirish tushiniladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat resurslaridan samarali foydalanish davr talabi. Bu hech eskirmaydigan muammodir, chunki undan samarali foydalanish mulkning yoki ijtimoiy tizimning qanday shaklda bo‘lishidan qat’iy nazar hamisha dolzarbdir.

Mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi mezonlarini aniqlashda turlicha yondashuvlar mavjud bo‘lib, bunda bir qator nuqtai nazarlar mavjuddir.

Agarda mehnat salohiyati samaradorligi mezonini ishlab chiqaruvchilar nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, unda shu ishlayotgan kishiga qanday manfaat berayotganligi, keltirayotganligi bilan aniqlash mumkin. Unda

samaradorlik mezoni bir ish vaqti birligida xodimga qanday manfaat keltirishi bilan ifodalanadi. Shu sababli ham mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishda manfaatlarni mushtarakligini ta’minlash lozim. Agar ularning ishlatishidan faqat mulkdor manfaatdor bo‘lsa, mehnatkashlarni mehnat kilishiga qiziqishi bo‘lmaydi. Agarda mehnat resurslaridan foydalanishga faqat ishchilarning manfaati ko‘zda tutilgan bo‘lsa, unda mulk egasi undan foydalanmaydi.

Bizning fikrimizcha, xizmat ko‘rsatish korxonalarida mehnat salohiyatidan foydalanish samaradorligining mezonini aniqlashda uning tarkibiy elementlari va omillarini aniqlash zarur.



1-rasm. Xizmat ko‘rsatish korxonalarida mehnat salohiyatidan foydalanish samaradorligining mezonlari

davlatning ishlab chiqarishning optimal nisbatlarini shakllantirish va bu davlat sanoat siyosatining ifodasidir. Maqolada sanoat korxonalarini rivojlantirishning xududiy siyosatini takomillashtirish buyicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Sanoat salohiyati, bozor infratuzilma, transport infratuzilmasi, kooperatsiya, rentabellik.

Аннотация: Промышленный потенциал региона является основой формирования региональной конкурентоспособности. Актуальность изучения межрегионального промышленного потенциала нашей страны означает, что национальная экономика как целостная система должна основываться на специфике любого административно-хозяйственного субъекта. Основная цель - определение межрегиональных связей, в результате которых формируются оптимальные соотношения производства в промышленном комплексе и государстве в целом, и это является выражением промышленной политики государства. В статье даны рекомендации по совершенствованию региональной политики развития промышленных предприятий.

Ключевые слова: Промышленный потенциал, рыночная инфраструктура, транспортная инфраструктура, кооперация, рентабельность.

Annotation: The industrial potential of the region is the basis for the formation of regional competitiveness. The urgency of studying the interregional industrial potential of our country means that the national economy as a whole system must be based on the specifics of any administrative and economic entity. The main goal is to define interregional relations, resulting in the formation of optimal ratios of production in the industrial complex and the state as a whole, and this is an expression of the state's industrial policy. The article provides recommendations for improving the regional policy for the development of industrial enterprises.

Keywords: Industrial potential, market infrastructure, transport infrastructure, cooperation, profitability.

Hozirgi vaziyatga asosan asosiy vositalarning texnologik holati pastligi, ilmiy -tadqiqot ishlanmalarini bajaruvchi korxonalarning kamligi, malakali ishchilar sonining kamligi va ko'plab sanoat korxonalarining salbiy moliyaviy natijalari sabab bo'ladi. Maqolaning xulosasiga ko'ra, mintaqaning sanoat salohiyatini rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan muammolarni hal qilish uchun zamonaviy iqtisodiy sharoitga mos keladigan muvozanatli sanoat siyosatini shakllantirish zarur.Ta'kidlash joizki, sanoat salohiyatini mintaqaviy darajada o'rganish keng tarqalmagan. Biroq, mintaqaning sanoat salohiyatini rivojlantirish muammosi ko'rib chiqilgan bir qator asarlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Bu borada Bakanach O.V. va Gaus K.V. Mintaqaning sanoat salohiyati deganda, hududiy korxonalarning raqobatbardosh mahsulotlar yaratish va ishlab chiqarish, ularni bozorda ilgari surish, foydali sotish va xizmat ko'rsatish darajasini ta'minlash qobiliyati tushuniladi[48]. Mualliflarning ta'kidlashicha, sanoat salohiyatini rivojlantirishning eng muhim yo'nalishi - uni yangilash, texnologik modernizatsiya qilish, texnologik jihatdan eng ilg'or bo'lgan tarmoqlarni jadal rivojlantirish. Mintaqaviy iqtisodiyot uchun, ularning fikricha, mahalliy sanoatning rivojlanishi birinchi o'rinda turadi, bu ish o'rinlari yaratish, ichki talabni qondirish va hududni kompleks rivojlanishiga hissa qo'shishda muhim rol o'ynaydi.

[48] Bakanach O.V., Gaus K.V. A typology of regions of the Russian Federation by the level of development of industrial potential // Problemy sovershenstvovaniya organizatsii proizvodstva i upravleniya promyshlennymi predpriyatiyami: mejvuzovskiy sbornik nauchnykh trudov. 2012.

– Bugungi o'zgaruvchan sharoitda iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashning eng samarali yo'li bu – ichki imkoniyatlarni ishga solish, import bo'layotgan ayrim mahsulotlarni o'zimizda ishlab chiqarish va sanoatni yanada rivojlantirish. Bu milliy iqtisodiyotimizning ustuvor yo'nalishi bo'lishi kerak, – dedi Shavkat Mirziyoyev 2022 yil 11-mart kuni “Sanoat kooperatsiyasi va mahalliylashtirishni yanada kengaytirish masalalari” bo'yicha videoselektor yig'ilishida. [49]

Respublika sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Toshkent shahri, Toshkent, Navoiy, Andijon va Farg‘ona viloyatlari hissasiga to‘g‘ri keldi. Eng past ulush esa Surxondaryo hamda Jizzax viloyatlarida qayd etildi. (1- rasm) Navoiy viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish aholi jon boshiga 34 mln 493 ming so‘mdan to‘g‘ri kelib, respublikadagi eng baland ko‘rsatkich bo‘ldi. Ushbu hajm Toshkent viloyatida kishi boshiga 12 mln 278 ming so‘mdan, Toshkent shahrida 13 mln 488 ming so‘mdan to‘g‘ri keldi. Manbada mazkur hududlarda yirik sanoat korxonalari joylashgani sababli ko‘rsatkichlar yuqori ekani keltirilgan.

Jahon tajribasi resurslar va xom ashyo bilan bog‘liq ishlab chiqarishga sarflanadigan mablag‘ yoki mehnatning kapital birligiga nisbatan rentabelligi vaqt o‘tishi bilan kamayib borishini ko‘rsatadi. Ya'ni, xom ashyo yetkazib berishga ixtisoslashgan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sish va ishlab chiqarish hajmini ko‘payishtirish uchun, avvalo, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishga bo‘lgan xarajatlarning oshirilishi talab etiladi. Shuningdek, xom ashyo yetkazib berishga ixtisoslashgan mamlakatlar iqtisodiyoti tashqi bozorlarga yuqori darajada bog‘liq bo‘lib, tashqi bozorlarda yuzaga kelgan aks o‘zgarishlar mamlakat iqtisodiyotini zaiflashishiga olib keladi.

Muhtaram yurtboshimizning **2020** yil **29** yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan **murojaatnoma**sida iqtisodiy o‘sishga raqobatbardosh sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish zanjirlarini tashkil qilish orqali erishilishi ko‘rsatib o‘tilgan.[50] Shundan kelib chiqib, raqobatbardosh sanoat zanjirlarini yaratishda, avvalo, sanoat drayverlari bo‘lgan tarmoqlarda tashqi bozorlarda raqobatbardosh bo‘lgan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlarini oshirib, ularni eksport qilish orqali yangi bozorlarga kirib borishimiz lozim.

Shuni ham takidlash lozimki, hududlarda sanoat va umumiy iqtisodiy o'sishiga erishish uchun yo'llar tarmog'ini rivojlantirishga, avtomobil yo'llarini qurishga, avtomobil yo'llarini zaxiralashga va mavjud avtomobil yo'llarini me'yorda saqlashga ko'proq e'tibor qaratish lozim. Infratuzilmaning rivojlanishi materiallar, ehtiyot qismlar va tayyor mahsulotlarni sotib olish, yetkazib berish, tashish va saqlash jarayonida moddiy oqimlarni yaxshiroq va samaraliroq

[49] https://www.uzavtoyul.uz/uz/post/sanoat-kooperatsiyasi-va-mahalliylashtirish-milliy-iqtisodiyotning-ustuvor-yonalishi-12-03-22.html

boshqarishga yordam beradi, xarajatlarni optimallashtiradi va ishlab chiqarish jarayonini, sotish va tegishli xizmatlarni tartibga soladi. Hududlar iqtisodiyotida sanoat korxonalarining o’rnini oshirish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqasadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining, ishlab chiqarishni rivojlantirish va innovatsion rivojlanishga o'tish uchun sarmoya kiritish uchun rentabellik darajasini oshirish;

-bozor infratuzilmasini mukammallashtirish: chakana savdo tarmog'ining roli oshib borayotgani va kooperatsiya rivojlantirish;

- transport infratuzilmasini talab darajasiga olib kelish;
- moliyaviy beqarorlikka erishish;
- investitsiyalar oqimining yetarlicha oshirish;
- tabiiy va iqlim omillarining ta'sirini hisobga olish;
- sug'urtalash tizimini rivojlantirish;
- axborotni qo'llab -quvvatlash;

-malakali kadrlarni yetishtirish.

Hozirgi vaziyatga asosan asosiy vositalarning texnologik holati pastligi, ilmiy -tadqiqot ishlanmalarini bajaruvchi korxonalarning kamligi, malakali ishchilar sonining kamligi va ko'plab sanoat korxonalarining salbiy moliyaviy natijalari sabab bo'ladi. Maqolaning xulosasiga ko'ra, mintaqaning sanoat salohiyatini rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan muammolarni hal qilish uchun zamonaviy iqtisodiy sharoitga mos keladigan muvozanatli sanoat siyosatini shakllantirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Bakanach O.V., Gaus K.V. A typology of regions of the Russian Federation by the level of development of industrial potential // Problemy sovershenstvovaniya organizatsii proizvodstva i upravleniya promyshlennymi predpriyatiyami: mejvuzovskiy sbornik nauchnykh trudov. 2012.
2.https://www.uzavtoyul.uz/uz/post/sanoat-kooperatsiyasi-va-mahalliylashtirish-milliy-iqtisodiyotning-ustuvor-yonalishi-12-03-22.html

3.https://mineconomy.uz/uz/info/3865

MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA XIZMATLAR SOHASI VA SANOAT TARMOQLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Erdonov Muhammadamin Erdon o‘g‘li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Real iqtisodiyot kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi
e-mail: erdonovmuhammad@gmail.com

Annotatsiya:Mazkur maqolada bugungi kunda raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko’rsatish korxonalari samaradorligini oshirish imkoniyatlari va yo’nalishlari haqida fikr-mulohazalar keltirilgan.

Abstract: This article presents opinions about the possibilities and directions for improving the efficiency of service enterprises in the digital economy today.

Абстракт:В данной статье представлены мнения о возможностях и направлениях повышения эффективности предприятий сферы услуг в условиях цифровой экономики сегодня.

Kalit so’zlar: xizmat, xizmat ko’rsatish, raqamli iqtisodiyot, samaradorlik.

Key words: service, service provision, digital economy, efficiency

Ключевые слова: сервис, предоставление услуг, цифровая экономика, эффективность.

Xizmat ko‘rsatish sohasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi o‘z mazmuniga ko‘ra turmush farovonligi va uning sifatini oshirish, zamonaviy tarmoqlarning shakllanishi bilan bog‘liq bo‘lgan inson kapitalini rivojlantirish uchun maqbul shartsharoitlarni yaratish, mehnat taqsimotining nisbatan yuqori darajasini ta’minlash bo‘yicha xo‘jalik faoliyatining turli yo‘nalishlarini qamrab oladi.

Iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi sharoitida xizmatlar sohasi iqtisodiy jihatdan sanoat ishlab chiqarishiga qaraganda ancha samaralidir, chunki xizmatlar sohasida boshlang‘ich faoliyatni amalga oshirish kamroq mablag‘larni talab qilib, kapitalning aylanish tezligi ancha yuqori hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalarini doimiy tarzda barqaror rivojlanishi hamda xizmat ko‘rsatish intensivligini ta’minlashda samaradorlikni oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish alohida dolzarb masala hisoblanadi.

Shunga ko‘ra, xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatining samaradorligini oshirish hamda ular faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishda mehnat jarayonlari intensivligi va mehnat unumdorligini oshirish, resurslardan samarali foydalanish, mehnat salohiyati samaradorligini ta’minlash, ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati va natijadorligini oshirish, iste’molchilarning talab va ehtiyojlarini to‘liqroq qondirish bilan bog‘liq masalalar soha rivojlanishining muhim muammolari hisoblanadi.

Dunyo miqyosida iqtisodiy rivojlanishning eng muhim qonuniyatlaridan biri, iqtisodiy o'sishning o'zaro bog'liqligi va milliy iqtisodiyotda xizmatlarning tobora ortib borayotgan roli hisoblanadi,bu xizmatlar sohasida foydalaniladigan mehnat, moddiy va moliyaviy resurslar ulushining ortishi bilan izohlanadi. Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Bu, xususan,sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jiozlanishining o'sishi, ilg’or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda. Hozirgi kunda iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan xizmatlar sohasining o'rni juda katta va ahgamiyatlidir. Bu ishlab

chiqarishning murakkablashuvi, bozorni kunlik va shaxsiy talabdan kelib chiqqan holda tovarlar bilan to'ldirish, jamiyat hayotini yangilovchi ilmiytexnologik taraqqiyotning jadal o'sishi bilan bog'liqdir. Bularning barchasini axborot, moliyaviy, transport, sug'urta va boshqa xizmat turlarisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Bundan tashqari, xizmatlar tovarlar savdosining ajralmas qismi hisoblanadi (ayniqsa texnik jihatdan murakkab), chunki tovarlarni sotish asosan sotish vaqtida ko'rsatilayotgan xizmatlardan va sotishdan keyingi xizmatlardan iborat rivojlanayotgan tarmoqni talab qiladi. Yangi korxona va tashkilotlarni tashkil etish, shuningdek, faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar tomonidan innovatsion texnologiyalardan foydalanish va ko'rsatilayotgan xizmatlar ro'yxatini kengaytirish kelgusida ish o'rinlarini ko'paytirish va aholi farovonligini oshirishga yordam beradi.

Baholash o‘rniga xizmat ko‘rsatish korxonasida auditorlik tekshiruvidan foydalanish mutlaqo noto‘g‘ri qadam hisoblanadi. Shuning uchun auditorlik tekshiruvi baholash o‘rniga emas, balki baholash bilan birga o‘tkazilishi kerak. Keyingi ishlar jarayonida korxona uchun mol-mulkni sotishga zarurat tug‘ilishi mumkin. Shu munosabat bilan ushbu mol-mulkni baholash zarur bo‘ladi. Bundan tashqari, xizmat ko‘rsatish korxonasini rivojlantirishda investitsiya loyihalarini baholash va biznesni rejalashtirish bo‘yicha bilimlar talab etilishi mumkin. Shunday qilib, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonasini transformatsiyalash (qayta tarkiblash) uchun baholash ishlarining aniq bajarilishini ta’minlash lozim.

Korxonalarni transformatsiyalash (qayta tarkiblash) ishlari, faqat ularda korxonaning va tegishli bozor infratuzilmasining mutaxassislari ishtirok etgan taqdirda, bajarilishi mumkin, tranaformatsiyalash (qayta tarkiblash) dasturining ishlab chiqilishi natijasida esa, xizmat ko‘rsatish korxonasining nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, ma’naviy maqom yo‘nalishlari aniqlanadi.

Korxonalarni transformatsiyalash mehnat taqsimoti va xizmat ko‘rsatishning ixtisoslashuvini ta’minlagan holda, ishlab chiqaruvchilar va ularning ishlab chiqargan mahsulotlaridan bahramand bo‘luvchilar, ya’ni, iste’mol qiluvchilarning manfaatlarini inobatga oluvchi yagona konsepsiya doirasida amalga oshirilishi lozim. Mintaqalarda transformatsion jarayonlarni rivojlantirish “Transformatsiya rivojini qo‘llab-quvvatlash dasturi” tarkibiga kiruvchi maxsus ishlanmalarga asoslanishi kerak.

Korxonalarni transformatsiyalash jarayonida bir-biriga xom ashyo, resurslar, tovarlar, ishlar va xizmatlarni o‘tkazish kabi o‘zaro kooperatsion aloqa kasb etuvchi bir nechta xo‘jalik sub’yektlari hamkorlik munosabatida bo‘ladi, shuningdek, yakuniy daromad va foydani (qo‘shilgan qiymat) olish bilan bog‘liq o‘ziga xos munosabatlarga kirishadi. Shuning uchun ham har bir tuman hokimliklari mazkur tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissasini qo‘shayotgan iqtisodiyotning bazaviy korxonalari uchun o‘zining differensial “Korxonani trnsformatsiyalash Nizomi” ning yaratilishi va shu asosida ish faoliyati yuzasidan doimiy monitoring yuritishi kerak, chunki transformatsiyalash jarayonlari yilning to‘rt faslida ham barqarorlikni ta’minlash garovidir. Shuningdek, Respublika aholisining bandligi va daromadlari barqaror o‘sishini

ta’minlashga doir vazifalarni hal etishda kasanachilikning turli shakllarini keng rivojlantirish, jumladan, uning yirik sanoat korxonalari bilan kooperatsiyasini kengaytirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilar o‘rtasida kooperatsiya aloqalarining mustahkamlanishi oila budjeti daromadlarini oshirishdek muhim muammoni hal etadi, ish bilan band bo‘lmagan aholi sonini keskin qisqartirish va uning faol qismini ishlab chiqarishga jalb etish imkonini beradi. Ayni paytda kasanachilar ish stajini hisoblash, ularga pensiya va ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha nafaqalar tayinlash huquqi ta’minlanadi.

Sanoat korxonalarining kasanachilarga zarur xomashyo va materiallarni yetkazib berish asosida oilaviy pudratni rivojlantirish fuqarolarga vaqtdan unumli foydalanish, shu bilan birga, past rentabelli va ko‘p mehnat sarfi talab qilinadigan mahsulotlarning ayrim turlarini uy sharoitida ishlab chiqarishni o‘zlashtirish imkoniyatini yaratadi, bu, o‘z navbatida, yirik korxonalar ish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Ayni paytda globallashuv shiddatli kechayotgan davrda bozor munosabatlarining yo’lga qo’yilishi, mamlakatning jahon hamjamiyatiga integrasiyalashuvi hamda iqtisodiy tizimdagi axborot rolining o’sishi, yangi texnologiyalar, kapital bozorlari o’rtasidagi aloqalarning kuchayishi iqtisodiyotning innovasion rivojlanish yo’liga o’tishini taqozo etmoqda. Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlari tajribasini o’rganish, shuningdek, respublikamizning boy tabiiy va ijtimoiy resurslari, ishlab chiqarish va ilmiytexnik salohiyatini hisobga olib, innovasion rivojlanish yo’lini tanlab olish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, mamlakatimiz rivojlanishini maksimal darajada tashkil etish uchun, eng avvalo, innovasion hamda ilmiy-texnik salohiyatdan samarali foydalanishga jiddiy e’tibor qaratish lozim. Bu borada mamlakatimizning kompleksli innovasion siyosatini shakllantirish bo’yicha qonunchilik asoslarini yaratish zarur.

Sanoat tarmoqlarida innovasion strategiyalarni muntazam ravishda qo’llashni yo’lga qo’yish va tatbiq etishni amalga oshirish uchun ishlab chiqarilayotgan raqobatbardosh mahsulotlarni tashqi bozorlarga chiqarish davomiyligiga erishish sanoat ishlab chiqarish barqarorligini ta’minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Fan-texnika taraqqiyotini ta’minlashning eng muhim yo’nalishlaridan biri, bu – ilg’or, eng zamonaviy texnologiyalarni muntazam ravishda o’zlashtirib borishdan iborat. Ilg’or texnologiyalar, bu – sinovdan o’tgan texnologik jarayonlarni birlashtirish, turlituman fizik – kimyoviy usullarni qo’llash, vakuumlash, nanotexnologiyalardan samarali foydalanish kabi bir qancha usullar majmuini o’zlashtirishni tashkil etishga qaratilgan jarayondir.

Yana bir yo’nalish – ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va mexanizasiyalashtirish, elektrlashtirish va kompyuterlashtirishdan iborat. Rivojlangan mamlakatlarning barcha tarmoqlarida qayd etilayotgan jihatlarning to’liq amalga oshirilishi uchun qat’iy rioya qilinadi. Bu borada talab etilayotgan bironta omilga ikkilamchi vazifa, deya qaralmaydi.

Texnologik innovatsiyaning ikkita turi mavjud bo’lib, ular mahsulotlar innovatsiyalari va jarayonlar innovatsiyalaridan iborat. Sanoat ishlab chiqarishda mahsulot innovatsiyalari texnologik jihatdan yangi va har taraflama takomillashtirilgan mahsulotni tayyorlash va joriy etishni o’z ichiga oladi.

Texnologik yangi mahsulot, bu – texnologik xususiyatlari (funksional belgilari, konstruktiv yo’l bilan bajarilishi, qo’shimcha operatsiyalari, qo’llaniladigan tarkibiy qismlari hamda materiallar tarkibi) yoki qo’llanilish maqsadi prinsipial jihatdan yangi yoki yuridik shaxs tomonidan ilgari ishlab chiqarilgan shunga o’xshash mahsulotlardan sezilarli darajada farq qiluvchi mahsulotdir. Bunday innovasiyalar prinsipial jihatdan yangi texnologiyalarga yoki mavjud texnologiyalardan, tadqiqot va ishlanmalar natijalaridan foydalanishga asoslangan bo’lishi mumkin. Texnologik jihatdan takomillashtirilgan mahsulot, bu – yuqori samarali tarkibiy qismlar va materiallardan foydalanish, bir yoki undan ortiq texnik tarkibiy qismlarni qisman o’zgartirish (kompleks mahsulotlar) yo’li bilan ishlab chiqarishning sifat xususiyatlari yaxshilanadigan va iqtisodiy samaradorligi oshiriladigan mahsulotdir.

Xullas, innovatsion munosabat tadbirkorlik faoliyati rivojlanishining asosini tashkil qiladi. Ya’ni, bozor munosabatlari sharoitida faoliyat yuritayotgan korxonalar va xo’jaliklarning raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishlari, xizmatlar ko’rsatishda muvaffaqiyatga erishishlari uchun muntazam ravishda yangiliklarni izlashga intilishlari va o’z faoliyatlariga tatbiq etishlari bu boradagi eng muhim jihatlar hisoblanadi.

Innovatsion tadbirkorlik zamon talablariga javob beradi, ilmiy-texnik taraqqiyot tezligini tezlashtirish; modellarning o'zgaruvchanligi (2 - 3 yil); kelajakdagi iste'molchilar ehtiyojlarini bugun qondirishga tayyorlik; yangiliklarni (mahsulotlar, xizmatlar, texnologiya, ishlab chiqarishni yoki mehnatni yangi tashkil etish) joriy etish va tarqatish uchun iste'molchilar bilan yaqin aloqada bo'lish kabilar innovatsion sanoat korxonalarining o’ziga xos xususiyatlariga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1.http://ekrost.ru/poster/povyshenie-effektivnosti-predprinimatelskoideyatelnosti-organizacii.html

2. R.A.Brealey, S.C.Myers, F.Allen “Principles of Corporate Finance*, 11th Global Edition. 1341 p. 65-p. 53 Чеботарь Ю.М. Корпоративные финансы и корпоративный контроль: монография /— М.: Автономная некоммерческая организация «Академия менеджмента и бизнес-администрирования», 2016 — 250 с., С. 8.

3. G20/OECD Principles of Corporate Governance. OECD 2015. https://www.oecd.org/daf/- ca/Corporate-Governance-Principles-BNG.pdf

TRANSPORT XIZMATLARI RAQOBATBARDOSHLIGI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

SULTONOV SHODIYOR ABDUXALILOVICH

O‘zbekiston, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
“Real iqtisodiyot” kafedrasining iqtisod fanlari nomzodi, professor
Muallifning elektron manzili: *shodiyorsultonov@gmail.com*
Muallifning telefon raqami: +998 90 743 57 07

OLIMOV ODILJON XAMZA O‘G’LI
O‘zbekiston, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Mustaqil tadqiqotchi
Muallifning elektron manzili: *odiljonxamzaolimov@gmail.com*
Muallifning telefon raqami: +998 90 101 17 11

Annotatsiya: Transport xizmatlari raqobatbardoshligini va samaradorligini oshirish, iqtisodiy rivojlanish va jamiyatning ehtiyojlarini qondirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu ishda transport xizmatlari sohasida samaradorlikni oshirish va raqobatni kuchaytirish uchun zarur bo‘lgan usullar, texnologiyalar va menejment strategiyalari o‘rganiladi. Raqobatbardoshlikni oshirish uchun infrastrukturani rivojlantirish, xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash, transport tarmoqlarining integratsiyasi va raqamli texnologiyalarni joriy etish kabi omillar muhim ahamiyatga ega. Samaradorlikni oshirish uchun resurslardan foydalanishni optimallashtirish, ekologik ta’sirni kamaytirish va transport xavfsizligini ta'minlash kabi chora-tadbirlar kiritilgan.

Kalit so‘zlar: Transport xizmatlari, raqobatbardoshlik, samaradorlik, iqtisodiy o‘sish, diversifikatsiya, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, innovatsiyalar, eksport, raqobat muhiti, davlat dasturlari, kadrlar tayyorlash.

Аннотация: Повышение конкурентоспособности и эффективности транспортных услуг имеет важное значение для экономического развития и удовлетворения потребностей общества. В данной работе рассматриваются методы, технологии и стратегии управления, которые необходимы для повышения эффективности и усиления конкуренции в сфере транспортных услуг. Важным аспектом для повышения конкурентоспособности является развитие инфраструктуры, улучшение качества обслуживания, интеграция транспортных сетей и внедрение цифровых технологий. Для повышения эффективности предлагаются меры, такие как оптимизация использования ресурсов, снижение экологического воздействия и обеспечение транспортной безопасности.

Ключевые слова: Транспортные услуги, конкурентоспособность, эффективность, экономический рост, диверсификация, финансовая поддержка, инновации, экспорт, конкурентная среда, государственные программы, подготовка кадров.

Abstract: Increasing the competitiveness and efficiency of transport services is crucial for economic development and meeting societal needs. This work examines the methods, technologies, and management strategies necessary for improving efficiency and enhancing competition in the transport services sector. Key factors for improving competitiveness include the development of infrastructure, enhancing service quality, integrating transport networks, and the implementation of digital technologies. To increase efficiency, measures such as optimizing resource use, reducing environmental impact, and ensuring transport safety are discussed.

Key words: Transport services, competitiveness, efficiency, economic growth, diversification, financial support, innovation, export, competitive environment, government programs, personnel training.

Kirish. Transport sektori har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi va jamiyat ehtiyojlarini qondirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu soha barcha iqtisodiy faoliyat tarmoqlari bilan bog‘liq bo‘lib, uning samaradorligi va raqobatbardoshligi

nafaqat davlat iqtisodiyotiga, balki aholining turmush darajasiga ham bevosita ta'sir koʻrsatadi. Bugungi kunda transport xizmatlarining samaradorligi va raqobatbardoshlikni oshirish uchun innovatsion yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish zarur boʻlgan ahamiyatga ega. Ushbu maqolada transport xizmatlarining raqobatbardoshligini va samaradorligini oshirishning asosiy yoʻllari tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Transport sektori samaradorligini oshirishda infrastrukturani rivojlantirishning alohida oʻrni bor. Yangi va zamonaviy infrastrukturani yaratish, mavjud yoʻl va transport tarmoqlarini ta'mirlash, shuningdek, intellektual transport tizimlarini joriy etish raqobatbardoshlikni oshiradi. Bundan tashqari, koʻpriklar, tunnel va avtoturargohlar kabi ob'ektlar orqali yuk tashish va yoʻlovchi oqimlarini soddalashtirish mumkin.

Transport sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish va innovatsiyalarni qoʻllash samaradorlikni oshiradi. Avtomatlashtirilgan transport tizimlari, GPS tizimlari, transport oqimlarini nazorat qilish va boshqarish kabi texnologiyalar transport xizmatlarini yanada samarali va tezkor qilishga yordam beradi. Yana bir muhim element, raqamli toʻlov tizimlari va elektron chipta tizimlarining joriy etilishi transport sohasida xizmat sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Raqobatbardoshlikni oshirish uchun xizmat koʻrsatish sifatini doimiy ravishda yaxshilash zarur. Yoʻlovchilarga qulayliklar yaratish, mijozlar ehtiyojlarini hisobga olish va xizmatni takomillashtirish soha uchun ustuvor ahamiyatga ega. Shuningdek, xodimlarning malakasini oshirish va mijozlarga doʻstona munosabatni targʻib qilish muhim hisoblanadi.

Transport sohasining ekologik ta'siri ham raqobatbardoshlikni oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ekologik transport turlariga oʻtish, energiya samaradorligini oshirish va chiqindilarni kamaytirish nafaqat atrof-muhitni himoya qilishga, balki iqtisodiy samaradorlikni ham oshirishga xizmat qiladi. Elektr transporti va boshqa ekologik toza texnologiyalarni joriy etish bu borada katta ahamiyatga ega.

Resurslardan samarali foydalanish, xususan, yoʻl tarmogʻidan foydalanishni optimallashtirish, transport tizimining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Yoʻllarning yuklanish darajasi va transport vositalarining optimal ishlashi orqali xizmat koʻrsatish tezligi va sifati oshiriladi.

Xulosa. Transport xizmatlari raqobatbardoshligini va samaradorligini oshirish, sohaning rivojlanishiga katta turtki boʻladi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun bir qancha muhim omillarni hisobga olish zarur. Infrastruktura, raqamli texnologiyalar, xizmat koʻrsatish sifati, ekologik ta'sir va resurslardan samarali foydalanish kabi jihatlar transport xizmatlarining samaradorligini oshirishda asosiy omil hisoblanadi. Shu bilan birga, raqobatni kuchaytirish orqali foydalanuvchilarga yuqori sifatli va tezkor xizmatlar taqdim etilishi mumkin. Bu esa, oʻz navbatida, mamlakat iqtisodiyotini yanada rivojlantirishga hissa qoʻshadi.

Takliflar quyidagilardan iborat:

1. Transport tarmoqlarini zamonaviylashtirish va yangi texnologiyalarni joriy etish orqali sifatli xizmatlar koʻrsatish.

2. GPS tizimlari, onlayn to‘lov tizimlari va raqamli chipta tizimlarini rivojlantirish.

3. Elektr transport vositalarini va ekologik toza texnologiyalarni rivojlantirish.

4. Mijozlar ehtiyojlarini yaxshiroq tushunish va xizmatni takomillashtirish uchun xodimlar malakasini oshirish.

5. Transport vositalarining samarali ishlashini ta'minlash va yo‘l tarmog‘idan optimallashtirilgan tarzda foydalanish.

Ushbu takliflar amaliyotga joriy etilishi bilan transport xizmatlarining raqobatbardoshligi va samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

14. Султонов Ш. А., Шомуродова Ш. Ш. ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИДА ТАДБИРКОРЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА АҲОЛИНИНГ ТУРМУШ ДАРАЖАСИ ВА СИФАТИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 12. – С. 248-252.

15. Sulonov S. A., Shomurodova S. S. XIZMAT KO’RSATISH SOHASIDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRIB, AHOLI TURMUSH DARAJASI VA SIFATINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO’NALISHLARI //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 247-251.

16. Baxtiyorovna M. G., Abdukhalilovich S. S., Nodirovna M. S. Directions of Improvement of the Mechanism of State Support of Business Entities //Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 1-7.

17. Mamanova G. B., Sultonov S. A., Mirzaeva S. N. Improvement of Economic Mechanisms for State Support of Private Entrepreneurship (Samarkand Region) //Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences.

TURISTIK XIZMATLAR VUJUDGA KELISHINING XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Umirzoqova Muxabbat Ismatjon qizi

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti assistent

Tel:+9989933576799

mumirzoqova@mail.ru

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy iqtisodiyotda turizm industriyasining o‘sib borayotgan roli, uning shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar atroflicha yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda turizm sohasining rivojlanish bosqichlari tarixiy ketma-ketlikda ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *turistik xizmatlar, tabiiy resurslar, turizm salohiyati, tarixiy, madaniy, iqtisodiy komponentlar, turistik xizmatlar xususiyatlari, rivojlanish bosqichlari.*

Abstract. *This article comprehensively discusses the growing role of the tourism industry in the modern economy, the factors influencing its formation and development. Also, the stages of development of the tourism sector in Uzbekistan are considered in historical sequence.*

Keywords: *tourist services, natural resources, tourism potential, historical, cultural, economic components, characteristics of tourist services, stages of development.*

Аннотация. *В статье дается комплексный обзор растущей роли туристической отрасли в современной экономике, а также факторов, влияющих на ее формирование и развитие. Также были рассмотрены этапы развития туристической сферы Узбекистана в исторической последовательности.*

Ключевые слова: *туристические услуги, природные ресурсы, туристический потенциал, историко-культурная, экономическая составляющие, характеристики туристических услуг, этапы развития.*

Kirish

Bugungi kunda har bir mamlakat iqtisodiyotida turizm xizmatlarining roli ortib bormoqda. Buni xalqaro va ichki turizmni rivojlantirish muammolariga olimlar va tadqiqotchilar, shuningdek, ushbu sohani shakllantirish va qo‘llab-quvvatlashda bevosita yoki bilvosita ishtirok etayotgan turli xalqaro tashkilotlarning e’tibori ortib borayotganini ko‘rsatuvchi tadqiqotlar ham tasdiqlaydi. Har bir mamlakatning turizm sohasi shakllanishi va rivojlanishining asosiy jihati uning turizm salohiyatidir. Sababi turizm sohasida turli xo‘jalik sub’ektlari, mintaqalar, mamlakatlar o‘rtasida yaqin hamkorlik mavjud bo‘lib, bu siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy sohalarni hisobga olgan holda hamkorlik kontekstida yangi masalalarni o‘rganishni taqozo etadi.

Turizm salohiyatining kontseptual apparatini o‘rganar ekan, shuni ta’kidlash mumkinki, tabiiy resurslarni (iqlim, relyef, landshaftlar, noyob ekotizimlar) o‘z ichiga olgan ko‘p qirrali tushunchadir; madaniy, tarixiy va arxeologik yodgorliklar — turizm infratuzilmasi; moddiy-texnik ta'minlash. O‘z navbatida, hududning turizm salohiyati to‘rtta asosiy komponentlar yig‘indisi sifatida qaraladi, ya’ni (i) tabiiy resurslar; (ii) tarixiy va madaniy; (iii) iqtisodiy; va (iv) o‘zaro bog'langan va bir-biri bilan o‘zaro ta'sir qiluvchi ijtimoiy turizm salohiyatini besh komponentdan iborat: tabiiy, tabiiy antropogen, tarixiy-madaniy, infratuzilma va investitsiya sifatida ko‘rib chiqadilar.

Tabiiy komponentga quyidagilar kiradi: geologik, orografik, iqlimiy, gidrografik, o‘simlik va hayvonot resurslari. Bundan bu komponentni tabiiy-resurs deb ataydi. Bundan tashqari, turizm salohiyati tushunchasini ochib beruvchi olimlar mintaqa va korxonaning turizm salohiyatini farqlaydilar. Ularning ta'riflariga ko‘ra, korxona salohiyati mahsulotni shakllantirishda uning ichki resurslarini o‘z ichiga oladi va uning moddiy va nomoddiy resurslari majmuini ifodalaydi. Shunda shuni aytish mumkinki, hududning turizm salohiyati tabiiy, etnik-madaniy va ijtimoiy-tarixiy resurslar majmuini, shuningdek, hududning mavjud iqtisodiy va kommunikatsiya infratuzilmasini qamrab oluvchi keng qamrovli tushunchadir. turizmning ayrim turlarini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar.

Turistik xizmatlar vujudga kelishining xususiyatlari haqida gapirganda, turizm sanoatining shakllanishi va rivojlanishi bilan bog‘liq ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillarni hisobga olish lozim. Shu kabi omillarni inobatga olgan holda turizm xizmatlarini vujudga kelishining quyidagi asosiy xususiyatlarini keltirishimiz mumkin:

1. Turizmga bo‘lgan ehtiyojning ortishi. Turistik xizmatlar avvalo odamlarning sayohat qilish, hordiq chiqarish, yangi joylar va madaniyatlar bilan tanishish ehtiyoji

tufayli paydo bo‘ladi. Bu ehtiyojlar tarixan savdo, ziyorat, davolanish yoki dam olish bilan bog‘liq bo‘lgan.

2. Transport vositalarining rivojlanishi. Transport tizimi rivojlanishi bilan odamlar uzoq masofalarga tez va qulay tarzda borish imkoniga ega bo‘ldilar. Bu esa turizm xizmatlarining kengayishiga olib keldi (masalan, aviachiptalar, avtobus yo‘nalishlari, kruizlar).

3. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish. Aholining yashash darajasi oshgani sari odamlarning bo‘sh vaqti va moliyaviy imkoniyatlari ko‘paydi. Bu esa turistik xizmatlarga talabni oshirdi.

4. Turar joy va infratuzilma tizimining shakllanishi. Sayohatchilarni qabul qilish uchun mehmonxonalar, dam olish maskanlari, restoranlar, gidlar, ekskursiyalar kabi xizmat turlari vujudga keldi. Bu xizmatlar turizmning asosiy qismini tashkil etadi.

5. Ijtimoiy va madaniy omillar. Turistik xizmatlar insonlarning madaniy almashinuvi, tarixiy joylarga qiziqishi, urf-odatlarni o‘rganish istagi asosida ham shakllandi. Shu bilan birga, diniy ziyoratlar (masalan, Haj safari) ham turistik xizmatlarning qadimiy shakllaridan biridir.

6. Texnologik taraqqiyot. Internet va raqamli texnologiyalar rivoji sayohatlarni rejalashtirish, bron qilish, onlayn xizmatlardan foydalanish imkonini berdi. Bu esa turistik xizmatlarning sifatini oshirdi va ularni keng ommaga ochdi.

7. Davlat siyosati va qo‘llab-quvvatlash. Ko‘plab davlatlar turizmni rivojlantirish maqsadida maxsus dasturlar, qonunlar va investitsiyalar ajratadilar. Bu esa xizmatlarning yanada barqaror vujudga kelishini ta’minlaydi.

Shu o‘rinda, O‘zbekistonning turizm sohasidagi rivojlanishini shartli ravishda to‘rtta bosqichga ajratsak bo‘ladi.

Birinchi bosqich. Mustaqillikka erishgach, 1991-yildan keyin O‘zbekistonning turistik xizmatlar bozori shakllana boshladi. Aynan shu davrda respublika o‘zining iqtisodiy mustaqilligini va mustaqil ravishda tashqi dunyo bozorlariga chiqishini e’lon qildi. Shu davrda qabul qilingan tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risidagi qonun turistik xizmatlarni sotuvchi korxonalarga yangi asos yaratdi. Natijada, tarmoqda yangi boshqaruv tizimini shakllantirish, turistik biznesni yuritishga yordamlashadigan qo‘shimcha biznes turlarini yaratish, sohaga xizmat qiladigan bank, audit, maslahat xizmatlarini tashkil etish, viloyatlarda turizm tarmog‘ining mintaqaviy bo‘linmalarini tuzish, xalqaro miqyosda turizm mahsulotini reklama qilish, xususiylashtirilgan turistik korxonalarni litsenziyalashtirish kabi masalalarga alohida e’tibor berildi.

Amalga oshirilgan o‘zgarishlar turistlarni qabul qilish shaklini jadallik bilan rivojlantirdi. 1995-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Buyuk ipak yo‘lini qayta tiklashda O‘zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar» to‘g‘risidagi Farmoni Buyuk Ipak yo‘lida turistik mahsulotni tiklash borasida strategik ahamiyatga ega bo‘ldi.

Bu o‘z navbatida O‘zbekiston turizm sohasidagi islohotlarning **ikkinchi bosqich**ini boshlab berdi. Natijada Buyuk Ipak yo‘lidagi shaharlar va turistik manzillar ro‘yxatga olindi, Imom al-Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Abduholiq G‘ijduvoniy, Ahmad al-Farg‘oniy, 3 http//www. lex.uz 9 Imom al-Motrudiy, Mahmudi A’zam, Hakim at-Termiziy, Hazrati Imom, Shayx Shamsiddin Kulol, Burxoniddin

Marg‘iloniy, Buxorodagi Chor Bakrlar kabi allomalarimizning maqbaralari ta’mirlandi va ziyoratgoh majmualarga aylantirildi. 1998-yildan boshlab, Toshkent shahrida muntazam ravishda Xalqaro turistik ko‘rgazma tashkil etila boshlandi, mehmonxonalardagi xalqaro talablarga javob beruvchi o‘rinlar soni 4,8 barobarga ko‘paytirildi.

Turizm sohasidagi islohotlarning **uchinchi bosqich**ida, 1999-yil 15-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2005-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat dasturi to‘g‘risida»gi Farmoni e’lon qilindi, shu yilning 20-avgustida esa O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan «Turizm to‘g‘risida» gi Qonun qabul qilindi. Buning asosida turizm sohasidagi bozor munosabatlari uzil-kesil yo‘lga qo‘yildi hamda xalqaro bozorda raqobatbardosh turistik mahsulot yaratila boshlandi, turizm tizimini boshqarishning markazlashtirilishiga chek qo‘yildi. Ko‘pchilik turistik 10 obyektlar o‘zlarini mustaqil ravishda boshqara boshladi, xizmatlar bozorida raqobatlasha olmaydigan korxonalar yopilib, ular o‘rniga samarali ishlovchi yangi korxonalar tashkil etildi.

Turizm sohasidagi islohotlarning **to‘rtinchi bosqichi** 2000-yildan boshlangan bo‘lib, hozirgi kungacha davom etmoqda. Bu davrda xususiy turistik tashkilotlar assotsiatsiyasiga va tashkil etiladigan boshqa turistik assotsiatsiyalarga asos qo‘yildi (Gid-tarjimonlar assotsiatsiyasi, Mehmonxona egalari assotsiatsiyasi, Transportchilar assotsiatsiyasi) va «O‘zbekturizm» Milliy Kompaniyasining bir qator vakolatlarini o‘tkazish ustida izlanishlar olib borildi. Bu o‘lkamiz turizm xizmatlar bozorida faoliyat yurituvchi korxonalarning yanada tezroq sur’atlarda rivojlantirishga yordam berdi. O‘zbekiston Respublikasining bu davrdagi amalga oshirilgan ulkan ishlarini hisobga olib, Islom konferensiyasi tashkiloti (OIK) tarkibidagi muassasalardan biri – Ta’lim, Fan va madaniyat masalalari bo‘yicha Xalqaro islom tashkiloti (ISESCO) Toshkentni 2007-yilda Xalqaro islom madaniyati markazi deb e’lon qildi. O‘zbekistonning islom madaniyati va ilmi oldidagi, islom merosi va yodgorliklarini asrash va yanada boyitish borasidagi mislsiz xizmatlari uchun Toshkent shunday yuksak va faxrli unvonga sazavor bo‘ldi.

Xulosa

Bugungi kunda turizm industriyasi har bir mamlakat iqtisodiyotida muhim rol o‘ynab, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biriga aylanmoqda. Turistik xizmatlarning vujudga kelishi va rivojlanishida bir qator omillar – ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, transport va texnologik rivojlanishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, hududning tabiiy, tarixiy-madaniy va iqtisodiy salohiyati turizmning shakllanishida asosiy o‘rin tutadi.

O‘zbekiston misolida olib qaralganda, turizm sohasining shakllanishi mustaqillikdan keyingi to‘rtta asosiy bosqichda amalga oshgani kuzatiladi. Har bir bosqichda sohaga oid qonunlar, farmonlar, infratuzilma loyihalari, xalqaro aloqalar va madaniy meros obidalarini tiklash bo‘yicha katta ishlar bajarildi. Bu islohotlar tufayli O‘zbekiston dunyo turizm xaritasida o‘z o‘rniga ega bo‘lib, xalqaro maydonda taniqli turistik yo‘nalishga aylandi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, turizm industriyasi nafaqat iqtisodiy foyda keltiruvchi soha, balki mamlakat imijini shakllantiruvchi, madaniyat va

tarixni targ‘ib qiluvchi kuchli vositadir. Kelajakda bu sohani yanada rivojlantirish uchun turistik salohiyatni to‘liq safarbar qilish, zamonaviy xizmat turlarini yo‘lga qo‘yish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.S. Tuxliyev, R.Hayitboyev, B.Sh. Safarov, G.R.Tursunova. Turizm asoslari. –T.: «Fan va texnologiya», 2014, 328 bet.
2. https://research.nordicuniversity.org/index.php/nordic/article/view/856
3. https://kitobsevar.uz/kxpv/xrpt_2hpaduadcy6jjxu8urcjupmebefifsd71u75e89gu4r6ob3at6jekxim3ov9815xj2poyovihdd.pdf

IV SHO‘BA. XIZMATLAR SOHASIDA TARKIBIY O‘ZGARISHLARNI AMALGA OSHIRISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARINI YAXSHILASH DASTURLARI VA RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH MASALALARI.

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ДЛЯ УЛУЧШЕНИЯ КАЧЕСТВА И ДОСТУПНОСТИ УСЛУГ

Абдуллаева Зульфия Иззатовна,
и.о.доц. кафедры «Реальная экономика»
Самаркандский институт экономики и сервиса (СИЭиС)
Тел.+998933516537
E-mail: abdullaevazulfiya70@ gmail.com.

Аннотация. В данном тезисе раскрыты основные технологические решения, которые последние годы активно внедряются для улучшения качества и доступности услуг. Рассматриваются возможности искусственного интеллекта для улучшения качества и доступности услуг через автоматизацию, аналитические инструменты и персонализацию.

Ключевые слова и словосочетания: технология, качество, секторы экономики, технологические инновации, услуги, пользователи, технологические решения.

Annotatsiya. Ushbu dissertatsiya so'nggi yillarda xizmatlar sifati va mavjudligini yaxshilash uchun faol joriy etilgan asosiy texnologik echimlarni ochib beradi. Avtomatlashtirish, tahliliy vositalar va shaxsiylashtirish orqali xizmatlar sifati va mavjudligini yaxshilash uchun sun'iy intellektning imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Tayanch so‘z va iboralar: texnologiya, sifat, iqtisodiyot tarmoqlari, texnologik innovatsiyalar, xizmatlar, foydalanuvchilar, texnologik yechimlar.

Abstract. This thesis reveals the main technological solutions that have been actively implemented in recent years to improve the quality and availability of services. The possibilities of artificial intelligence for improving the quality and availability of services through automation, analytical tools and personalization are considered.

Keywords and phrases: technology, quality, economic sectors, technological innovations, services, users, technological solutions.

Современные технологии играют ключевую роль в улучшении качества и доступности услуг в разных секторах экономики. В последние несколько лет технологические инновации значительно изменили подходы к предоставлению услуг, их организации и доступности для конечных пользователей. Рассмотрим основные технологические решения, которые последние годы активно внедряются для улучшения качества и доступности услуг.

Искусственный интеллект (ИИ) и машинное обучение:

– автоматизация обслуживания клиентов: ИИ и чат-боты становятся важными инструментами для автоматизации взаимодействия с клиентами в различных отраслях (банковский сектор, здравоохранение, телекоммуникации и другие). Это позволяет не только ускорить обработку запросов, но и улучшить качество обслуживания, благодаря круглосуточной доступности и персонализированному подходу.

– прогнозирование потребностей и улучшение обслуживания: Машинное обучение помогает анализировать данные о клиентах и предсказывать их потребности, позволяя компаниям предложить более актуальные и качественные услуги. Это также способствует повышению эффективности работы сотрудников, минимизации ошибок и улучшению клиентского опыта.

Пример: Компания Zappos использует ИИ для улучшения обслуживания клиентов и предсказания потребностей, что помогает персонализировать предложения и сокращать время отклика.

Облачные технологии:

– доступность и гибкость: Облачные решения предоставляют возможность быстрого масштабирования сервисов, улучшения их доступности и снижения затрат на инфраструктуру. Для бизнеса это означает возможность предоставления услуг в любой точке мира с минимальными затратами на установку и поддержку локальных серверов.

– коллаборация и совместная работа: Облачные технологии также позволяют улучшить доступность и качество услуг для организаций, предоставляющих совместную работу и обмен данными в реальном времени (например, облачные платформы для дистанционного обучения, работы в командах, онлайн-консультаций).

Пример: Google Workspace и Microsoft 365 являются популярными облачными сервисами, которые значительно улучшают доступность и качество совместной работы, особенно в условиях удаленной работы.

Интернет вещей (IoT):

– мониторинг и управление: IoT используется для повышения качества услуг в таких сферах, как здравоохранение, транспорт, энергетика и умные города. Сенсоры и устройства IoT могут мониторить параметры в реальном времени, например, состояние здоровья пациентов, уровень загрязнения воздуха, пробки на дорогах и другие данные, что способствует улучшению предоставляемых услуг.

– автоматизация и персонализация: В области обслуживания клиентов IoT помогает создавать персонализированные и автоматизированные системы, которые реагируют на потребности клиента в реальном времени.

Пример: В сфере здравоохранения системы на основе IoT помогают врачам отслеживать состояние пациентов дистанционно, предоставляя более доступные и качественные медицинские услуги.

Блокчейн.

– прозрачность и безопасность: Блокчейн-технология может значительно повысить доступность и качество услуг, обеспечивая прозрачность и надежность данных. Это особенно актуально в таких отраслях, как финансы, логистика, здравоохранение и государственные услуги, где важно обеспечивать подлинность и безопасность транзакций.

– снижение издержек: Внедрение блокчейна позволяет уменьшить транзакционные издержки и ускорить процессы, что делает услуги более доступными и эффективными для конечного потребителя.

Пример: В сфере здравоохранения блокчейн используется для управления медицинскими записями, позволяя создавать децентрализованные и защищенные базы данных, доступные только уполномоченным пользователям.

Мобильные технологии.

– доступность через мобильные приложения: Развитие мобильных технологий позволяет предоставлять услуги в любой точке мира через мобильные устройства. Это способствует улучшению качества обслуживания, снижению времени ожидания и повышению удобства для пользователей.

– оплата и доступ к услугам: Мобильные платежи, такие как Apple Pay, Google Pay, а также мобильные приложения для управления банковскими счетами и подписками, сделали услуги более доступными и удобными для пользователей.

Пример: В Индии мобильные приложения для оплаты услуг (например, Paytm и PhonePe) позволяют пользователям быстро и удобно оплачивать коммунальные услуги, покупки, такси и даже медицинские консультации.

Дополненная и виртуальная реальность (AR/VR).

– улучшение качества обслуживания: AR и VR используются для улучшения качества обслуживания в различных отраслях. В здравоохранении это может быть обучение врачей с помощью виртуальных

симуляций или удаленные консультации с использованием дополненной реальности.

- интерактивные и персонализированные услуги: В ритейле VR и AR предоставляют пользователям возможность виртуально примерить одежду, увидеть, как мебель будет выглядеть в их доме, или протестировать автомобили перед покупкой.

Пример: IKEA использует AR-приложения, которые позволяют пользователям виртуально "разместить" мебель в своей квартире, улучшая опыт покупок.

Большие данные (Big Data) и аналитика.

- персонализация и улучшение качества услуг: Аналитика больших данных помогает выявлять паттерны поведения клиентов и предсказывать их потребности. Это позволяет создавать персонализированные предложения и улучшать качество обслуживания.
- реагирование на изменения в реальном времени: Использование аналитики данных позволяет быстрее реагировать на изменения в потребительских предпочтениях, экономической ситуации и внешних факторах.

Пример: Netflix использует алгоритмы анализа данных для персонализированных рекомендаций фильмов и сериалов, что значительно улучшает качество пользовательского опыта.

5G и связи нового поколения.

- увеличенная скорость и доступность: 5G обещает значительно улучшить качество услуг, предоставляемых через мобильные сети, благодаря высокой скорости передачи данных, минимальной задержке и возможности подключения множества устройств одновременно.
- развитие удаленных и высококачественных услуг: Внедрение 5G обеспечит качественные видео-консультации в реальном времени, улучшенные системы видеонаблюдения и видеоконсультации в здравоохранении и образовании.

Пример: Vodafone и другие операторы в Великобритании уже начали внедрение 5G, что позволяет улучшить качество мобильных и интернет-услуг для пользователей, а также создавать новые возможности для бизнеса.

Современные технологии, такие как искусственный интеллект, облачные решения, IoT, блокчейн и другие, обеспечивают новые возможности для улучшения качества и доступности услуг. Технологические инновации позволяют не только повышать эффективность и скорость обслуживания, но и создавать персонализированные и удобные решения, которые удовлетворяют потребности клиентов в различных секторах экономики.

Список использованной литературы

1. Mayer-Schönberger, V., & Cukier, K. (2021). "Big Data: A Revolution That Will Transform How We Live, Work, and Think". Eamon Dolan/Houghton Mifflin Harcourt.
2. Teece, D. J. (2022). "Business Models, Innovation, and Competitiveness". Springer.

O‘zbekistonda bank transformatsiyasi va uning rivojlanish istiqbollari.

"Hamkorbank" ATB Samarqand MBXO
boshqaruvchisi U.N.Nizamov
Tel: 933874343
E-@mail: umidnizamov52@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda O‘zbekistonda bank sohasidagi transformatsiya jarayonlari, uning asosiy yo‘nalishlari, muammolari va rivojlanish istiqbollari o‘rganilgan. Muallif raqamlashtirish, FinTex texnologiyalarini joriy etish, qonunchilik islohotlari va kiberxavfsizlik kabi jihatlarni tahlil qiladi. Aholining bank xizmatlaridan foydalanishining o‘sishi, CBDC (markaziy bank raqamli valyutasi) va ISO 20022 kabi xalqaro standartlarga o‘tish kabi muhim tashabbuslar statistik ma’lumotlar asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: bank transformatsiyasi, raqamlashtirish, FinTex, CBDC, ISO 20022, kiberxavfsizlik, Open Banking, biometrik autentifikatsiya, O‘zbekiston, moliyaviy texnologiyalar.

Аннотация: В диссертации исследуются процессы трансформации в банковской сфере Узбекистана, ее основные направления, проблемы и перспективы развития. Автор анализирует такие аспекты, как цифровизация, внедрение технологий FinTex, законодательные реформы и кибербезопасность. На основе статистических данных освещаются такие важные инициативы, как рост использования населением банковских услуг, CBDC (цифровая валюта центрального банка) и переход на международные стандарты, такие как ISO 20022.

Ключевые слова: банковская трансформация, цифровизация, FinTex, CBDC, ISO 20022, кибербезопасность, Open Banking, биометрическая аутентификация, Узбекистан, финансовые технологии.

Abstract: This thesis examines the transformation processes in the banking sector in Uzbekistan, its main directions, problems and development prospects. The author analyzes aspects such as digitization, the introduction of FinTex technologies, legislative reforms and cybersecurity. Important initiatives such as the growth of the population's use of banking services, the transition to international standards such as CBDC (central bank digital currency) and ISO 20022 are highlighted based on statistical data.

Keywords: banking transformation, digitalization, FinTex, CBDC, ISO 20022, cybersecurity, Open Banking, biometric authentication, Uzbekistan, financial technologies.

Bugungi kunda mamlakatimiz tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini amalga oshirish orqali aholiga bank xizmatlari ko‘rsatishni rivojlantirish, unda axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda bank xizmatlarining yangi turlarini joriy etish masalasi dolzarb hisoblanadi. Bank xizmatlarini yanada takomillashtirish maqsadida, kichik va yirik moliyaviy texnologiya kompaniyalari mijozlarga ko‘rsatiladigan hizmatlarni yaxshilash uchun “sun’iy aql-idrok” (artificial intelligence) va raqamli texnologiyalardan keng foydalanilmoqdalar. Chunki, bozordagi yangi tashkil etilayotgan tijorat banklari barcha o‘lchamdagi eski moliyaviy institutlarga tahdid sola boshladi. Shu

bilan birga yangi texnologiyalar bank xizmatlari bozorida ham katta imkoniyatlar yaratmoqda. Zamonaviy texnologiyalar muntazam takomillashib borgani sayin, tabiiyki, sohaning qonunchilik asoslari ham mustahkamlanib boraveradi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevraldagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni o‘z vaqtida qabul qilingan hujjat ekani bilan g‘oyat ahamiyatlidir[51].

Yana bir muhim jihat, Prezidentmiz Shavkat Mirziyoev tomonidan Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga qilgan Murojaatnomasida «2020 yil – Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyot yili» deb e’lon qilinganligi, bu borada bank tizimi oldiga qator vazifalarni bajarishni keltirib chiqaradi[52]. Shu sababli bank transformatsiyasi tushunchasining mazmun va moxiyatini chuqur taxlil etish va yoritib berish dolzarb masalalardan biridir.

Bank transformatsiyasi – bu bank soxasining raqamlashtirish, texnologik innovatsiyalar va xizmat ko‘rsatish modellarini yanada takomillashtirish jarayoni. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra O‘zbekistonda axolining **38%** i xali bank hisob raqamlariga eta emas, **25%** sanoat korxonalari tezkor internet bilan ta’minlanmagan. 2023 yilda 35 mln axolining 62% i bank xizmatlaridan foydalangan, bu 2019 yilga nisbatan 2 barobar o‘sganligini ko‘rsatadi[53]. Global miqyosda esa bank transformatsiyasi $7 trln.lik Fintech (moliyafiy texnologiyalar) bozori bilan bog‘liq[54].

O‘zbekistonda Bank transformatsiyasining asosiy yo‘nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

1. Raqamlashtirish. O‘zbekistonda 2024 yilga kelib, 14 mln. o‘zbek fuqarosi mobil bank orqali to‘lovlarni amalga oshirmokda (Uzcard va Humo ma’lumotlari). Payme, Click kabi lokal platformalardan foydalanuvchilar soni 10 mln. dan oshdi.

2. Fintech innovatsiyalar. O‘zbekiston 2023 yilda blokcheyn asosidigi CBDC (Markaziy bank raqamli valyutasi) loyihasini ishlab chiqishni boshladi. Hozirgi kunda **“**AI-associated” kreditlash modellari orqali 30% kreditlar avtomatik tahlil orqali berilmokd.

3. Middl-va mikrofinanslash. Kichik biznes uchun kreditlar hajmi 2020-2024 yillarda 3 barobar o‘sib, 1.2 mlrd dollarni tashkil etdi.

4. Qonunchilik islohotlari. O‘zbekiston ISO 20022 standartiga o‘tish 2025 yilga mo‘ljallangan. O‘zbekiston banklari ISO 20022 standartiga o‘tishga tayyorlanmoqda. Bu haqda agentlik matbuot xizmati xabarida Moliyaviy institutlar o‘rtasida xabar almashish uchun zarur SWIFT va O‘zbekiston Markaziy banki vakillari ISO 2022-yilgi yig‘ilishda o‘qib eshittirildi. ISO 20022 standarti – moliyaviy institutlar o'rtasida elektron xabar almashish uchun xalqaro standartdir. U Xalqaro standartlashtirish tashkilotining (ISO) TC68 texnik qo'mitasi

[51] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. 2018 yil 19 fevral.

[52] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar.

[53] Markaziy bank ma’lumotlari.

[54] Statista, 2024.

tomonidan ishlab chiqilgan. Jahon moliya hamjamiyatining ISO 20022 standartiga o‘tishi 2025-yilning noyabrigacha yakunlanadi.Tomonlar to‘lovlarning shaffofligi va tezligini ta’minlaydigan Global Payments Innovation (GPI) tashabbusini muhokama qilishdi. To‘lovlarni qayta ishlash vaqtini qisqartirish platformasi – SWIFT Go va ularni monitoring qilish tizimi – To‘lovlarni boshqarish tizimi (PCS) ham ko‘rib chiqildi.

Bank faoliyatidagi transformatsion jarayonlarni rivojlantirish strategiyasi nuqtai-nazaridan tahlil etish masalalari S.Trostyanskiyning “Raqamlashtirish jarayonida banklarni rivojlantirish strategiyasini shakllantirish” deb nolmlangan ilmiy tadqiqot ishida o‘z ifodasini topgan. Mazkur ishda qayd etilishicha: “Bankni rivojlantirish strategiyasini shakllantirish zaruriyati mikro va makromuhitdagi nobarqaror vaziyat bilan asoslanadi. Bankni rivojlantirish strategiyasi bank sektori tarkibida pozitsiyalanish va faoliyat yuritishning bosh maqsadlari jamlanmasi hisoblanadi. Tashqi strategik maqsadlar moliya bozoridagi bankning istiqboldagi holati yuzasidan qabul qilingan qarorlar asosida ishlab chiqiladi. Ichki strategik maqsadlar tuzilma va faoliyatni tashkil etishga tegishli bo‘ladi. Bankni rivojlantirish strategiyasini shakllantirishda bankning barcha yo‘nalishlarini raqamlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi”[55]

O‘zbekiston bank transformatsiyasini samarali amalga oshirish va tizimni rivojlanitirishda quyidagi muammolarga duch kelmoqda:

1. Kiberxavfsizlik – raqamlashtirish bilan birga haqerlik xujumlari xavfi ortmokda.
2. Qonun-huquq bazasining yetishmovchiligi – kriptovalyuta va sun’iy intellekt uchun anik me’yorlarning yo‘qligi.
3. Kadrlar tayyorgarligi – bank xodimlarining raqamli texnologiyalarda malakasi pastligi.

O‘zbekistonda bank transformatsiyasini amalga oshirishning istiqboldagi imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

1. Open Banking – turli bank va FinTech kompaniyalari ma’lumotlarini integratsiyalash.
2. Super-ilovalar (All-in-One banking) – bir platformada to‘lovlar, investitsiyalar va straxovka xizmatlari.
3. Biometriya va AI-assotsiirovan autentifikatsiya – parolsiz kirish va yuza tanish texnologiyalari.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

- O‘zbekiston bank tizimi 2020-2024 yillarda 2.5 barobar o‘sdi, lekin global raqobatbardoshlik uchun raqamlashtirish, kiberxavfsizlik va qonunchilik sohasida yanada takomillashish zarur.
- 2025 yilda O‘zbekistonning Fintech bozori 1 mlrd. dollardan oshishi kutilmokda.

[55] Тростьянский С.С. Формирование стратегии развития банков в условиях цифровизации. Диссер.на соис. учен.степ. канд. экон. наук по спец. 08.00.10 – Финансы, денежное обращение и кредит. Санкт-Петербург – 2021. 12-13 стр.

Umuman olganda O‘zbekistonda bank sohasi tez raqamlashib, yangi texnologiyalarni joriy etish bilan dunyo bozoriga integratsiyalanyapti. Agar kiberxavfsizlik, qonunchilik va kadrlar masalalari hal etilsa, O‘zbekiston Markaziy Osiyoning FinTech-markaziga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. 2018 yil 19 fevral.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar.
10. Trostyanskiy S.S. Formirovaniye strategii razvitiya bankov v usloviyax sifrovizatsii. Disser.na sois. uchen.step. kand. ekon. nauk po spes. 08.00.10 – Finansi, denejnoye obrasheniye i kredit. Sankt-Peterburg – 2021. 12-13 str.
11. Galper M.A. Transformatsiya banka v usloviyax globalnoy neustoychivoy sredi. Disser. na sois. uchen. step. kand. ekon. nauk po spes. 08.00.10 – Finansi, denejnoye obrasheniye i kredit. Sankt-Peterburg – 2020. 19 str.
12. https://uz.wikipedia.org/wiki/Barqaror_rivojlanishning_1-maqsadi
13. https://www.integer.uz/steam

WAYS TO DEVELOP THE NATIONAL ECONOMY

Erdonov Mukhammadamin
Samarkand Institute of Economics and Service Independent researcher at the Department of Real Economics
e-mail: erdonovmuhammad@gmail.com

ABSTRACT: In the article, the need for more rational and efficient use of limited resources is the main issue of the economy and the main issue is the guarantee of the stabilization process of the economy.

KEY WORDS: National economy, global economy, stages of economic development, advantages of national economy.

ANNOSTATSIYA: Maqolada bugungi kunga kelib cheklangan resurslardan yanada oqilona va samarali foydalanish zarurligi iqtisodiyotning bosh masalasi va iqtisodiyoning barqarorlashuv jarayonini taminlashda kafolat ekanligi bosh masala sifatida asoslangan.

KALIT SO’ZLAR: Milliy iqtisodiyot, global iqtisodiyot Iqtisodiyotni Rivojlanish bosqichlari, Milliy iqtisodiyotni afzalliklari.

АННОТАЦИЯ: В статье необходимость более рационального и эффективного использования ограниченных ресурсов является основным вопросом экономики и главным вопросом является обеспечение процесса стабилизации экономики.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Национальная экономика, глобальная экономика, этапы экономического развития, преимущества национальной экономики.

Introduction: a deeper analysis of the intersection between the economy and stability of the country, realizing the provision of future economists with knowledge and skills to solve the problems of a rapidly changing world, requires the use of innovative pedtechnologies.

It should be noted that the concept of a green economy, which promotes sustainable practices and the effective use of resources, has gained wide popularity worldwide. Amid growing concerns about climate change, environmental crisis, and natural resource depletion, countries around the world are acknowledging the need to reshape their economic systems.

The main part: measures to develop the national economy.

In the countries of Eastern Europe and the USSR, highly centralized administration, state socialism is becoming a postsocialist national economy in the newly independent states (Poland, Russia, etc.), which arose as a result of a crisis and disintegration. In some other post-socialist countries, including Uzbekistan, a unique democratic, market-based all-Democratic national economy is being formed. In the first ten years of Uzbekistan's independence, a multi — axis national economy-a diverse system of private and state farms-was formed in the country, based on nationwide and private ownership. In it, the private sector took priority, the main position. The absolute majority of economic entities are made up of individual individual, group, company, Community, Equity enterprises, farmers and farmers; their share of gross domestic product has exceeded two-thirds and is growing steadily.

The need to better meet national needs entails the effective use of economic resources, the achievement of socially necessary maximum volumes of goods and services. In particular, the production of socially necessary products (goods), its necessary Mick,in medicines and qualities, preserving nature and thoroughly producing ecology is the main krnun of any national economy. An important condition for ensuring the purposeful ratio of the national economy between the production and non-production sectors , for the possible socially necessary high volumes of manufactured products and services provided is to accelerate the development of science fiction, apply modern and effective technologies, improve the quality of training, achieve the employment of all working people who want to work. First of all, the intensive development of the sphere of material production, the rapid growth of the volume of products, especially the volume of pure products , in relation to the growth of costs and the population, is the main way to solve the problems of the national economy and economic development, to increase it continuously. In addition, it is important that the national economy has stable, growing structural changes and purposeful proportions, proportions within industries, agriculture, construction, transport, communication and other sectors and between these sectors. The ratio of civil and military production should also be correct, in moderation. It is desirable that the main part of the goods being developed and the services provided are directed, first of all, to meet the demand and needs of the domestic market, and first of all to saturate (replenish) the domestic market with quality and affordable national goods. At the same time, the comprehensive expansion of foreign economic relations, increasing integration

into the world economy, the effective use of its capabilities is an objective necessity, such as easing the tax burden on economic entities, the population, optimizing the state budget and expenditures on it, curbing inflation will have a serious and positive effect on the development of the national economy.

Analysis and results: the economic reforms carried out in Uzbekistan are aimed at developing the organizational system of Management in all sectors and areas. One of the important tasks is the introduction of new modern management methods in particular. This thesis describes the systemic importance and economic development of the banking sector and the stock market, which are considered the main components of the financial sector in Uzbekistan. In addition, corporate governance and its underlying and legal development processes-namely, corporate governance theories, models and mechanisms-are widely discussed locally and internationally.

After the independence of Uzbekistan, since 1991 Uzbekistan

the stock market played a very important role in the development of the banking sector. Similarly, the decisive role of the financial sectors, mainly the banking sector and the stock market, was focused on accelerating the development of the financial sector, as a result of which the economy was raised. In this regard, the introduction of advanced methods of corporate governance in companies and enterprises of all forms of ownership operating in the country, improving the effectiveness of its organizational and economic mechanism is one of the pressing issues of today.

Conclusion: In conclusion, we can say that the measures of the development of the Global economy and the national economy of New Uzbekistan are causing widespread discussion What advantages in the national economy and the reforms of our curiw to integrate the possible principles into the education of the economy are an important step towards the formation of a sustainable future of the country. Our state is growing a generation of economists who can ensure economic growth while protecting the environment by arming their students with the necessary knowledge, skills and thinking. In this process, modern pedagogical approaches, professional development of professors and teachers teach effective utility from favorable legal, material and spiritual and local, natural conditions for the use of the transforming force of education in the construction of a green and prosperous future.

LITERATURE USED

1.Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Tashmatov Sh.A., Butaboyev M.T. Yashil iqtisodiyot. Darslik -T. "Universitet" 2020y.

2.Xaitboyev R. Ekologik turizm. O'quv qo'llanma. -T.: "Barkamol fayz media"

3.Т.В. Захарова "Зеленая" экономика как новый курс развития: глобальный и региональный аспекты. Вестник Томского государственного университета

3.Brown L.R. Eco-Economy. Building an Economy for the Earth. Earth Policy Institute. W.W. Norton&Company. New York, London, 2019.

4.Устойчивое экономическое развитие в условиях глобализации и экономики знаний: концептуальные основы теории и практики управления /Под ред. В.В. Попкова. Учебник. М.: ЗАО "Издательство "Экономика"

5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrda PQ-4477-son“2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishstrategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.

ОСОБЕННОСТИ МАРКЕТИНГОВЫХ СТРАТЕГИЙ В РАЗВИТИИ ТОРГОВЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ

Эрдонов Мухаммадамин
Самаркандский институт экономики и сервиса
независимый научный сотрудник
кафедры Реальной экономики

Аннотация.*В настоящее время маркетинг необходимо рассматривать как единую рыночную концепцию управления организацией. Реализация маркетинговой стратегии затрагивает практически все направления деятельности компании. В данной статье анализируется теоретические основы маркетинговых стратегий и этапы разработки маркетинговой стратегии для предприятия розничной торговли.*

Ключевые слова: *маркетинг, стратегия, маркетинговая стратегия, торговля, розничная торговля, инфраструктура рынка, продвижения товаров, конкурентоспособность компании.*

Annotasiya: *Hozirgi vaqtda marketingni tashkilotni boshqarishning yagona bozor kontseptsiyasi sifatida ko'rib chiqish kerak.Marketing strategiyasini amalga oshirish kompaniyaning deyarli barcha sohalariga ta'sir qiladi.Ushbu maqolada marketing strategiyalarining nazariy asoslari va chakana savdo korxonasi uchun marketing strategiyasini ishlab chiqish bosqichlari tahlil qilinadi.*

Kalit so`zlar: *marketing, strategiya, marketing strategiyasi, savdo, chakana savdo, bozor infratuzilmasi, mahsulotni siljitish , kompaniyaning raqobatbardoshligi.*

Abstract. *Currently, marketing must be considered as a unified market concept for managing an organization. The implementation of a marketing strategy affects almost all areas of the company's activities. This article analyzes the theoretical foundations of marketing strategies and the stages of developing a marketing strategy for a retail enterprise.*

Keywords: *marketing, strategy, marketing strategy, trade, retail, market infrastructure, product promotion, company competitiveness.*

Под влиянием процесса глобализации в мировой экономике происходят структурные изменения. В связи со сложностью обеспечения населения потребительскими товарами и влиянием продовольственной безопасности проблема оптимального размещения в традиционных формах розничной торговли рассматривается как проблематичная. Годовой оборот розничных сетей к 2024 году составит 30 трлн. доллар США был определен на основе исследования крупнейшей в мире аналитической компании WP Engine.В розничной торговле во всем мире занято 4,6 млн человек[1]

В Постановлении Президента Республики Узбекистан о стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы «Развитие торговой инфраструктуры на территориях республики, где определены задачи по созданию крупных оптово-торговых центров, включающих логистику, рефрижераторы, склады, создание не менее 3-х современных торговых центров в крупных районах и городах, увеличение мобильных точек продаж в сельской местности [2].

Действительно, на сегодняшней день розничная торговля представляет собой важнейший компонент инфраструктуры рынка, ее роль не ограничивается только материальным распространением продукции. Данная отрасль стимулирует производство и задает ему определенное направление. Именно в торговой сфере выявляется, в какой степени производство отвечает нуждам населения, так как розничная торговля является конечным звеном в процессе товародвижения от производителей к потребителям.

Также розничная торговля продуктами питания является динамичной и высококонкурентной отраслью. Крупные розничные компании имеют преимущества при покупке, дистрибуции и маркетинге. Малые компании могут эффективно конкурировать, продавая уникальные товары, обеспечивая превосходное обслуживание клиентов или выступая на местном рынке.

Сегодня маркетинговая стратегия, которая может быть разработана опытными специалистами, позволяет узнать больше о правильном использовании ресурсов, доступных на предприятии, научиться динамически продвигать продукты в течение длительного времени, что является непосредственной целью маркетинга.

Кроме того,стратегия маркетинга основана на исследованиях, в которых основное внимание уделяется конкурентам, клиентам, размеру рынка и потенциалу роста рынка. Цель маркетинговой стратегии - заложить основу для маркетингового плана бизнеса.Это достигается за счет понимания потребностей клиентов.Эффективно подготовленная стратегия позволит бизнесу сосредоточиться на правильном сочетании услуг и продуктов для максимизации прибыли.

Формирование маркетинговой стратегии в торговом деле – является одним из важнейших направлений обеспечения стабильности и устойчивости предприятий розничной торговли.Безусловно маркетинговая стратегия не единственная стратегия фирмы, но она играет значительную роль. Благодаря ей, можно выявить целевые рынки и отталкиваясь от этого подобрать подходящие маркетинговые мероприятия.Данная стратегия принимает во внимание потребности и спрос целевой аудитории и устанавливает, каким способом фирма может их удовлетворить.

В целом этапы разработки маркетинговой стратегии для предприятия розничной торговли :

1.Оценка текущего состояния и конкурентоспособности компании и исследование рынка (Researching the Market). На данном этапе необходимо дать подробную информацию о текущей ситуации бизнеса. Провести анализ

основных экономических показателей таких как размер и структура издержек компании, финансовые результаты, инвестиционные возможности, оборот, прибыль и доля рынка. Нужно описать формат магазина розничной торговли, а также какие товары реализует компания. Этот первый этап выявляет какими преимуществами и недостатками обладает торговая компания. Большая часть информации для данного этапа содержится в существующем бизнес-плане и отчетах.Также на данном этапе идёт конкурентный анализ рынка розничной торговли. Прежде чем приступать к разработке стратегии, необходимо точно определить, на каком рынке находится бизнес. Следует определить границы и емкость рынка.

2.Нахождение ценности (Finding Value). Одним из важнейших этапов в построении маркетинговой стратегии является понимание того, кому продается товар-определение идеального клиента.Это гарантирует, что маркетинговые усилия будут сфокусированы, и в результате компания получит доход от инвестиций. Успех розничной торговой компании находится в зависимости от степени выявления нужд и мотивов потребителей, а также полноты их удовлетворения. При выявлении целевой аудитории в сфере розничной торговли следует учитывать следующие факторы: уровень дохода, пол, семейное положение, уровень образования, возраст, основные причины и мотиваторы покупки, средний чек, потребительский набор товаров.

3.Разработка и описание маркетинговых целей и задач (Setting Goals). Предыдущие этапы разработки маркетинговой стратегии дают возможность осуществить оценку текущего состояния компании и рынка, на котором она функционирует. На данном этапе необходимо сформулировать будущее видение фирмы и ее позицию на рынке розничной торговли. Данное виденье и представляет собой цель в рамках маркетинговой стратегии. Стратегия маркетинга никогда не будет завершена без перечисления организационных целей, которые должны быть реализованы. В рамках маркетинговой стратегии необходимо сформулировать количественную цель и реальные сроки ее достижения, для того чтобы была возможность измерить ее эффективность.

4. Создание и запуск рекламы (Creating & Launching the Ads).В данном этапе разрабатываются рекламные материалы и выбираются каналы для их распространения (например, социальные сети, поисковая реклама, баннеры). Затем начинается активное продвижение.

Исходя из вышеизложенного считаем, что перспективы развития разработка маркетинговой стратегии имеет жизненно важное значение для любого бизнеса. Без стратегии маркетинга усилия по привлечению клиентов, вероятно, будут беспорядочными и неэффективными. Следует убедиться, что в центре маркетинговой стратегии находится товар и услуга по его реализации в симбиозе, так как неотделимость услуги от товара - является характерной особенностью рынка розничной торговли. Для этого необходимо создать гибкую маркетинговую стратегию, которая сможет

реагировать на изменения спроса клиентов и предлагать продукты, которые будут отвечать их потребностям.

Использованная литература

1. https://wpengine.com/resources/woocommerce-related-products/

2.https://lex.uz/uz/docs/5841063 -Указ Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева от 28 января 2022 года № УП-60 «О «Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы»

3. https://practicum.yandex.ru/blog/marketingovye-strategii/

4. Котельникова, З. В. Особенности развития розничных сетей и торговых форматов в продовольственном секторе российской торговли (региональный аспект) / З. В. Котельникова // Мир России. – 2015. – № 3. – С.151–172.

Germaniyaning ta'minot zanjirlarini boshqarish tajribasidan foydalanishni afzalliklari

Millat Umidi universitetining 2-kurs talabasi
Alisherjonova Firdavsiya Bahodir qizi,
sofiyaalisherova06@gmail.com
Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich,
TDIU, Biznes boshqaruvi kefedrasi dotsenti, PhD

Annotatsiya: Germaniya dunyodagi yetakchi sanoat mamlakatlaridan biri bo‘lib, uning ta'minot zanjirlari yuqori samaradorlik, sifat nazorati va innovatsion texnologiyalar bilan ajralib turadi. Germaniyada ta'minot zanjirlarini boshqarish raqamlashtirish, avtomatlashtirish va barqarorlik tamoyillariga asoslanadi.Ta'minot zanjirlarida logistika infratuzilmasi yuqori darajada rivojlangan bo‘lib, avtomobil, temir yo‘l, dengiz va havo transporti samarali integratsiya qilingan. Bu mahsulotlarning tez va ishonchli yetkazib berilishini ta'minlaydi. Germaniyada xavflarni boshqarish tizimlari ham kuchli rivojlangan bo‘lib, kutilmagan vaziyatlarda yo'qotishlarni minimallashtirishga katta e'tibor qaratiladi.

Абстрактный: Германия является одной из ведущих промышленных стран мира, а ее цепочки поставок характеризуются высокой эффективностью, контролем качества и инновационными технологиями. Управление цепочками поставок в Германии основано на принципах цифровизации, автоматизации и устойчивости. Логистическая инфраструктура в цепочках поставок высоко развита, а автомобильный, железнодорожный, морской и воздушный транспорт эффективно интегрированы. Это обеспечивает быструю и надежную доставку продукции. В Германии также сильно развиты системы управления рисками, и большое внимание уделяется минимизации потерь в непредвиденных ситуациях.

Abstract: Germany is one of the world's leading industrial countries, and its supply chains are characterized by high efficiency, quality control and innovative technologies. Supply chain management in Germany is based on the principles of digitization, automation and sustainability. The logistics infrastructure in supply chains is highly developed, and road, rail, sea and air transport are effectively integrated. This ensures fast and reliable delivery of products. Risk management systems in Germany are also strongly developed, and great attention is paid to minimizing losses in unexpected situations.

Kalit so‘zlar: Ta'minot zanjirlari, logistika, raqamlashtirish, avtomatlashtirish, yashil logistika, sifat nazorati, innovatsion texnologiyalar, integratsiya

Ключевые слова: Цепочки поставок, логистика, цифровизация, автоматизация, зеленая логистика, контроль качества, инновационные технологии, интеграция

Keywords: Supply chains, logistics, digitalization, automation, green logistics, quality control, innovative technologies, integration

Kirish: Ta'minot zanjiri tovarlar yoki xizmatlarni oxirgi iste'molchiga yaratish, ishlab chiqarish, tarqatish va yetkazib berish bilan bog'liq tashkilotlar, jarayonlar, resurslar va faoliyatlar tarmog'ini anglatadi**.** U xom-ashyo olishdan tortib, tayyor mahsulotlarni iste’molchilar qo‘liga yetkazib berishgacha bo‘lgan barcha ishlarni o‘z ichiga oladi. Yaxshi tashkil etilgan ta'minot zanjiri kechikishlarni minimallashtiradi, xarajatlarni optimallashtiradi va global bozorlar bo'ylab tovarlarning uzluksiz oqimini ta'minlaydi. Germaniya – yuqori texnologiyalar, muhandislik an’analari va logistika sohasidagi innovatsiyalari bilan ajralib turadigan mamlakat bo‘lib, ta’minot zanjirlarini boshqarish borasida dunyo tajribasida yetakchi o‘rinni egallaydi. Ushbu tajribadan foydalanish boshqa mamlakatlarga, jumladan,

O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan iqtisodiyotlarga ham o‘z ta’minot zanjirlarini takomillashtirish va xalqaro bozorlarda raqobatbardosh bo‘lish imkonini beradi.

Adabiyotlarning tahlili: Klaus Schwab (Davos Jahon Iqtisodiy Forumi asoschisi). Uning fikriga ko'ra, Germaniya **Industrie 4.0** tamoyillarini joriy etishda yetakchi davlatlardan biridir. U raqamlashtirish va avtomatlashtirishning ta'minot zanjirlariga ta'sirini chuqur o'rgangan va bu yondashuvlarning global iqtisodiyotda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan. **Michael E. Porter (Strategik boshqaruv bo'yicha mutaxassis)** - Germaniyaning logistika va ta'minot zanjiri tizimlarini yuqori samaradorlik va integratsiya namunasida o'rganadi. Uning fikricha, raqobatdosh ustunlik yaratish uchun **ta'minot zanjiri strategiyalari**ni optimallashtirish va innovatsion yondashuvlarni qo'llash muhimdir. **Wolfgang Kersten (Hamburg Texnologiya Universiteti)** - Germaniya ta'minot zanjirlarini raqamlashtirish va **IoT texnologiyalari**ni joriy etish bo'yicha yetakchi mutaxassislardan biridir. U Germaniyaning logistika samaradorligini oshirishda **Big Data** va **analitik vositalar**dan foydalanish muhimligini ta'kidlaydi.

Metodologiya: Tadqiqot Dizayni - Tadqiqot turi: **Deskriptiv va analitik tadqiqot** Yondashuv: **Aralash metod (miqdoriy va sifatli);** Ma’lumot yig‘ish usuli: **Ikkinchi darajali manbalarni o‘rganish (ilmiy maqolalar, kitoblar, hisobotlar)**. Ma’lumotlar manbalari: Ilmiy maqolalar va konferensiya materiallari - Rasmiy hisobotlar va tahliliy hujjatlar **(Germaniyaning iqtisodiy va logistika markazlari tomonidan chop etilgan);** Tajribaviy tadqiqotlar **(Germaniya kompaniyalarining amaliyoti).** Statistik ma’lumotlar **(Germaniya Federal Statistika Byurosi va boshqa rasmiy tashkilotlardan)**

Tahlil va natijalar: Barqarorlik va ekologik tamoyillar - Yashil logistika – **karbonat chiqindilarini kamaytirish va ekologik toza transport vositalaridan foydalanish.** Qayta ishlash va chiqindisiz ishlab chiqarish – **mahsulotlarni ishlab chiqarishda va yetkazib berishda energiyani tejash va chiqindilarni kamaytirish.** Yevropa Ittifoqining ekologik talablariga rioya qilish – **mahsulotlarning xalqaro bozorlarga chiqishini osonlashtiradi.** Xalqaro hamkorlik va yetkazib berish tarmoqlari - **Germaniya dunyo bo‘ylab kuchli yetkazib berish tarmog‘iga ega. Yirik kompaniyalar (Bosch, Siemens, Volkswagen) global yetkazib beruvchilar bilan hamkorlik qiladi va ta’minot zanjirlarini muvofiqlashtiradi. Germaniya kompaniyalari Osiyo, AQSh va Yevropa bozorlariga samarali chiqish imkoniyatiga ega. Global yetkazib berish tarmoqlari tufayli ta’minot xavflari minimallashtirilgan.**

Germaniyaning ta’minot zanjirlarini boshqarish tajribasidan foydalanishning afzalliklari: Samaradorlk va moslashuvchanlik - Raqamlashtirish va avtomatlashtirish: IoT, AI va Big Data texnologiyalaridan foydalanish orqali ishlab chiqarish va ta’minot zanjiri jarayonlari tezkor va aniq boshqariladi. **Real vaqt rejimidagi kuzatuv**: Yetkazib berish va logistika jarayonlarini onlayn monitoring qilish imkoniyati ortadi. **Tezkor qaror qabul qilish**: Sun’iy intellekt va ma’lumotlarni tahlil qilish tizimlari natijasida ta’minotdagi uzilishlarga tezkor javob berish imkoniyati yaratiladi. **Logistika va**

transport tizimining rivojlanganligi - Optimallashtirilgan logistika: Temir yo‘l, avtomobil yo‘llari va dengiz portlari orqali yuk tashish jarayoni muvofiqlashtiriladi. **Ombor tizimlarining samaradorligi**: Omborxona boshqaruvi avtomatlashtirilgan bo‘lib, ortiqcha harajatlar kamayadi. **Xarajatlarni tejash**: Ta’minot zanjirini optimallashtirish orqali logistika xarajatlari qisqaradi va mahsulotlar aniq belgilangan muddatda yetkazib beriladi. **Xalqaro bozorlarga chiqish va raqobatbardoshlik** ham kuchli tomonlaridan biri hisoblanadi.

Germaniyaning ta’minot zanjirlarini boshqarish tajribasidan foydalanishning kamchiliklari: Yuqori dastlabki investitsiyalar talabi -



1-grafik. Germaniyada 2014-2023-yilgacha logistika

Texnologiyalarni joriy etish narxi yuqori: IoT, AI, Big Data va blokcheyn kabi ilg‘or texnologiyalarni tatbiq etish katta miqdorda mablag‘ talab qiladi. **Logistika infratuzilmasini yangilash zarurati**: Germaniya ta’minot zanjiri rivojlangan transport va ombor tizimlariga asoslangan bo‘lib, boshqa mamlakatlarda bu kabi infratuzilmani yaratish katta xarajat talab qiladi. **Mutaxassislar yetishmovchiligi**: Zamonaviy ta’minot zanjirlarini samarali boshqarish uchun yuqori malakali kadrlar kerak bo‘ladi, bu esa o‘qitish va kadrlar tayyorlash xarajatlarini oshiradi. **Yuqori operatsion xarajatlar - Ishchi kuchi va mehnat haqi qimmatligi**: Germaniyada ishlab chiqarish va logistika tizimlarida yuqori ish haqi to‘lanadi, bu esa ta’minot zanjiri xarajatlarini oshiradi. **Sertifikatsiya va sifat nazorati xarajatlari**: Germaniyaning ta’minot zanjirlariga moslashish xalqaro sifat standartlariga rioya qilishni talab qiladi, bu esa qo‘shimcha moliyaviy bosim yaratishi mumkin. **Energiya narxining yuqoriligi**: Yevropada, ayniqsa Germaniyada, yashil energiyaga o‘tish sababli energiya narxlari oshib bormoqda, bu esa ishlab chiqarish xarajatlariga ta’sir qiladi. Bu 20 000 kvadrat metrdan katta ob'ektlar uchun ijara shartnomasining yo'qligi bilan bog'liq bo'lib, birinchi yarim yillikda atigi uchta bunday bitim tuzilgan, o'tgan yilning shu davridagi 14 tadan kam. Myunxen bundan mustasno bo'lib, 120 000 kvadrat metrni egallagan holda 8 foizga biroz o'sishni boshdan kechirdi. Aksincha, boshqa barcha hududlar yillik o'rtacha ko'rsatkichdan past bo'lgan: Gamburg 40% ga pasayganini ko'radi; Frankfurt 25% ga kamaydi; Berlin esa

o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng sezilarli pasayish 85% ni boshdan kechirdi. 2023-yilning birinchi yarmida atigi 254 ming kvadrat metr yangi omborxona qurildi, bu o'tgan yilga nisbatan 70% ga kamaydi. Qurilish faoliyati birinchi navbatda Gamburg va Berlin mintaqalarida yo'naltirilgan.



2-grafik. Germaniya hududlaridagi logistika ta’minot zanjiri

Germaniya ta’minot zanjirlarini boshqarish tizimining samaradorligi foiz ko‘rinishida baholanishi:

- Germaniya ta’minot zanjirlarining umumiy samaradorligi **85–95%** oralig‘ida baholanadi.
- Logistika infratuzilmasi va avtomatlashtirishda **90–95%**
- Raqamlashtirish va IoT texnologiyalarini qo‘llashda **85–90%**
- Yetkazib berish aniqligi bo‘yicha **98%**
- Ekologik barqarorlik bo‘yicha **30–40%**

Xulosa – Mening ushbu yozgan tezisimdan olgan xulosam Germaniyaning ta’minot zanjirlarini boshqarish tajribasidan foydalanish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ekologik barqarorlikni ta’minlash va global bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish uchun muhim vosita hisoblanadi deb o’ylayman. Sababi modelni joriy etish orqali logistika tizimlarini optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish va ta’minot zanjirlarining uzluksiz ishlashini ta’minlash mumkin. Germaniyaning ta’minot zanjirlarini boshqarish tizimi samarador va innovatsion bo‘lsa-da, uni boshqa mamlakatlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri joriy etish qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Yuqori investitsiya talablari, operatsion xarajatlar, byurokratik muammolar va global ta’minot

tarmoqlariga qaramlik kabi omillar ushbu modelning har doim ham muvaffaqiyatli bo‘lishiga kafolat bermaydi.

Takliflar - Raqamlashtirish va avtomatlashtirishni rivojlantirish: IoT va AI texnologiyalarini joriy etish - Ta’minot zanjirlarini real vaqt rejimida monitoring qilish uchun IoT qurilmalaridan foydalanish. Sun’iy intellekt va Big Data orqali xarid tendentsiyalarini tahlil qilib, talabni oldindan prognozlash. **Ombor va logistika tizimlarini avtomatlashtirish -** Zamonaviy ombor boshqaruv tizimlarini WMSni qo‘llash. **Transport tarmoqlarini samarali boshqarish -** Temir yo‘l, avtomobil yo‘llari va dengiz portlaridan samarali foydalanish. **Ko‘p tarmoqli logistika tizimini rivojlantirish -** "Multimodal transport" yondashuvi orqali avtomobil, temir yo‘l va havo transportini bir-biriga bog‘langan holda samarali ishlashini ta’minlash. **Yashil logistika tamoyillarini joriy etish -** Elektr va vodorod yoqilg‘isida ishlaydigan yuk mashinalarini joriy qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Jahon banki (2023). *Logistics Performance Index (LPI) 2023 Report.*
2. McKinsey & Company (2022). *The Future of Supply Chains in Germany: Digital Transformation and Sustainability.*
3. "The impact of Industry 4.0 on supply chain management: A case study of Germany" – ResearchGate.
4. "Sustainable logistics and green supply chain management in Germany" – Elsevier.
5. *World Economic Forum* (www.weforum.org)
6. *Harvard Business Review* (www.hbr.org)
7. *Supply Chain Digital* (www.supplychaindigital.com)
8. *Statista* (www.statista.com)
9. https://ecommercegermany.com/blog/logistics-in-germany-all-you-need-to-know

TRANSPORT XIZMATLARIDA ISTE'MOLCHILAR EHTIYOJLARINI TAHLIL QILISH VA SAMARALI STRATEGIYALAR ISHLAB CHIQISH

OLIMOV ODILJON XAMZA O‘G’LI
O‘zbekiston, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Mustaqil tadqiqotchi
Muallifning elektron manzili: *odiljonxamzaolimov@gmail.com*
Muallifning telefon raqami: +998 90 101 17 11

Annotatsiya: Ushbu maqola transport xizmatlarida iste'molchilarning ehtiyojlarini tahlil qilish va samarali strategiyalar ishlab chiqish masalalariga bag'ishlangan. Maqolada iste'molchilarning transport sohasidagi talab va xohishlari o'rganilib, bu ehtiyojlarni qondirish uchun kompaniyalar tomonidan qo'llanilishi mumkin bo'lgan turli strategiyalar tavsiflanadi. Shuningdek, transport xizmatlari bozorida raqobatbardosh xizmatlarni taqdim etish uchun

iste'molchi ehtiyojlarini to'liq anglash va unga mos strategiyalarni ishlab chiqish zarurligi ta'kidlanadi. Iste'molchilarning afzalliklari va talablariga asoslangan samarali narx siyosati va xizmatlarning sifatini yaxshilash bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Iste'molchilar ehtiyojlari, transport xizmatlari, strategiyalar, narx siyosati, xizmat sifati, raqobatbardoshlik, bozor tahlili, mijozlar talablar, xizmat innovatsiyalari.

Аннотация: Данная статья посвящена анализу потребностей потребителей в сфере транспортных услуг и разработке эффективных стратегий для их удовлетворения. В статье рассматриваются запросы и предпочтения потребителей в транспортной отрасли, а также предлагаются различные стратегии, которые компании могут использовать для их удовлетворения. Особое внимание уделено необходимости разработки стратегий, ориентированных на потребности потребителей, для предоставления конкурентоспособных услуг. Рассматриваются рекомендации по улучшению качества обслуживания и ценообразования с учетом предпочтений клиентов.

Ключевые слова: Потребности потребителей, транспортные услуги, стратегии, ценовая политика, качество обслуживания, конкурентоспособность, рыночный анализ, запросы клиентов, инновации в услугах.

Abstract: This article focuses on analyzing consumer needs in transport services and developing effective strategies to meet these demands. The article explores the preferences and requirements of consumers in the transport sector, and discusses various strategies that companies can implement to satisfy these needs. Special attention is given to the necessity of developing consumer-oriented strategies to provide competitive services. Recommendations for improving service quality and pricing strategies based on consumer preferences are also provided.

Key words: Consumer needs, transport services, strategies, pricing policy, service quality, competitiveness, market analysis, customer demands, service innovations.

Kirish. Bugungi kunda transport xizmatlari sohasidagi raqobat oshgan, iste'molchilar esa yuqori sifatli va samarali xizmatlarni kutib qolishmoqda. Bu esa transport kompaniyalarini mijozlar ehtiyojlarini chuqur tahlil qilib, ularga moslashgan strategiyalarni ishlab chiqishga majbur qilmoqda.

Iste'molchilar ehtiyojlarini to'liq tushunish va ushbu ehtiyojlarga javob beradigan strategiyalarni ishlab chiqish, transport xizmatlari bozorida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur shartdir. Maqolada transport xizmatlarida iste'molchilarning ehtiyojlarini tahlil qilishning muhimligi, mijozlarga yo'naltirilgan strategiyalarni yaratish va kompaniyalar uchun samarali narx siyosati haqida so'z boradi.

Asosiy qism. Transport xizmatlarining muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun iste'molchilarning ehtiyojlarini tahlil qilish juda muhimdir. Iste'molchilar turli faktorlarga asoslanib transport xizmatlarini tanlaydilar: narx, xizmatning sifati, transportning qulayligi, xavfsizlik, vaqtni tejash imkoniyatlari va boshqalar. Har bir mijozning ehtiyoji turlicha bo'lsa-da, ularni umumiy guruhlarga ajratib, kompaniyalar o'z xizmatlarini moslashtirishi mumkin. Iste'molchilarni anglash va ularning afzalliklarini tahlil qilish, kompaniyalarga o'z xizmatlarini takomillashtirish va yangi bozor segmentlariga xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini yaratadi.

Iste'molchilar ehtiyojlarini to'liq tahlil qilish orqali kompaniyalar o'z xizmatlarini strategik tarzda rivojlantirishi mumkin. Bunda bir nechta muhim strategiyalarni ko'rib chiqish mumkin:

A. Transport kompaniyalari iste'molchilarga ularning ehtiyojlariga mos xizmatlar taqdim etishlari lozim. Masalan, yuqori sifatli xizmatlarni taklif etish, individual yo'lovchi talablariga mos transport vositalarini taqdim etish.

B. Iste'molchilar sifat va narxning muvozanatini kutishadi. Shuning uchun, narxlar bozor talabiga mos kelishi va kompaniyalar uchun foyda keltirishi kerak. O'rtacha narx siyosati, chegirmalar va aktsiyalar orqali mijozlarni jalb qilish mumkin.

C. Xavfsizlik va qulaylik ham iste'molchilarning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Transport kompaniyalari xavfsiz, qulay va samarali xizmatlar taqdim etish orqali mijozlarning ishonchini qozonishi mumkin.

Narx siyosati transport xizmatlarining muvaffaqiyatli ishlashida muhim rol o'ynaydi. Iste'molchilar ko'pincha arzon narxlar va sifatni birgalikda kutadilar. Kompaniya narxni belgilashda quyidagi omillarni hisobga olishi kerak: bozor talabi, raqobatchilar narxlari, xizmatning sifati, taqdim etilayotgan qo'shimcha xizmatlar va mijozlarning istaklari. Samarali narx siyosati orqali kompaniya xizmatlarining qiymatini oshirish va shu bilan birga mijozlarga mos narxlarni taqdim etish mumkin.

Innovatsiyalar transport xizmatlarida iste'molchilarning ehtiyojlariga javob berishda muhim ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalar va mobil ilovalar orqali mijozlar xizmatlarni tez va qulay ravishda buyurtma berishlari mumkin. Bunday innovatsiyalar mijozlarga yanada yuqori sifatli va qulay xizmatlarni taqdim etish imkonini beradi. Shu bilan birga, ekologik toza transport vositalari va zamonaviy texnologiyalar orqali transport kompaniyalari mijozlarga qo'shimcha qiymat yaratishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Iste'molchilar ehtiyojlarini tahlil qilish va samarali strategiyalar ishlab chiqish transport xizmatlarining muvaffaqiyatli rivojlanishining asosi hisoblanadi. Iste'molchilarning afzalliklari va talablariga mos xizmatlar taqdim etish, kompaniyalarga raqobatbardoshligini oshiradi va bozor ulushini kengaytiradi.

Transport kompaniyalari uchun samarali narx siyosati va xizmat sifatini yaxshilashga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqish juda muhimdir.

Takliflar:

⇨ Iste'molchilar bilan bevosita muloqot o'rnatish: Kompaniyalar mijozlar ehtiyojlarini yaxshiroq tushunish uchun so'rovlar, onlayn forumlar va foydalanuvchi sharhlarini to'plashlari kerak;

⇨ Samarali raqamli yechimlar ishlab chiqish: Transport kompaniyalari raqamli platformalar orqali xizmatlarni yanada qulay va tezkor taqdim etishlari zarur;

⇨ Xavfsizlik va qulaylikni oshirish: Xavfsizlik va qulaylik transport xizmatlarining asosiy tamoyillaridan bo'lib, ularga doimiy e'tibor qaratish zarur;

⇨ Innovatsion texnologiyalarni joriy etish: Kompaniyalar yangi texnologiyalarni kiritib, mijozlarga yaxshiroq xizmatlar taqdim etishi va shu orqali bozorni kengaytirishlari kerak.

Shu tarzda, iste'molchilarning ehtiyojlarini chuqur tahlil qilish va mos keluvchi strategiyalarni ishlab chiqish kompaniyalar uchun transport xizmatlari bozorida muvaffaqiyatga erishishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nobert, A., & Sufian, S. (2023). Smart Mobility and Transport Solutions: The Role of Digital Transformation. Journal of Smart Transport, 8(4), 75-89.
2. Berg, D., & Koutsou, S. (2020). Innovative Technologies in Transport: Challenges and Opportunities. Springer Nature.
3. Dimitriou, H., & Rathi, P. (2019). Digital Transport Platforms: A New Era for Transport Services. Elsevier.
4. Shah, K., & Patel, R. (2021). The Role of Artificial Intelligence in Modern Transport Systems. Journal of Transport Engineering and Technology, 15(3), 112-123.
5. Miller, J., & Warren, L. (2022). Automation in the Transport Industry: Opportunities and Challenges. Transportation Research Board Special Report.
6. Bocci, E., & Morales, V. (2020). Internet of Things (IoT) in Transportation: A Guide for Future Smart Cities. Wiley.
7. Jones, P., & Kresl, P. (2021). Sustainable Transport Technologies: Integrating Green Innovations in the Transport Industry. Routledge.
8. Harrison, C., & Tang, W. (2020). The Impact of Emerging Technologies on the Global Transport Sector. Cambridge University Press.

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI (OILAVIY KORXONALAR MISOLIDA)

Eshniyozov Burxon Dilmurod o‘g’li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
“Real iqtisodiyot” kafedrasining assistenti
Muallifning telefon raqami: +998 33 414 44 40

Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha tibbiy xizmatlar tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishning samarali elementlaridan biri yani xorijiy mamlakatlar tajribasida samarali natijalar bergan tibbiy sug‘urta bozorini rivojlantirish hisoblanadi. Buguni kunda O‘zbekistonda tibbiy sug‘urtaning ixtiyoriy turi mavjud. Bu sug‘urta turi asosan yuridik shaxslar tarafidan ixtiyoriy tarzda xarid qilib kelinmoqda. O‘zbekistonda ixtiyoriy tibbiy sug‘urtani sanoqli tashkilotlar (Lukoyl, Nestle-O‘zbekiston va boshqalar) o‘z xodimlariga ijtimoiy paket tarzida taqdim etishadi. Endi tasavvur qiling: respublikada qanchadan-qancha tashkilotlar faoliyat ko‘rsatib kelmoqda? Ular yoppasiga tibbiy sug‘urta polisini sotib olishgach, sug‘urta bozorida tibbiy sug‘urta hajmi nisbatan keskin sur’atlarda oshishiga olib keladi. Sug‘urta bozorida kuchli raqobat tizimi vujudga keladi. Shuningdek, sug‘urta kompaniyalari o‘rtasida sug‘urta xizmatlarini takomillashtirish bo‘yicha majburiyatlar yuzaga keladi. Misol uchun, mijoz 200 ming so‘m sug‘urta mukofotini to‘laydigan bo‘lsa, o‘rtacha hisobda unga 1 mln.so‘mlik tibbiy xizmat ko‘rsatiladi va bu mablag‘ sug‘urta kompaniyasi tomonidan qoplab beriladi. O‘z-o‘zidan sug‘urta kompaniyasi sarflagan ortiqcha summasini yana mijozlarni chaqirish orqali qoplab olishga harakat qiladi. Natijada, sug‘urta kompaniyalari o‘z foydasi uchun xizmat sifatini oshiradi.

Tadqiqotlarimizning natijalari majburiy tibbiy sug‘urtani joriy etish bo‘yicha 2019-yilgi Davlat dasturining 160-bandida aniq vazifalar belgilanganligini ko‘rsatdi. Unga ko‘ra, Sog‘liqni saqlash vazirligi 2019-yilning 1-iyulida Qonunchilik palatasiga qonun loyihasini taqdim etgan. 2018-yil 7-dekabridagi 5590-sonli Prezident farmonida majburiy tibbiy sug‘urtani joriy qilish bo‘yicha maxsus ishchi guruh tuzilishi topshirig‘i berilgan. Vazirlik qoshida tashkil etilgan bo‘limda mana 6 oydan beri qonun loyihasini tayyorlash bo‘yicha ishlar olib borilgan. Unda 2021-yildan boshlab 2025-yilgacha majburiy tibbiy sug‘urtani bosqichma-bosqich joriy qilish ko‘zda tutilgan. O‘zbekistonda tibbiy sug‘urtani 2026-yil oxirigacha to‘liq joriy etish rejalashtirilmoqda. 2024-yildan Davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimiga o‘tkazilgan, 2027-yildan esa mustaqil jamg‘armaga aylanadi. 2026-yilning yakuniga qadar respublika bo‘ylab tibbiy sug‘urta to‘liq joriy etilishi rejalashtirilmoqda. Bu prezident Shavkat Mirziyoyevning 6-sentabrdagi Sog‘liqni saqlash vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarorida belgilangan. Farmonga ko‘ra, sog‘liqni saqlash vaziri va jamg‘arma ijrochi direktori 2026-yilning yakuniga qadar tibbiy sug‘urtaning respublika bo‘ylab to‘liq joriy etilishi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi. 2024-yil 1-yanvardan boshlab Davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasi mustaqil yuridik shaxs maqomi hamda faoliyatini moliyalashtirishning amaldagi manbalari va tartibi saqlab qolingan holda SSV tuzilmasiga o‘tkaziladi.

Jamg‘arma kuzatuv kengashi tibbiy yordamning kafolatlangan hajmi doirasida tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun jalb qilinadigan yetkazib beruvchilar (davlat va nodavlat)ni, xarid qilinadigan tibbiy yordamlar hajmini mustaqil belgilaydi va o‘z budjetini shakllantiradi.

2017-yil aprel oyida prezidentning “Sog‘liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida

O‘zbekistonda majburiy tibbiy sug‘urta tizimini joriy etish va qonun loyihasi konsepsiyasini ishlab chiqish muhokama qilingandi.

Prezidentning 2018-yil dekabrdagi qarorida 2021-yil 1-yanvardan boshlab majburiy tibbiy sug‘urta tizimini bosqichma-bosqich joriy etish ko‘zda tutilgan. 2020-yil noyabr oyida davlat rahbarining “Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori imzolangan. Xuddi shu hujjatga ko‘ra, 2020-yil 1-dekabrdan Davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasi tashkil etilgan. 2022-yil dekabr oyida prezident parlamentga yo‘llagan murojaatida davlat tibbiy sug‘urtasiga o‘tish jadallashtirilishini, 2023-yildan Toshkent shahrida, keyinroq boshqa viloyatlarda ham joriy etilishini ma’lum qilgandi. Yil boshida bu sana 1-iyul deb e’lon qilingan. Bunda tibbiyot muassasalari to‘liq raqamlashtirilishi aytilgan. Sug‘urtalash uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Qisqa muddatda - tayyorgarlik bosqichi (2019-2021 yillar);
2. O‘rta muddatli istiqbolda-majburiy tibbiy sug‘urtani joriy etishning dastlabki bosqichi - davlat va xususiy tashkilotlar xodimlarini sug‘urtalash (2021-2023-yillar);
3. Uzoq muddatda-majburiy tibbiy sug‘urtani kengaytirilgan joriy etish bosqichi – axolining barcha qatlamlarini sug‘urta bilan qamrab olish (2023-2025-yy.) Qonun loyihasini tayyorlashda Janubiy Koreya va Turkiya davlatlari ijobiy tajribasi asos qilib olindi va uni tayyorlashda mahalliy (shifokor, sug‘urtachi, moliyachi va boshqalar)va JSST ekspertlari ishtirok etdi.

Endi moliyalashtirish masalasiga o‘tsak. Rejaga ko‘ra, 2020-yilda maxsus jamg‘arma tashkil etilib, uning manbalari (Moliya vazirligi hali ushbu moliyaviy manbalarni tasdiqlamaganligi sababli ushbu ro‘yxat o‘zgarishi mumkin) quyidagilar bo‘ladi:

- aholi daromadidan to‘lanadigan sug‘urta badallari;
- alkogol va tamaki mahsulotlarini sotilishidan tushgan tushumlardan qilinadigan ajratmalar (masalan, aksiz solig‘i hozir 12 % bo‘lsa, majburiy tibbiy sug‘urta joriy etilgandan keyin u 1 %ga oshirilishi mumkin va shu 1 foiz jamg‘arma hisobiga o‘tkaziladi);
- inson sog‘lig‘i va atrof-muhitga zarar keltiruvchi zavod-fabrikalardan to‘lanadigan ajratmalar (bunda ham xuddi shu tartib amal qiladi).

Majburiy tibbiy sug‘urtalashni faqatgina mana shu jamg‘arma amalga oshiradi. Nima uchun sug‘urta kompaniyalari jarayonda ishtirok etmaydi? Chunki xalqaro tajribani o‘rganganilganda, ular faqat vositachi vazifasini bajarishi mumkin, ya’ni mijozni topib, shartnoma tuzadi xolos. Moliyalashtirish esa jamg‘arma zimmasiga yuklanadi. Sug‘urta kompaniyalarining ishtiroki ijobiy hol, albatta. Ammo buning salbiy jihatlari ko‘proq ekanligi isbotlangan. Masalan, ushbu vaziyatda sug‘urta kompaniyalari aholining sog‘lom qatlamiga ko‘proq e’tibor bera boshlaydi. Aksincha, qariyalar, nogironlarga sug‘urta polisini rasmiylashtirishdan qochishga harakat qilishadi, chunki kompaniyalarning asosiy maqsadi foyda olish hisoblanadi. Shuni inobatga olgan holda, majburiy tibbiy sug‘urtalashni jamg‘arma bajaradi (ixtiyoriy tibbiy sug‘urta bundan mustasno).

“Majburiy tibbiy sug‘urta joriy qilinsa, shifokor bemorning sog‘lig‘iga qayg‘uradi, uning cho‘ntagiga emas”. Abduqodirov majburiy tibbiy sug‘urtaning hayotga tatbiq etilishi tibbiyotda ancha yillardan beri to‘planib qolgan muammolarni bartaraf etishi haqida ham fikrlarini bayon etdi.

Unga ko‘ra, eng katta muammo – korrupsiogen harakatlar kamayadi. Sug‘urta polisi bilan kelgan bemorga shifokorlar har qachongidan ko‘ra sifatliroq xizmat ko‘rsatishadi, chunki u o‘zi bilan mablag‘ olib kelyapti, ya’ni sug‘urta kompaniyalari tibbiy xizmat haqini to‘lab berishadi.

Buning ortidan shifoxonalarning moddiy ahvoli yaxshilanadi. Natijada, xodimlarga yuqori maosh to‘lanadi. Oldingidek bemorlarning cho‘ntagiga «ko‘z tikilmaydi . Asosiy e’tibor uning sog‘lig‘ini tiklashga qaratiladi. Ikkinchi ijobiy tarafi tibbiyot muassasalari o‘rtasida sog‘lom raqobat kuchayadi. Bunda ular ko‘proq bemorlarga xizmat ko‘rsatish uchun sifatni oshirishga harakat qilishadi: moddiy-texnik bazani yaxshilash, malakali kadrlarni jalb qilishga urinishadi. Uchinchidan, tenglik prinsipi shakllanadi. Bemorning ijtimoiy kelib chiqishiga e’tibor berish barham topadi. Shifokor uchun boy-kambag‘alning ahamiyati yo‘qoladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, ushbu tizimni O‘zbekistonda joriy qilishdan sarali va isqibolli natijalar beradi. O‘zbekiston sharoitida yaqin yillar ichida tizim yo‘lga qo‘yiladigan bo‘lsa, albatta,boshida kamchiliklardan holi bo‘lmaydi.Frantsiya va Germaniya tajribasidan foydalanish tibbiy xizmatlar sohasini mamlakatimizda rivojlantishda ahamiyatli modellardan biri bo‘lib hisoblanadi .

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 7-dekabrdagi PF-5590- sonli “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo’yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni;
2. Porter M., Teisberg E. Redefining Health Care: Creating Value Based Competition on Results. Harvard Business School Press, 2006;
3. Zuenkova, Yu.A. The struggle for patients and severe competition for culpulsory health care. Vestnik MIRBIS, 2021;
4. Lukina, Yu.V.; Kutishenko, N.P.; Martsevich, S.Yu. Treatment adherence: modern view on a well known issue. Cardiovascular Therapy and Prevention, 2017;
5. Ivanov, A.V. Registers as the basis for data collection and evidence building. RealWorld Data & Evidence, 2021$.
6. https://www.gazeta.uz/oz/2023/09/07/medical-insurance.

TRANSPORT XIZMATLARI BOZORIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH

SULTONOV SHODIYOR ABDUXALILOVICH
O‘zbekiston, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
“Real iqtisodiyot” kafedrasining iqtisod fanlari nomzodi, professor
Muallifning elektron manzili: *shodiyorsultonov@gmail.com*
Muallifning telefon raqami: +998 90 743 57 07
OLIMOV ODILJON XAMZA O‘G’LI
O‘zbekiston, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Mustaqil tadqiqotchi
Muallifning elektron manzili: *odiljonxamzaolimov@gmail.com*
Muallifning telefon raqami: +998 90 101 17 11

Annotatsiya: Ushbu maqola transport xizmatlari bozorida innovatsion texnologiyalarni joriy etishning ahamiyatini tahlil qiladi. Maqolada yangi texnologiyalar, masalan, sun'iy intellekt, avtomatlashtirish, raqamli platformalar va IoT (Internet of Things) transport sohasida samaradorlikni oshirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish va xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlarini qanday yaratishi muhokama qilinadi. Innovatsion yechimlarning joriy etilishi, shuningdek, mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash va transport tizimlarining ekologik barqarorligini ta'minlashdagi roliga alohida e'tibor qaratiladi. Maqola transport sohasida innovatsiyalarni amalga oshirishning qiyinchiliklari va istiqbollari haqida ham fikr yuritadi.

Kalit so‘zlar: Innovatsion texnologiyalar, transport xizmatlari, raqobatbardoshlik, samaradorlik, sun'iy intellekt, avtomatlashtirish, IoT (Internet of Things), raqamli platformalar, transport tizimlari, ekologik barqarorlik.

Аннотация: В статье анализируется важность внедрения инновационных технологий на рынке транспортных услуг. Рассматриваются новые технологии, такие как искусственный интеллект, автоматизация, цифровые платформы и Интернет вещей (IoT), которые создают возможности для повышения эффективности, увеличения конкурентоспособности и снижения затрат в транспортной отрасли. Особое внимание уделяется роли внедрения инновационных решений в улучшении качества обслуживания клиентов и обеспечении экологической устойчивости транспортных систем. Также в статье обсуждаются проблемы и перспективы внедрения инноваций в транспортной отрасли.

Ключевые слова: Инновационные технологии, транспортные услуги, конкурентоспособность, эффективность, искусственный интеллект, автоматизация, Интернет вещей (IoT), цифровые платформы, транспортные системы, экологическая устойчивость.

Abstract: This article analyzes the importance of implementing innovative technologies in the transport services market. It discusses new technologies such as artificial intelligence, automation, digital platforms, and the Internet of Things (IoT), which create opportunities for increasing efficiency, enhancing competitiveness, and reducing costs in the transport industry. The article also highlights the role of innovation in improving customer service quality and ensuring the environmental sustainability of transport systems. Moreover, the article addresses the challenges and future prospects of implementing innovations in the transport sector.

Key words: Innovative technologies, transport services, competitiveness, efficiency, artificial intelligence, automation, Internet of Things (IoT), digital platforms, transport systems, environmental sustainability.

Kirish. Bugungi kunda transport sektori iqtisodiy rivojlanishning ajralmas qismi bo‘lib, jamiyatning barcha sohalariga ta'sir ko‘rsatadi. Ushbu soha transportning turli shakllari – yo‘lovchi, yuk tashish, shahar va xalqaro transportni o‘z ichiga oladi. Transport xizmatlari bozorining samaradorligini oshirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirish uchun yangi texnologiyalarni joriy etish zaruriy talablardan biri hisoblanadi. Innovatsion texnologiyalar, masalan, sun'iy intellekt (AI), avtomatlashtirish, Internet of Things (IoT) va raqamli platformalar, transport xizmatlarining sifatini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Ushbu maqolada transport xizmatlari bozorida innovatsion texnologiyalarni qanday qilib joriy etish mumkinligi, ularning samaradorligi va raqobatbardoshlikka ta'siri o‘rganiladi. Shuningdek, yangi texnologiyalarning transport tizimlarini takomillashtirishdagi ahamiyati va bu jarayonda yuzaga keladigan qiyinchiliklar va imkoniyatlar ham tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Transport sohasida innovatsiyalar ko‘p jihatdan transportning samaradorligi, xavfsizligi va ekologik ta'sirini yaxshilashga qaratilgan. Masalan, sun'iy intellekt va mashinasozlik orqali transport kompaniyalari boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Avtomobillarni o‘z-o‘zini boshqarish texnologiyalari, ayniqsa, yo‘l harakati xavfsizligini oshirishga, avtohalokatlar sonini kamaytirishga yordam beradi.

Shuningdek, IoT (Internet of Things) texnologiyalari yordamida transport vositalari o‘rtasida ma'lumot almashish, transportning haqiqiy vaqt rejimida holatini kuzatish va samarali yo‘l tarmog‘ini yaratish mumkin. IoT tizimlari orqali, masalan, yo‘lovchilarning joylashuvi, yuklarning harakat yo‘nalishlari va har bir transport vositasining texnik holati haqida aniq ma'lumotlarga ega bo‘lish mumkin.

Raqamli platformalar (masalan, mobil ilovalar, onlayn bronlash tizimlari) transport xizmatlarining raqobatbardoshligini oshirishda katta rol o‘ynaydi. Ushbu platformalar foydalanuvchilarga oson va tezkor xizmatlardan foydalanish imkoniyatini taqdim etadi. Misol uchun, yo‘lovchilarni o‘zbek shaharlarida yoki xalqaro yo‘nalishlarda transport xizmatlari bilan ta'minlash uchun mo‘ljallangan mobil ilovalar orqali joy bron qilish, to‘lovni amalga oshirish va xizmatlar haqida feedback qoldirish mumkin.

Bundan tashqari, transport kompaniyalarining o‘zaro integratsiyasi ham raqamli platformalar yordamida amalga oshirilishi mumkin, bu esa ularning ish faoliyatini optimallashtirish va foydalanuvchi talablariga tezkor javob berish imkonini yaratadi.

Yashil texnologiyalar, masalan, elektr transport vositalari, transportning ekologik izini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Elektr transport vositalari karbon gazlarini kamaytiradi va shaharlar orasidagi havoning ifloslanishini pasaytiradi. Shu bilan birga, transport kompaniyalari ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishga o‘tishmoqda.

Bundan tashqari, avtomobillarning energiya samaradorligini oshirish va chiqindi gazlarni kamaytirish kabi maqsadlar, transport sohasida yashil texnologiyalarni kengroq joriy etishni talab qiladi.

Xulosa. Transport xizmatlari bozorida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, nafaqat xizmatlarning sifatini oshirishga, balki raqobatbardoshlikni kuchaytirishga ham xizmat qiladi. Sun'iy intellekt, avtomatlashtirish, IoT va raqamli platformalar yordamida transport tizimlari samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va mijozlarga yanada sifatli xizmatlar taqdim etish mumkin. Buning natijasida transport kompaniyalari bozor raqobatida o‘z o‘rnini mustahkamlashi va xarajatlarni optimallashtirishi mumkin.

Biroq, innovatsiyalarni joriy etishning o‘ziga xos qiyinchiliklari ham mavjud. Bular orasida yuqori boshlang‘ich xarajatlar, texnik mutaxassislarning etishmasligi, va yangi texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha bozorning tayyor emasligi kabi muammolarni keltirish mumkin. Shuning uchun, innovatsion texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy etish uchun samarali strategiyalar ishlab chiqish, hukumat va biznes sektori o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarur. Yuqorida ko’rsatilgan fikrlar orqali quyidagi takliflar keltirdik:

→ Innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish va joriy etishda hukumat tomonidan qo‘llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish;

→ Transport sektorida ishlovchi xodimlarning malakasini oshirish va yangi texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha treninglar tashkil etish;

→ Transport xizmatlari bozorida raqamli platformalarni rivojlantirish, shuningdek, avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish;

→ Elektr transport vositalarini kengroq qo‘llash, shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini transport tizimlariga integratsiya qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

18. Berg, D., & Koutsou, S. (2020). *Innovative Technologies in Transport: Challenges and Opportunities*. Springer Nature.

19. Dimitriou, H., & Rathi, P. (2019). *Digital Transport Platforms: A New Era for Transport Services*. Elsevier.

20. Shah, K., & Patel, R. (2021). *The Role of Artificial Intelligence in Modern Transport Systems*. Journal of Transport Engineering and Technology, 15(3), 112-123.

21. Miller, J., & Warren, L. (2022). *Automation in the Transport Industry: Opportunities and Challenges*. Transportation Research Board Special Report.

22. Bocci, E., & Morales, V. (2020). *Internet of Things (IoT) in Transportation: A Guide for Future Smart Cities*. Wiley.

ИНВЕСТИЦИИ В ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ.

Джумаев Аскар Хайдарович, старший преподаватель кафедры «Цифровая экономика» СамИЭС.Тел: +99891 709 17 88. Эл.П. askardjumayev@gmail.com

Аннотация. В данной статье на научно – обоснованной форме освещается сущностное содержание, место и роль человеческого капитала в развитии экономики, а также источники, издержки и виды инвестиции в человеческий капитал.

Ключевые слова: *ивестиция, глобализация, квалификация, человеческий капитал, интеллектуальный потенциал, внебюджетные фонды.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada inson kapitalining mazmun-mohiyati, iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o‘rni va roli, shuningdek, inson kapitaliga investitsiyalarning manbalari, xarajatlari va turlari ilmiy asoslangan holda yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: investitsiya, globallashuv, malaka, inson kapitali, intellektual salohiyat, byudjetdan tashqari jamg‘armalar.

Abstract. This article, in a scientifically grounded form, highlights the essential content, place and role of human capital in the development of the economy, as well as the sources, costs and types of investment in human capital.

Key words: investment, globalization, qualification, human capital, intellectual potential, extra-budgetary funds.

Человек на протяжении всей истории развития человеческого общества был созидателем материальных и духовных благ, благодаря воплощенного в него разуму и способности к труду. Процессе труда созидательная способность человека постоянно совершенствовался и совершенствуется набирая знаний, опыта и навыков. Поэтому главным фактором общественного производства и экономики в целом является человек. Учённые экономисты начиная с прошлого века, способности человека к созданию материальных и духовных благ, ценностей называют человеческим капиталом.

В действительности, в современных условиях развития экономики любой страны человеческий капитал является одним из главных факторов экономического роста и повышения конкурентоспособности экономики. В развитых странах уровень человеческого капитала заметно выше, чем в странах, находящихся на более низких ступенях экономического развития, а отдача от него по сравнению с отдачей от физического капитала значительно выше.

Обеспечение постоянного роста уровня знаний по специальностям и профессиональной подготовки работников повышает конкурентные преимущества их на рынке труда, а с улучшением поэтапной образовательной подготовки увеличивается уровень их экономической активности, уменьшается риск безработицы, а также ее продолжительность. Более квалифицированным работникам в зависимости от качества их труда, растут заработки и конкурентоспособность на рынке труда, территориальная и профессиональная мобильность.

Современная глобализация мирового хозяйства затрагивает все страны вне зависимости их экономического развития и они находится в состоянии динамичного развития, и следовательно растёт мобильность рабочей силы, возникает необходимость постоянного повышения квалификации работников. В свою очередь, государству необходимо понимать высокую значимость образовательного развития человеческих трудовых ресурсов и

всячески способствовать стимулирование работников к развитию их навыков и квалификации, так как работники с более высоким уровнем образования с большим успехом адаптируются к технологическим, институциональным и социальным изменениям.

Процесс дальнейшего развития нашей экономики в рамках программы «Стратегии развития нового Узбекистана…», которая предусматривает дальнейшее реформирование сферы образования, является результатом переосмысления роли человека в общественном производстве. Поэтому в Узбекистане из года в год повышается величина инвестиции вкладываемое в сферу образования и здравоохранения в широком смысле этого слова.

Прежде чем перейти к рассмотрению инвестиции в человеческий капитал, необходимо выяснить, что собой представляет сам человеческий капитал.

Понятие человеческого капитала своими историческими корнями восходит к работам крупных экономистов прошлого. Например, представители классикой политической экономии рассматривали капитал как средство производства и одновременно как накопленный труд. Понятие капитала в ранних классических традициях включает в себя два аспекта: во-первых, это собственность, во-вторых, это источник дохода.

Люди приобретают полезные навыки и знания, которые являются одной из форм капитала. Этот капитал в значительной части представляет собой продукт обдуманных инвестиций, а его рост может влиять на экономическую систему. Инвестиции в человеческий капитал могут являться основной из причин увеличения производительности труда.

Экономистам давно известно, что люди являются важной частью богатства страны. Исходя из того, что труд способствует выпуску продукции, производственный потенциал человека в настоящее время оценивается значительно выше, чем все другие формы богатства, вместе взятые. Люди вкладывают в себя, и эти инвестиции являются очень большими.

Инвестиции в человеческий капитал редко включались в модели экономического роста в конце XIX - начале XX веков, хотя многие экономисты и видели в этом актуальность. Среди немногих, кто рассматривал в то время людей как капитал, можно выделить Смита, Тюнена, Фишера и Маршалла. Адам Смит в своей книге «Исследование о природе и причинах богатства народов» (1776 г.) отмечал, что на рост производительности полезного труда влияет сначала повышение умения рабочего, а потом улучшение машин и инструментов, при помощи которых он работает.

К середине XX века стало понятно, что полученные знания и навыки являются в значительной мере продуктом инвестиций и в сочетании с другими человеческими инвестициями преимущественно составляют технологическое превосходство технически развитых стран. Поэтому стало необходимым более глубокое понимание влияния результатов интеллектуальной деятельности человека на качество и темпы развития

экономики и общества. В свою очередь статистические данные экономического роста развитых стран, превышающие расчеты с применением только классических факторов роста, послужили импульсом к созданию теории человеческого капитала.

Понятие человеческого капитала ввели американские ученые Теодор Шульц и Гэри Беккер в научных публикациях. В 1979 г. была присуждена Нобелевская премия по экономике Т. Шульцу за создание основ теории человеческого капитала, а в 1992 г. - Г. Беккеру за распространение сферы микроэкономического анализа на различные аспекты человеческого поведения и взаимодействия.

Экономисты XXI века продолжают развивать теорию человеческого капитала, отводя ей важное место в экономическом развитии общества. Человеческий капитал является основным производственным и социальным фактором развития современной экономики и общества, так как он приводит к развитию и росту страны.

Таким образом, экономическая теория человеческого капитала формировалась постепенно, переходя от узкого понимания к более широкому и дополняя, в зависимости от этого, сами свойства человеческого капитала. И так, ***человеческий капитал - это приобретенные знания и навыки в процессе труда, способность человека создавать материальное благо, стоимости и ценности а также мотивации и энергия, которыми обладает человек.***

Под инвестициями в человеческий капитал понимаются затраты, необходимые для увеличения в будущем производительности труда, а также приводящие к повышению квалификации и способностей человека и влияющие в дальнейшем на увеличение доходов работника, предприятия и государства.

Наиболее ярким примером инвестиций в человеческий капитал выступают затраты на образование. Инвестиции в образование могут осуществляться на различных уровнях: на макроуровне - бюджетное финансирование, на мезоуровне - инвестиции со стороны предприятий и на микроуровне - инвестиции со стороны частных лиц.

Уровень развития образования и здравоохранения влияет на физическое и интеллектуальное развитие человека, его профессиональную подготовку и состояние его здоровья. Так, образование и профессиональная подготовка способствуют увеличению объема человеческого капитала, а забота о здоровье - продлению его «срока службы». Поэтому инвестициями в человеческий капитал являются:

- расходы на здравоохранение (расходы на медицинское обслуживание, профилактику заболеваний, и др.);
- расходы на образование (формальное/неформальное, общее/специальное, подготовка на рабочем месте и т.д.);
- расходы на мобильность на рынке труда (возможность миграции из мест с низкой производительностью в места с более высокой производительностью);

- расходы на рождение и воспитание детей.

Кроме того, человеческий капитал может быть как общим, так и специфическим. Общие навыки и знания представляют собой ценность независимо от того, где они были получены, так как они могут использоваться в различных местах. Специфические навыки и знания могут применяться только там, где они были получены, поэтому при смене места работы они теряют свою ценность. В то же время большинство знаний и навыков, которыми обладают люди, не могут быть только общими, либо только специфическими. Подготовка в пределах системы формального образования преимущественно ориентируется на производство общего человеческого капитала, а подготовка на рабочих местах - на формирование специфического человеческого капитала.

Инвестиции в человеческий капитал имеют различные источники: государство, негосударственные общественные организации, внебюджетные фонды, международные организации и фонды, предприятия, домохозяйства. Государство использует как принудительные (например, обязательное для всех образование в рамках средней школы, обязательная медицинская профилактика), так и побудительные меры в этой области. Очень важны инвестиции в человеческий капитал на уровне домохозяйства, поскольку рождение детей и уход за ними являются частью воспроизводства человеческого капитала.

Использованная литература:

1. Человеческое развитие: учебник/ Коллектив авторов. – 2-е издание. – Т.: УМЭД, ПРООН, 2011г.
2. Усмонов Б.Ш., Қодиров М.Қ., Элтазаров Ж.Д. Инсон капиталининг шаклланишида таълим ва илм-фаннинг роли. Т.:«Фан ватехнологиялар», 2015, 80 б.
3. Лобанов Н.А., Скворцов В.Н., Тучков А.И. Человеческий капитал в системе непрерывного образования. Санкт-Петербург.:Издательский дом «Петрополис», 2006, с.72.
4. Усмонов Б.Ш. Ривожланган давлатларда олий таълим тизими. Таълим, фан ва инновация.Т.: 2015. №1, 6-9 б.

TEMIR YO‘L TRANSPORTI INNOVATSION FAOLIYATIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Shakirova Farog‘at Boltaevna
Toshkent davlat transport universiteti
“Transport iqtisodiyoti”
kafedrasi professori
Email : farogat_1973@mail.ru
TEL: +998 90 3559639

Annotatsiya: Mazkur maqolada temir yo‘l transportida innovatsion faoliyatni rivojlantirishiga ta’sir etuvchi omillar o‘rganilgan. Shuningdek, innovatsion rivojlanishning mantiqiy davomi sifatida raqamlashtirish masalalariga ham alohida urg‘u berilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, innovatsion rivojlanish, transport kompleksi , transport tizimi, transport infratuzilmasi, transport korxonasi, transport vositalari va boshqaruv majmui, raqamlashtirish, sun’iy intellekt.

Аннотация: В данной статье изучены факторы, влияющие на развитие инновационной деятельности на железнодорожном транспорте. Также особое внимание уделено вопросам оцифровки как логического продолжения инновационного развития.

Ключевые слова: инновации, инновационное развитие , транспортный комплекс, транспортная система, транспортная инфраструктура, транспортное предприятие, транспортные средства и комплекс управления, цифровизация, искусственный интеллект.

Abstract: this article explores the factors that influence the development of innovative activities in rail transport. Special emphasis is also placed on digitization issues as a logical continuation of innovative development.

Keywords: Innovation, Innovation Development , transport complex, transport system, transport Infrastructure, transport Enterprise, vehicles and Management Complex, digitization, artificial intelligence.

Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning globallashuvi tashqi va ichki bozorlarda raqobatni tobora kuchaytirib borayotgan hozirgi davrda, fan-texnika taraqqiyotinig eng so‘nggi yutuqlarini hisobga olgan holda sifatli ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishni tashkil qilish shu bugungi kun talabiga javob bera oladi. Yuk va yo‘lovchilarni tashish borasida temir yo‘l transporti boshqa transport tizimlariga qaraganda iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanadi.Uning afzalliklari shundan iboratki, ob-havoning qanday bo‘lishidan qat’iy nazar yuk tashish muntazam amalga oshiriladi. Boshqa transport bilan taqqoslanganda temir yo‘l transporti yuk ko‘tarish qobiliyatining balandligi va narxning nisbatan arzonligi bilan ajralib turadi. Bu sohani innovatsion rivojlantirish esa, mamlakat iqtisodiyotini yuksalishiga bevosita ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Innovatsiyalarni sohaga jalb etish orqali mahalliy va xorijiy iste’molchilar talabini qondirish mumkkin. Bu esa o‘z navbatida innovatsiya, innovatsion faoliyat va jarayonning mohiyatini sohaning o‘ziga xos xususiyatlarini e’tiborga olgan holda atroflicha o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy fanda “innovatsiya”ning mohiyatini ilk bor avstriyalik olim Y.Shumpeter quyidagicha ta’riflagan: “Innovatsiya – mavjud jarayonga yangicha qarash, yondashuv bo‘lib, zamonaviy kashfiyot, ishlanma yoki insoniyat faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan yangi ishlab chiqarishni muayyan jarayonga qo‘llash”. Uning fikricha, iqtisodiy faoliyatga aynan innovatsion yondashuv har bir davr iqtisodiy tizimining rivojlanish darajasini belgilab beradi. Uning nazariyacida tadbirkorlik ishlab chiqarishning to‘rtinchi omili sifatida qaraladi. Shuningdek, tadbirkorlarning vazifasi yangi tovarlar yoki eski tovarlar yangi uslubda ishlab chiqarish uchun ixtirolardan foydalanib, yangi xom ashyo va materiallar manbalari yoki yangi bozorlar ochib, ishlab chiqarishni isloh qilish va

takomillashtirishdan iborat[58]. Olim innovatsiyalar, tadbirkorlar tufayli iqtisodiyotda inqilobiy o‘zgarishlar sodir bo‘lishini bashorat qilgan [2] .

Innovatsiyalarni temir yo‘l sohasiga jalb etish orqali mahalliy va xorijiy iste’molchilar talabini qondirish mumkkin. Bu esa o‘z navbatida innovatsiya, innovatsion faoliyat va jarayonning mohiyatini sohaning o‘ziga xos xususiyatlarini e’tiborga olgan holda atroflicha o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyidagi jadvalda temir yo‘l transportida innovatsion faoliyatga ta’sir etuvchi omillarni qarab chiqamiz (1-jadval) .

1-jadval

Temir yo‘l transportida innovatsion faoliyatni rivojlantirishiga ta’sir etuvchi omillar



Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, temir yo‘l transporti innovatsion faoliyatiga yurli yo‘nalishlarda bir qator omillar ta’sir qilishini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, iqtisodiy va texnologik omillar innovatsiyalarning amalga oshishini tezlashtirsa, ijtimoiy va ekologik omillar ularning qabul qilinishiga ta’sir ko‘rsatadi. Huquqiy baza va davlat siyosati esa innovatsiyalarning tizimli rivojlanishi uchun asos yaratadi. Innovatsiyalarni joriy etishda ushbu omillarni hisobga olish, temir yo‘l tizimining barqaror va samarali rivojlanishiga yordam beradi. Innovatsiyalarni amaliyotga joriy etish uchun yetarli darajada moliyaviy resurslar mavjud bo‘lishi lozim. Bunda investitsiyalarning innovatsiyalarga yo‘naltirish alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, davlat-xususiy sherikli munosabatlari va xalqaro grantlarni ham mazkur jarayonga yo‘naltirish asosiy masalaldir. Innovatsiyalarni joriy etish esa kompanining iqtisodiy samaradorligini oshishiga xizmat qiladi. Ya’ni yuk va yo‘lovchi tashish xajmining oshishi natijada iqtisodiy samaradorlikka erishiladi.

Raqamli texnologiyalar innovasion rivojlanishning mantiqiy davomi sanaladi. Temir yo‘l transportida mazkur texnologiyalarni qo‘llash va integrasiyalash ijobiy samara sini ko‘rsatadi. Jumladan, yuk va yo‘lovchi tashishni raqamlashtirish, internet buyumlarni qo‘llash orqali temir yo‘l

[58] Shumpeter Y.A. Teoriya ɔkonomicheskogo razvitiya. M.: Progress, 1983.S. 278-285.

infratuzilmasi va poezdlar holatini real vaqtda kuzatib turish imkonini beradi. Avtomatlashtirish orqali esa mashinistsiz poezd boshqaruvini intellektual boshqaruv tizimlari orqali boshqarishni ta’minlaydi. Energiya tejovchi texnologiyalardan foydalanish esa davr talabidir. Innovasiyalarni amalda qo‘llay bilish uchun kadrlar malakasini samarali oshirish borish, innovasion texnologiyalarni qo‘llay oladigan bo‘lishlari lozim. Yo‘lovchilarga maksimum ijobiy sharoitlar yaratishda ularning tez, qulay va xavfsizlik borasidagi talablarini qondirish omili muhim. Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan rag‘batlantirilishi, ya’ni mazkur yo‘nalishdagi strategiyalarning to‘g‘ri tanlanganligi muhim ahamiyatga ega. Xorijiy texnologiyalarni o‘rganib, uni joriy qilish imkoniyatlari orqali soha rivoji jahon talablari darajasiga tushishni tezlashtiradi.

Big Data texnologiyalari transport sohasida ma’lumotlarni tahlil qilish va ishlash orqali юk va yo‘lovchi tashish jaraënlarini optimallashtirishning muhim vositasidir. U katta hajmdagi ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash, tahlil qilish va ular asosida qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Temir yo‘l transportida Big Data texnologiyalaridan foydalanish samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va xizmat sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Hozipgi paytda industrial jamiyatdan axborotlashgan jamiyatga o‘tish ro‘y bepmoqda. Moddiy va energetika pesurslari axborotdan ko‘pa qampoq ahamiyat kacb эtmoqda. Poctinductpial (axbopot) jamiyatida axbopot ishlab chiqarishning mustaqil omili darajasiga chiqmoqda. Axbopot xizmatlari cohasining jadal sur’atlar bilan pivojlanishi va axbopot texnologiyalari asrida N.Potshildning "Kim axbopotga ega bo‘lsa, o‘sha dunyoni boshqaradi" degan klassik iborasi zamonaviy dunyoning mohiyatini aks ettiradi.

Lokomotivlarning tormozlanish masofasini hisoblash uchun Hamdo‘stlikka a’zo davlatlar temir yo‘l transporti Kengashi tomonidan tasdiqlangan tormoz uskunalariga texnik xizmat ko‘rsatish va temir yo‘l vagonlarini tormozlashni boshqarish qoidalari (60-sonli bayonnoma, 6-7 may 2014 yil) qo‘llanildi. O‘z navbatida, qoidalar tormozlanish masofasini hisoblash metodologiyasi asosida ishlab chiqilgan.

2 -jadval

Tormoz masofasini hisoblash

metrda

Poezdlarning nomlanishi	**Harakat tezligi, km/s**		
	90	120	200
Yo‘lovchi tashish poezdi	590	1083	-
3500 t og‘irlikdagi yuk tashish poezdi	1885	-	-
Afrosiyob	471	855	2479

Yuqoridagi 2-jadvaldan ko‘rinadiki, temir yo‘l uchastkalarida egri yo‘llar mavjudligi tufayli videokameraning ko‘rish oralig‘i 300 metrdan oshmaydi. Barcha temir yo‘l o‘tish joylari avtomatik temir yo‘l signalizatsiya moslamalari-

to‘siqlar va shlagbaum moslamasi bilan jihozlangan. Qo‘riqlanadigan o‘tish joylarida navbatchilar tunu - kun o‘tish joylarini kuzatadilar. Manevr lokomotivlarida sun’iy intellektni o‘rganish amaliy ahamiyatga ega emas, chunki lokomotivlarni bitta mashinist boshqaradi.

Temir yo‘l transporti tizimini innovatsion rivojlantirish orqali quyidagi muhim o‘zgarishlar ro‘y berishi mumkin:

- iqtsiodiy samaradorlik darajasi yuqori bo‘ladi, bu degani innovatsion texnologiyalar (avtomatlashtirish, sun’iy intellekt, IoT) joriy qilinishi orqali yuk va yo‘lovchi tashishda sezilarli ijobiy o‘zgarishlar bo‘ladi;
- xavfsizlik darajasi oshadi, avariyalar kamyadi;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanib poezdlarni elektrlashtirish oqibatida energiya samaradorligi oshadi;
- onlayn bilet sotish, yuk va yo‘lovchilar qatnovini raqamlashtirish xizmat sifatini oshiradi, ekologiyaga ijobiy ta’sir qiladi, infrastruktura zamonaviylashadi;

Demak, innovatsion rivojlanishni ta’minlash orqali temir yo‘l transportini har tomonlama rivojlanishiga ijobiy ta’sir qiladi.

Миллий иқтисодиётни модернизациялаш шароитида мамлакат хизмат кўрсатиш корхоналари инновацион жараёнларини ривожлантиришнинг назарий асослари

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти
“Реал иқтисодиёт кафедраси” доценти, PhD
Дусматов Бегмухаммад Олимжонович
Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти
мустақил тадқиқотчиси
Насруллаев Феруз Фурқатович

Аннотация: Ушбу мақолада Ўзбекистонда амалга оширилаётган иқтисодий ислоҳотларнинг чуқурлашуви билан, биринчи навбатда, унинг барқарор иқтисодий ўсиши учун инновациялар талаб қилинади. Хизмат кўрсатиш соҳаси иқтисодиётнинг барча тармоқларида барқарор иқтисодий ўсишга ўтиш илм-фан ва техника ютуқларидан фойдаланишни рағбатлантирмасдан, янги технологияларни жорий этиш, хизмат кўрсатиш тармоғининг барча фан ва техника соҳалари илмий-техник фаолиятини жадаллаштириш имконини бериши мумкин эмас. Инновацион фаолиятни ривожлантириш ва рағбатлантиришнинг асосий йўналишларидан бири инновацион инфратузилмани яратишдир.

Калит сўзлар: Хизмат кўрсатиш тармоқлари, молиявий хизматлар, молиявий корхоналар, инновация, инновацион хизмат, инновацион инфратузилма

Аннотация. В данной статье показано, что инновации с углублением экономических реформ, проводимых в Узбекистане, необходимы, прежде всего, для его устойчивого экономического роста. Сфера услуг переход к устойчивому экономическому росту во всех отраслях экономики невозможен без стимулирования использования достижений науки и техники, внедрения новых технологий, ускорения научно-технической деятельности всех отраслей науки и техники сферы услуг. Одним из основных направлений развития и стимулирования инноваций является создание

инновационной инфраструктуры.

Ключевые слова: Сервисные сети, финансовые услуги, финансовые предприятия, инновации, инновационные услуги, инновационная инфраструктура.

Annotation: This article shows that innovations with the deepening of economic reforms carried out in Uzbekistan are necessary, first of all, for its sustainable economic growth. The transition to sustainable economic growth in all sectors of the economy is impossible without stimulating the use of science and technology, the introduction of new technologies, and the acceleration of scientific and technical activities in all branches of science and technology in the service sector. One of the main directions of development and stimulation of innovations is the creation of an innovative infrastructure.

Keywords: Service networks, financial services, financial enterprises, innovation, innovative services, innovative infrastructure

Хизматлар кўрсатиш тармоқлари иқтисодиётида инновацияларга асосий эътибор берилади, чунки унинг рақобатбардошлиги, бозор имкониятлари ва бозорда мавжуд фаолият самарадорлиги корхонанинг, саноатнинг, минтақанинг ёки давлатнинг инновацион фаолиятига бевосита боғлиқ бўлиб ҳисобланади.

Бугунги кунда ички бозорларда кичик хизмат кўрсатиш субьектлари ишлаб чиқараётган хизматларнинг рақобатбардошлигини оширишга, иқтисодий ўсишни таъминлаш муаммоларини ҳал қилишга кўмак берувчи хусусий тадбиркорлик ва инновация жараёнлари каби янги йўналишларни шакллантириш ва ривожлантириш зарур.

Кичик хизмат кўрсатиш субьектлари ишлаб чиқаришида инновацион жараёнларни ўрганиш, мамлакатнинг инновацион салоҳиятидан самарали фойдаланиш асосида хизмат кўрсатишнинг тармоқларини ривожлантириш, хизмат кўрсатиш тармоғининг барча фан ва техника соҳалари илмий-техник фаолиятини жадаллаштириш.

Хизмат кўрсатиш ишлаб чиқаришининг асосий мақсади аҳолининг турмуш даражасини ошириш, аҳолининг бандлиги ва даромадларини ошириш, шунингдек, республиканинг иқтисодий салоҳиятини мустаҳкамлашдан иборат. Хизмат кўрсатиш соҳасидаги давлат сиёсати соҳада инновацион жараёнларнинг устуворликларини белгилаш бўйича аниқ чора-тадбирлар мажмуини ташкил этади, унинг ривожланиши ва амалга оширилиши кичик хизматлар ишлаб чиқаришини модернизациялашни жадаллаштиришга таъсир қилади.

Республика хизматлар ишлаб чиқаришида амалга оширилаётган иқтисодий ислоҳотларнинг биринчи босқичида ижтимоий-иқтисодий ўзгаришларнинг чуқурлашиши кузатилди:

минтақаларда хизматлар соҳасида иқтисодий муносабатларни ислоҳ қилишнинг ҳуқуқий асосларини яратди;

хизматлар ишлаб чиқаришининг тубдан янги механизмининг асослари, хизматлар ишлаб чиқаришини молиялаштириш ва суғурталаш тизими, ишлаб чиқарилаётган маҳсулотлар учун ўзаро ҳисоб-китоблар, хизматлар ишлаб чиқарувчиларининг иқтисодий мустақиллиги ва бошқалар ишлаб чиқилди;

Хизматлар соҳасида амалга оширилаётган ислоҳотлар, ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш ва ишлаб чиқариш ҳажмларининг барқарор ўсишини таъминлаш учун эгаларининг мотивациясини ошириш тамойилига мувофиқ давом этмоқда (1-жадвал).

Мамлакатни хизматлар ишлаб чиқариши кўрсаткичларининг динамикасини таҳлил қилиш, хизматлар ишлаб чиқаришини диверсификация қилиш ва минтақаларда бозор инфратузилмасини яратиш учун ижобий жараёнлар билан бирга, салбий тенденциялар ҳам мавжуд: инвестицион соҳада давлат томонидан қўллаб-қувватлашнинг пасайиши;

Хулоса қилиб айтганда, иқтисодиётнинг хизмат кўрсатиш тармоғини давлат кўмаги орқали инновацион ривожлантириш республиканинг хизмат соҳасини устувор йўналишига айланди. Шу билан бирга, иқтисодий механизмлардан имтиёзли фойдаланиш (харажатларни қоплаш, нархларни қўллаб-қувватлаш, субсидиялар, мақсадли дастурларни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш, солиқ имтиёзлари ва бошқалар) кичик молиявий хизмат кўрсатиш корхоналарининг барқарор ривожланишини таъминлаш ва самарали инновацион тизимни шакллантириш учун қулай муҳит яратади.

1-жадвал.

Ўзбекистон Республикасида Хизматлар соҳасининг асосий турлари бўйича кўрсаткичлари[59]

(2022-2023 йиллар)

Хизмат турларининг номи	*Хизматлар ҳажми, млрд. сўмда*		*Улуши, % да*	*Ўсиш суръати, % да*
	2022 й.	*2023 й.*		
Хизматлар – жами	**366 891,0**	**470 286,5**	**100,0**	**113,7**
шундан асосий турлари бўйича:				
алоқа ва ахборотлаштириш хизматлари	24 508,1	32 226,6	6,9	124,6
молиявий хизматлар	80 849,1	106 363,8	22,6	120,6
транспорт хизматлари	83 985,6	108 477,7	23,1	108,0
шу жумладан: автотранспорт хизматлари	*41 726,8*	*51 272,7*	*10,9*	*108,4*
яшаш ва овқатланиш хизматлари	13 115,6	18 327,3	3,9	112,6
савдо хизматлари	89 816,2	110 662,4	23,5	110,2
кўчмас мулк билан боғлиқ хизматлар	9 581,7	12 064,3	2,6	113,3
таълим соҳасидаги хизматлар	15 858,4	20 418,4	4,3	122,8
соғлиқни сақлаш соҳасидаги хизматлар	6 613,1	8 441,2	1,8	111,6
ижара хизматлари	6 471,7	7 542,6	1,6	105,2
компьютерлар ва маиший товарларни таъмирлаш бўйича хизматлар	5 707,3	7 021,5	1,5	106,6
шахсий хизматлар	8 670,8	10 916,0	2,3	106,3
меъморчилик, муҳандислик изланишлари, техник синовлар ва таҳлил соҳасидаги хизматлар	7 284,2	7 959,7	1,7	100,2
бошқа хизматлар	14 429,2	19 865,0	4,2	120,6

[59] Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат статистика агентлиги

Фойдаланилган адабиётлар

1. Кадыров А.М., Дусматов Б.А. РАЗВИТИЕ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ЕГО ВЗАИМОСВЯЗЬ С РОСТОМ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА //Актуальные проблемы экономики и управления на предприятиях машиностроения, нефтяной и газовой промышленности в условиях инновационно-ориентированной экономики. 2013. №. 1. – С. 255−259.
2. Дусматов Б.О. Основные показатели оценки эффективности инновационных проектов в АПК //Инновации и инвестиции. 2018. №. 8. – С. 8−12.
3. Dusmatov B.O., Fozilov V.A. Innovative Approaches to Managing the Development of Industrial Enterprises //International journal on economics, finance and sustainable development. 2023.
4. Stat.uz

Цифровизация и инновации в обслуживании клиентов на современных предприятиях

Абдуллаева Зульфия Иззатовна,
и.о.доц. кафедры «Реальная экономика»
Самаркандский институт экономики и сервиса (СИЭиС)
Тел.+998933516537
E-mail: abdullaevazulfiya70@ gmail.com.

Аннотация. Данный тезис раскрывает актуальность использования цифровизации и инновации, которые являются неотъемлемой частью современной трансформации клиентского сервиса. Также затронуты вопросы повышения качества обслуживания с помощью использования искусственного интеллекта, облачных технологий, аналитики данных, мобильных приложений и других цифровых решений. Даны предложения по расширению компаниями доступности своих услуг.

Ключевые слова и словосочетания: чат-боты, Облачные технологии, Инновации, обслуживание клиентов, голосовые ассистенты, виртуальные помощники, Blockchain.

Annotatsiya. Ushbu tezis mijozlarga xizmat ko'rsatishning zamonaviy transformatsiyasining ajralmas qismi bo'lgan raqamlashtirish va innovatsiyalardan foydalanishning dolzarbligini ochib beradi. Sun’iy intellekt, bulutli texnologiyalar, ma’lumotlar tahlili, mobil ilovalar va boshqa raqamli yechimlarni qo‘llash orqali xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish masalalariga ham to‘xtalib o‘tildi. Kompaniyalarga o'z xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha takliflar beriladi.

Kalit so'zlar va iboralar: chatbotlar, bulutli texnologiyalar, innovatsiyalar, mijozlarga xizmat ko'rsatish, ovozli yordamchilar, virtual yordamchilar, Blockchain.

Abstract. This thesis reveals the relevance of using digitalization and innovation, which are an integral part of the modern transformation of customer service. Also touched upon are issues of improving the quality of service through the use of artificial intelligence, cloud technologies, data analytics, mobile applications and other digital solutions. Proposals are given for companies to expand the availability of their services.

Keywords and phrases: chatbots, Cloud technologies, Innovations, customer service, voice assistants, virtual assistants, Blockchain.

Цифровизация и внедрение инновационных технологий существенно изменяют методы и подходы к обслуживанию клиентов в различных отраслях. Современные предприятия все больше ориентируются на цифровые инструменты, чтобы повысить эффективность взаимодействия с клиентами, улучшить качество обслуживания, ускорить процессы и повысить уровень удовлетворенности. В последние несколько лет, начиная с 2020 года, цифровые технологии играют ключевую роль в трансформации клиентского сервиса.

Чат-боты и ИИ-системы обеспечивают автоматизированное взаимодействие с клиентами в реальном времени, что значительно сокращает время отклика и улучшает доступность. ИИ-решения используются для создания персонализированных предложений, анализа данных о поведении пользователей и улучшения качества обслуживания через автоматические ответы на вопросы клиентов.

Пример: Компания Tinkoff активно использует чат-ботов и искусственного интеллекта для обработки клиентских запросов, что позволяет снизить нагрузку на сотрудников и предоставить клиентам мгновенные ответы.

Within the concept of absolute poverty, the poverty line is the level of disposable income or consumption below which a person or household is classified as low-income (poor). Thus, the World Bank uses the median value of national poverty lines to assess the level of poverty: $3.20 per person (in low-income countries) and $5.50 per person (in high-income countries). In addition, the World Bank uses a multidimensional measure of poverty, which includes indicators of consumption or income, educational attainment, enrolment in education, availability of drinking water, sanitation and electricity, compared with three dimensions of well-being - monetary standard of living, education and basic consumer services. In the United States, the poverty line is based on the minimum monetary income.

“The Poverty the reshold”, which is necessary to provide a household with food, housing and basic necessities, and is differentiated depending on the size and age composition of the household, as well as on a territorial basis. Within the concept of relative poverty, the poverty line is the median income: in most Western European countries, the relative poverty line is 50% of the median income, in Scandinavian countries – 60%.

Taking into account the previous stage of the author’s research into the problem posed, within the framework of which it was determined that the phenomenon of poverty arises as a reaction of the territorial socio-economic system to the imperfection of the institutional conditions of its functioning [3, Korchak, 2007, p. 142, 145pp. 142, 145] and based on the conducted analysis of conceptual approaches to the study of poverty, in our further research we will proceed from the fact that poverty is a multidimensional phenomenon, determined by deprivations in the life of the population and negatively characterizing its socio-economic situation.

Thus, the standard of living is one of three domains of well-being, which includes, in addition to the standard of living, the conditions and quality of life of the population. The standard of living is a complex socio-economic category reflecting the level of provision of consumer goods and services in a volume that

allows for varying their structure in order to optimally satisfy the needs of a person or household. A special place in studies of the standard of living of the population is occupied by the problem of poverty - a multidimensional phenomenon determined by deprivations in a person's life and negatively characterizing his socio-economic situation.

References

1. Губарев Р.В., Дзюба Е.И., Куликова О.М., Файзуллин Ф.С. Управление ка-чеством жизни населения в регионах России // Журнал институциональ-ных исследований. – 2019. – № 11 (2). – с. 146–170. – doi: 10.17835/ 2076–

6297.2019.11.2.146–17010.

2. Томских М.С. Качество жизни в концепции «общества риска» У. Бека // Гуманитарный вектор. – 2016. – № 2. – с. 23–29. – doi: 10.21209/2307–1826–2016–11–2-23–2912.

3.Корчак Е.А. Институциональная среда бедности населения северного регио-на России // Научные ведомости Белгородского государственного универси-тета. Серия: История. Политология. Экономика. – 2007. – № 1. – с. 142–148.

AGROSERVIS YO‘NALISHLARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI ISHSIZLIKNI KAMAYTIRISHNING IQTISODIYOTDAGI O‘RNI

Qarshiyeva Maftuna Sa’dullayevna, Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti,
“Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasi asisstenti
maftunasadullayevna@sies.uz

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda agroservis yo‘nalishlarini rivojlantirish orqali qishloq hududlarida ishsizlikni kamaytirish va iqtisodiy o‘sishga erishish masalalari tahlil ko‘rib chqiladi. Tadqiqotda agroservis tizimining qishloq xo‘jaligidagi samaradorlikni oshirishdagi roli, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha optimal yechimlarni ishlab chiqish bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: Agroservis, ishsizlik, qishloq xo‘jaligi, mehnat bozori, moliyalashtirish, infratuzilma, iqtisodiy rivojlanish, bandlik, innovatsiyalar.

РОЛЬ СОКРАЩЕНИЯ БЕЗРАБОТИЦЫ ПУТЕМ РАЗВИТИЯ АГРОУСЛУГ В ЭКОНОМИКЕ

Аннотация: В исследовании анализируются вопросы снижения безработицы и достижения экономического роста в сельской местности за счет развития агроуслуг. В исследовании рассматривается роль системы агросервиса в повышении эффективности сельского хозяйства,

существующие проблемы и предложения по разработке оптимальных решений по их устранению.

Ключевые слова: Агросервис, безработица, сельское хозяйство, рынок труда, финансиализация, инфраструктура, экономическое развитие, занятость, инновации.

THE ROLE OF REDUCING UNEMPLOYMENT BY DEVELOPING AGRO-SERVICES IN THE ECONOMY

Abstract: The study analyzes the issues of reducing unemployment and achieving economic growth in rural areas by developing agricultural services. The study examines the role of the agro-service system in increasing the efficiency of agriculture, existing problems and proposals for developing optimal solutions to eliminate them.

Keywords: Agro-service, unemployment, agriculture, labor market, financialization, infrastructure, economic development, employment, innovation.

Global iqtisodiy o‘zgarishlar va texnologik rivojlanish sharoitida qishloq xo‘jaligi sohasining barqaror rivojlanishi har bir mamlakat uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, qishloq hududlarida ishsizlik darajasining yuqoriligi iqtisodiy taraqqiyotga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi ortib borayotgan bo‘lsa-da, ushbu jarayonni zamonaviy agroservis xizmatlari bilan ta’minlash yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi ishlab chiqildi.[69] Mazkur Strategiyaning asosiy maqsadi qishloq xo‘jaligi raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan islohotlarni yanada chuqurlashtirishda davlat siyosatini tubdan takomillashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni qamrab oladi:

– qulay agrobiznes muhitini va qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratishni misol keltirishimiz mumkin.[1] Bu yo‘nalish orqali agrosanoat sohasini rivojlantirish uchun qulay infratuzilmani yaratib berish ko‘zda tutilgan. Buning natijasida esa yangi korxona-tashkilotlar soni ko‘payishi bunga parallel ravishda esa ish bilan taminlanganlar soni ham oshadi.

Agroservis sohasini tahlil qilishda biz dastlab asosiy tushunchalarning

Agroservis – bu qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va sotish jarayonlarida yordam beruvchi xizmatlar tizimidir.[2] U fermer xo‘jaliklarini texnika bilan ta’minlash, konsalting sifatida agronomik maslahatlar berish, urug‘chilik va sug‘orish xizmatlarini ko‘rsatish kabi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu xizmatlar qishloq xo‘jaligida samaradorlikni oshirib, fermerlarning daromadini ko‘paytirishga yordam beradi.

Agroservis yo‘nalishlarining rivojlanishi qishloq joylarda yangi ish o‘rinlari yaratishga xizmat qiladi. Masalan, qishloq xo‘jaligi texnikalarini ta’mirlash

[69] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son Farmoni, https://lex.uz/docs/-4567334

ustaxonalari, urug‘chilik va o‘g‘it yetkazib berish korxonalari, logistika va saqlash markazlari ko‘plab kishilarni ish bilan ta’minlashi mumkin. Bu esa qishloq aholisining shahar markazlariga migratsiyasini kamaytiradi va mahalliy iqtisodiyotni mustahkamlashga imkon yaratadi. Shuningdek zamonaviy agroservis tizimining rivojlanishida raqamli texnologiyalarning roli ham kattadir. Masalan:

- agrotexnik maslahatlar beruvchi mobil ilovalar;
- sun’iy intellekt asosida ishlovchi monitoring tizimlari;
- avtomatlashtirilgan texnika kabilaridan foydalanish qishloq xo‘jaligidagi samaradorlikni oshiradi.[3]

Agroservis yo‘nalishlarining yetarlicha rivojlanmagani va natijada qishloq hududlarida ish o‘rinlarining yetishmovchiligi yuzaga kelishiga olib keladigan ikki asosiy sabab mavjud deb hisoblaymiz va bular quyidagilardir:

Birinchisi, agroservis sohasining rivojlanishi uchun katta miqdordagi investitsiya talab etiladi. Biroq, asosiy muammo shundan iboratki, ko‘plab fermerlar va tadbirkorlar agroservis xizmatlarini tashkil etish yoki kengaytirish uchun yetarlicha moliyaviy mablag‘ga ega emaslar. Banklar va moliyaviy institutlarning aynan qishloq xo‘jaligiga yo‘naltirilgan kreditlari kam yoki ularning foiz stavkalari yuqori bo‘lgani uchun ko‘pchilik tadbirkorlar zarur texnologiyalarni chetdan sotib olishga yetmaydi. Natijada esa agroservis yo‘nalishlari rivojlanmay, yangi ish o‘rinlari yaratilmasligiga olib keladi.

Ikkinchisi, bu qishloq joylarida agronomlar, muhandislar, texnologlar va servis sohasi mutaxassislari yetarli emasligidir. Buning asosiy sababi qishloq hududlarida ta’lim va malaka oshirish imkoniyatlarining cheklanganligidir. Natijada, yangi texnologiyalarni qo‘llay oladigan yoki agroservis xizmatlarini ko‘rsatadigan kadrlarning yetishmovchiligi ushbu sohaning sust rivojlanishiga olib keladi.

Ushbu yuqorida sanab o‘tilgan muammolar agroservis sohasining rivojlanishiga to‘sqinlik qilib, qishloq hududlarida ishsizlikning ortishiga sabab bo‘ladi. Ularni bartaraf etish uchun davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirish, kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va infratuzilmani rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, agroservis sohasining rivojlanishi uchun tadbirkorlar va fermerlarga moliyaviy yordam zarur. Shu sababli, davlat tomonidan imtiyozli kreditlar ajratish, subsidiyalar berish va investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish bu muammoni bartaraf etishga imkon yaratadi. Masalan:

– qishloq xo‘jaligi texnikalarini sotib olish yoki agroservis markazlarini tashkil etish uchun past foizli kreditlar ajratish;

– fermerlarga texnikalar va xizmatlarni lizing ya’ni ijaraga olish imkoniyatlarini yaratish;

– agroservis korxonalarini qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus davlat dasturlarini ishlab chiqish.

Shu orqali, tadbirkorlar agroservis yo‘nalishlariga sarmoya kiritishga rag‘batlantiriladi, bu esa fermerlarning faoliyatini kengaytirishga va shu bilan birga yangi ish o‘rinlarini yaratishga xizmat qiladi.

Umumiy xulosa qilib shuni aytish mumkinki, agroservis yo‘nalishlarini rivojlantirish qishloq hududlarida ishsizlikni kamaytirish va iqtisodiy faollikni oshirishning muhim omillaridan biri ekanligini yuqorida keltirilgan tahlillarni umumlashtirish orqali xulosa qilishimiz mumkin. Ushbu sohaga investitsiyalarni jalb qilish, mutaxassis kadrlarni tayyorlash va infratuzilmani rivojlantirish qishloq xo‘jaligining samaradorligini oshirishga imkon yaratishi aniqlandi. Bu esa nafaqat yangi ish o‘rinlarini yaratish, balki butun iqtisodiyotning barqaror o‘sishiga xizmat qiladi. Shu bois, agroservis sohasini qo‘llab-quvvatlash nafaqat davlat balki xususiy sektor hamkorligi asosida ustuvor yo‘nalish sifatida rivojlantirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, 23.10.2019 yildagi PF-5853-son.

[2] World Bank (2022). *Agricultural Innovation for Sustainable Development.* The World Bank Group.

[3] FAO (2021). *Rural Employment and Agricultural Services Development.* Food and Agriculture Organization of the United Nations.

[4] Dorward, A., Kydd, J., Poulton, C. (2004). *Agricultural Development and Rural Employment: Policies for Sustainable Growth.* Oxford University Press.

ХИЗМАТЛАР СОҲАСИДА ТАРКИБИЙ ЎЗГАРИШЛАРНИ АМАЛГА ОШИРИШДА ОЛИЙ ТАъЛИМ СИФАТИНИ БАҲОЛАШНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ

С.Ў.Ҳусенов – СамИСИ “Иқтисодиёт назарияси” кафедраси катта ўқитувчиси
Н.Бобоев- СамИСИ “Маркетинг” кафедраси доценти

Annotasiya: *Ушбу мақолада хизматлар соҳасида таркибий ўзгаришларни амалга ошириш учун олий таълим ва унда кўрсатилаётган хизматлар сифати муҳим аҳамиятга эга эканлиги баён қилиниб, олий таълим хизматлари сифатини баҳолаш, бунда талаба*

қониқиши мезонига устуворлик бериш кераклиги эмперик маълумотлар асосида таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: *олий таълим, таълим хизматлари, таълим хизматлари сифати, сифат компонентлари, талаба қониқиши.*

Absract: *The article argues that higher education and the quality of services provided in it are important for the implementation of structural changes in the service sector, and based on empirical data, the assessment of the quality of higher education services is analyzed, in which priority should be given to the criterion of student satisfaction.*

Key words: *higher education, educational services, quality of educational services, components of quality, student satisfaction.*

Ҳозирги кунда хизматлар соҳасида таркибий ўзгаришларни амалга ошириш, мамлакатимиз ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг устувор йўналишла-ридан бири ҳисобланади. Бу энг авволо, халқаро стандартлар талабларига мос келадиган кадрларни тайёрлай оладиган олий таълим тизимини сифат жиҳатдан янги босқичга кўтаришни, таълим хизматлари сифатини яхшилашни тақозо этади. Чунки мамлакатда хар қандай ўзгаришни амалгат оширигадиган энг самарали куч бу – малакали кадрлардир. Шу мақсадда Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Респуб-ликаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”[70]ги ПФ-5847-сонли Фармон қабул қилиниб, кўплаб амалий ишлар қилинди.

Кенг кўламли ислоҳотларга қарамасдан, ***олий таълим тизимида сезиларли даражада ижобий ўзгаришлар бўлмаяпти***. Фикримизча, сунъий тўсиқлар ва камчиликлар ҳали-ҳануз мавжуд. Хусусан, ОТМда таълим хизматлари сифатини баҳолашнинг замонавий тизимларидан самарали ва адолатли ишлатилмаяпти. Ҳозирги кунда жаҳон рейтингларида юқори ўринларни эгаллаган топ университетлар таълим сифатини баҳолаш борасида турли стандарт ва усули[71] асосида баҳоланмоқда. Ривожланган мамлакатларда таълим хизматлари сифатини баҳолошда сифатдан манфаатдор етакчи томон, яъни талаба ва унинг фикрларини ўрганиш алоҳида эътибор берилмоқда. Талабалар фикрларини ўрганиш, эконометрик моделлар орқали таҳлил қилиш орқали хизматлар сифатига баҳо бериш, уларда асосий мезон сифатида қаралмоқда. Бизда талабалар фикри, таълим сифатини борасидаги уларни қарашларини ўраниш ва улар асосида муаммо, камчиликларни аниқлаш бартараф этиш масалалари охирги ўринларга қўйиб келинмоқда. Бу эса соҳанинг ривожланишига ва таълим хизматлари сифатига салбий таъсир кўрсатмоқда. Шу нуқтаи назардан олий таълимдаги хизматлар сифатини “талабалар қониқиши” мезони асосан баҳолашнинг

[70] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрьдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли Фармони.

[71] Олий таълим муассасаларида таълим сифатини баҳолаш [Матн] : методик қўлланма / М. Хуррамов . – Тошкент: “Sano-Standart”, 2023. – 32 б.

концептуал моделини ишлаб чиқиш ва уни ОТМ фаолиятига жорий қилиш ҳозирги куннинг долзарб масаласидир.

Ривожланган мамлакатларда, хусусан, АҚШ[72], Норвегия[73], Сингапур[74] Англия[75], Ирландия[76], Испания[77]да олимлар, тадқиқотчилар томонидан таълим хизматлари сифатини "талабалар қониқиши" мезони орқали баҳолашни илмий асослаш, уларни таҳлил ва тадқиқ қилиш методологияларини такомиллаштириш бўйича илмий ишлар бажарилмоқда. Масалан, Z.Allam[78], M.Iacovidou ва бошқалар[79] M.Moslehpour[80], A.Faizan ва бошқалар[81], Khawaja ва бошқалар[82] илмий ишларида таълим хизматларининг сифат компоненти ва талаба қониқиши ўртасида ижобий боғлиқлик борлиги илмий исботланган.

Талаба қониқиши – бу нозик, аммо мураккаб ҳодиса. Талабанинг қониқиш ҳосил қилиши, ўқув жараёнида талабалар дуч келган таълим тажрибалари, хизматлари ва қулайликларини баҳолаш натижасида юзага келадиган ҳис-туйғуларга асосланади. Таълимдан қониқиш – бу талабаларни ОТМга бўлган содиқлигининг ижобий мезони ва таълим тизими фаолиятининг муваффақиятли натижасидир. Шу сабабли, талабаларнинг қониқиши даражаси кўрсатилаётган таълим хизматлари сифатини ва яратилган имкониятларни баҳолаш натижасида юзага келадиган қисқа муддатли муносабат сифатида аниқланган.

Биз олий таълим хизматлар сифати ва талаба қониқиши ўртасида боғлиқлик борлигини аниқлаш мақсада тадқиқот ўтказдик. Бунинг учун махсус сўровнома тайёрланди. Олий таълим хизматлари сифатини ифодоловчи копонентлар, яъни профессор-ўқитувчиларнинг билими,

---

[72] Dehghan A., J. Dugger, D. Dobrzykowski, and A. Balazs, "The antecedents of student loyalty in online programs," *Int. J. Educ. Manag.*, vol. 28, no. 1, pp. 15–35, 2014

[73] Wiers-jenssen J., B.Stensaker, J.B.Gr, and J.Wiers-jenssen, "Student Satisfaction : towards an empirical deconstruction of the concept," vol. 8322. 2010

[74] Khoo H., Susie and S.T.Gregor, "Service quality and student/customer satisfaction in the private tertiary education sector in Singapore," *Int. J. Educ. Manag.*, vol. 31, no. 4, pp. 430–444, 2017

[75] Lesley L., S.Kalafatis "The idiosyncratic behaviour of service quality, value, satisfaction, and intention to recommend in higher education: An empirical examination." Journal of Marketing Management Vol. 27, Nos. 11–12,

[76] Chapman B., and A. Doris, "Modelling higher education financing reform for Ireland," *Econ. Educ. Rev.*, vol. 71, pp. 109–119, 2019

[77] Doña L., Toledo and T.Luque Martínez, "How loyal can a graduate ever be? The influence of motivation and employment on student loyalty," *Stud. High. Educ.*, vol. 45, no. 2, pp. 353–374, 2020.

[78] Allam Z., "Demystifying the Aspect of Quality in Higher Education: Insights From Saudi Arabia," *SAGE Open*, vol. 10, no. 1, 2020

[79] Iacovidou M., P.Gibbs, and A.Zopiatis, "An exploratory use of the stakeholder approach to defining and measuring quality: The case of a cypriot higher education institution," *Qual. High. Educ.*, vol. 15, no. 2, pp. 147–165, 2009

[80] Moslehpour M., K.Y.Chau, J.Zheng, A.Hanjani, and M. Hoang, "The mediating role of international student satisfaction in the influence of higher education service quality on institutional reputation in Taiwan," *Int. J. Eng. Bus. Manag.*, vol. 12, no. 100, pp. 1–16, 2020

[81] Ali F., Y.Zhou, K. Hussain, P.K.Nair, and N.Ragavan, "Quality Assurance in Education Does higher education service quality effect student satisfaction, image and loyalty?: *Iss*, vol. 24, no. 3, pp. 70–94, 2016, [Online]

[82] Latif K.F., I. Latif, U. Farooq Sahibzada, and M. Ullah, "In search of quality: measuring Higher Education Service Quality (HiEduQual)," *Total Qual. Manag. Bus. Excell.*, vol. 30, no. 7–8, pp. 768–791, 2019.

талабаларни қўллаб-қувватлаши, дарс ўтиш маҳорати, фан дастурлари савияси, баҳолаш тизимининг самарали ва адолатли ишлаши, таълим муҳити, маъмурият фаолияти, олий таълимнинг корҳона ва ташкилотлар билан ҳамкорлик алоқалари, рухсат (очиқлик даражаси), таълим ресурслари ҳолати ва таълим тизимининг такомиллашуви ва уларни таркибий индикаторлари жойлаштирилиб, *"Олий таълим хизматлар сифатини қанчалик юқори бўлса, талабанинг қониқиш даражаси ҳам шундай юқори бўлади"* деган гепотеза ишлаб чиқилди.

Сўровнома СамИСИни 2007-2019 йиллар оралиғида ўқиган собиқ битирувчиларга юборилди. Бунда "Survey Monkey" платформасидан фойдала-нилди. Сўровнома 1000 та талаба ёшларга электрон юборилди. Натижада 638 респондентдан жавоблар олинди. Уларнинг 59,0 фоизи, яъни 381 нафари тўлиқ жавоб берган. Қолган 256 респондентнинг жавоблари тўлиқ бўлмаганлиги сабабли, руйҳатдан олиб ташланди ва 381 та тўлиқ жавоб тадқиқот учун яроқли эканлиги аниқланди. Тадқиқот кўрсаткичлари яъни хизматлар сифати ва талаба қониқиши латент (яширин) ва кўп ўлчовли бўлганлиги боис, сўров маълумотларига ишлов бериш ва таҳлил қилиб илмий гепотезани текширишда SEM методологиясидан самарали фойдаланилди.

SEM таҳлилга кўра, талабалар қониқишига сифатни ифодоловчи 3 та компонент, яъни профессор-ўқитувчиларнинг билим савияси ва маданияти (*Standardised Loadings* (β)=0.307, p=0.000), баҳолаш тизимининг самарали ва адолатли ишлаши (*Standardised Loadings* (β)=0.366, p=0.000) ҳамда олий таълим муассасасининг доимий такомиллашуви (*Standardised Loadings* (β)=0.280, *p*=0.007) омиллари сезиларли даражада ижобий таъсир этган. Қолган 6 та сифатни ифодоловчи кўрсаткичлар жумладан, раҳбарият фаолияти (*Standardised Loadings* (β)=0.045, *p*=0.651), корхона ва ташкилотлар билан ҳамкорлик (*Standardised Loadings* (β)=0.030, *p*=0.707), таълим ресурслари ҳолати (*Standardised Loadings* (β)=0.089, *p*=0.197), профессор-ўқитувчиларнинг талабаларни қўллаб-қувватлаши (*Standar-dised Loadings* (β)=-0.021, *p*=0.840), фан дастурларининг савияси *Standardised Loadings* (β)= -0.013, *p*=0.870), талабалар учун барча эшикларни очиқлик даражаси (Рухсат) (*Standardised Loadings* (β)= -0.061, *p*=0.417) талабалар қониқишига таъсири статистик жиҳатдан сезиларли (ижобий) даражада бўлмаган;

SEM таҳлилларидан шундай хулоса қилиш мумкинки, талабалар қониқишига профессор-ўқитувчиларнинг билим савияси ва маданияти, баҳолаш тизимининг самарали ва адолатли ишлаши ҳамда олий таълим муассасасининг доимий такомиллашуви компонентлаври ижобий таъсир этганлиги боис, ўқитувчиларнинг малакасини ошириш, уларни ўз устида ишлаши учун шарт-шароитларни яратиш, дарсларга тайёргарлигини доимий назорат қилиш, талаба билимини баҳолашда фан ва мавзулар мазмуни, мураккаблик даражасига эътибор бериш, баҳолашда маҳаллийчилик, таниш-билишчиликка йўл қўймаслик ҳамда меҳнат бозори талаблари билан узвий

боғланган ҳолда олий таълим муассасасини доимий равишда янада ривожлантириш тавсия этилди.

Таълим хизматлар сифатини ифодолдовчи компонентлардан талаба қониқишига салбий таъсир этганлари бўйича шуни айтиш мумкинки, институт раҳбарияти ва қуйи буғинларда фаолият кўрсатаётган ҳодимлар ва талаба ёшлар ўртасидаги муносабатларни қайта кўриб чиқиши, институт билан корхона, ташкилотлар ўртасидаги ҳамкорликни янада ривожлантириш, хорижий олийгоҳлар, тадқиқот институтлари билан узаро ҳамкорликни йўлга қўйиш, таълим ресурслари ҳолатини, ҳусусан, ўқув материаллари сифатини яхшилаш кераклиги таклиф этилди.

Юқорида қайд SEM натижалари ва улар асосида тайёрланган таклифлар олий таълим хизматларини кўрсатувчи муассасаларда сифатни баҳолаш учун қулланилса, мамлакатда малакали кадрлар тайёрлаш сифатини ошириш, пировардида хизматлар соҳасида таркибий ўзгаришларни амалга ошириш имконини беради.

Xusainov Sh.A. - Raqamli iqtisodiyot va agrotexnologiyalar universiteti, i.f.n., dotsent

O‘ZBEKISTONDA AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING MOLIYAVIY HOLATI TAHLILDA LIKVIDLILIK KO‘RSATKICHLARI

Aksiyadorlik jamiyatlari (AJ) O‘zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, ularning moliyaviy holati mamlakat iqtisodiy barqarorligiga va rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ular moliyaviy samaradorlikni oshirish, investitsiyalarni jalb qilish va mehnat resurslaridan foydalanishni optimallashtirish orqali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, aksiyadorlik jamiyatlari shaffof moliyaviy hisobotlarni yuritish va samarali boshqaruvni amalga oshirish orqali jamiyat manfaatlariga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yil oxirida O‘zbekistondagi AJlarning umumiy soni 680 dan oshiqni tashkil etgan, ularning umumiy aktivlari 480 trillion so‘mdan ortiqni tashkil qilgan[83]. AJlar, xususan, katta hajmdagi investitsiyalarni jalb qilish qobiliyati va yuqori darajadagi mas’uliyati tufayli iqtisodiyotning turli sohalarida yetakchi rol o‘ynaydi. Masalan, “O‘zbekneftgaz” AJ 2023-yil davomida investitsiya dasturlari doirasida 12 trillion so‘mlik loyihalarni amalga oshirgan[84]. Shuning uchun, AJlarning moliyaviy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish va ularga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

O‘zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy boshqaruvining tahliliy xususiyatlari, jamiyatning moliyaviy holatini aniqlash va rivojlanish istiqbollarini belgilash, shunga ko‘ra, moliyaviy xatarlarni boshqarishda muhim rol o‘ynaydi.

[83] O‘zbekiston Respublikasi statistika agentligi ma’lumotlari. www.stat.uz
[84] “O‘zbekneftgaz” AJ ma’lumotlari. https://www.ung.uz/

Bu jarayonda moliyaviy tahlilning keng qamrovli usullari va ko‘rsatkichlari ishlatilmoqda. I.Axmatovning fikricha, moliyaviy holatini aniqlash orqali likvidlik va barqarorlik darajasi, shuningdek, kelajakdagi ijobiy va salbiy xatarlar aniqlanadi[85]. Aksiyadorlik jamiyatlari o‘z moliyaviy holatini, shuningdek, majburiyatlar, likvidlik, daromad va xarajatlar dinamikasi kabi bir qator ko‘rsatkichlarni tahlil qilish orqali, o‘z faoliyatini boshqarishda aniq va samarali qarorlar qabul qilish imkoniga ega bo‘ladi.

Moliyaviy ko‘rsatkichlar, moliyaviy holatni baholashda muhim ko‘rsatkichlardan biri bo‘lgan likvidlik darajasi, jamiyatning o‘ziga kerak bo‘lgan moliyaviy vositalarga tez yetishi va ularni o‘z vaqtida to‘lash qobiliyatini ko‘rsatadi. Bu ko‘rsatkich moliyaviy zudlik va jamiyatning umumiy barqarorlik holatiga ta’sir ko‘rsatadi. Moliyaviy tahlilning strategik qismi kredit riski, likvidlik riski va boshqa moliyaviy xatarlarni aniqlashda katta yordam beradi[86].

Likvidlik tahlili, odatda, jamiyatning kumulyativ aktivlari va ularning og‘irlik darajasiga bog‘liq, shu bilan birga, kreditlar, qarzlar va jamiyatning boshqa moliyaviy majburiyatlarini hisobga oladi.

Moliyaviy barqarorlik, o‘z navbatida, jamiyatning uzoq muddatdagi faoliyatini davom ettirish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy resurslarning tizimli ravishda yig‘ilishi va maqsadli sarflanishini ta’minlashni ko‘zda tutadi. Barqarorlik tahlili, odatda, moliyaviy shiddat, qo‘shimcha sarf-xarajatlarning kamaytirilishi va faoliyatning samaradorligini ta’minlashga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Likvidlik darajasini tahlil qilish va uni statistik ma’lumotlar bilan boyitish jamiyatlarning moliyaviy xolatini yanada aniqroq baholashga imkon beradi. Shu bilan birga, ma’lumotlar jamiyatlarning strategik rejalarini shakllantirishda va moliyaviy qarorlar qabul qilishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, 2022 yilda jahon moliya bozorlari bo‘yicha 1,2 trillion dollarlik likvidlik daromadlari yaratilgani ma’lum. Bu natijalar, asosan, likvidlikning yuqori bo‘lishi va iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini ko‘rsatadi. O‘zbekistonda esa 2023 yilning 1-chi yarmida yirik korxonalarda likvidlik darajasi 30% oshganligi haqida ma’lumotlar mavjud. Bu ko‘rsatkich nafaqat moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda, balki korxonalarning iqtisodiy rivojlanishini yo‘lga qo‘yishda ham muhim rol o‘ynamoqda.

Likvidlikning past bo‘lishi korxonalarning qarz majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarishga yordam bermaydi. Masalan, 2020 yilda Yevropa Ittifoqidagi korporativ sektorning 25% holatlarida likvidlik muammolarini ko‘rsatgan. Shuningdek, AQShda 2019-2021-yillarda likvidlik muammolarini yuqori ko‘rsatgan korxonalarda qarzlar 20% oshgan. Buning natijasida, ko‘plab kompaniyalar qarzlarning tezorek to‘lanishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatgan.

Likvidlikni baholashning statistik usullari ham korxonalarning moliyaviy holatini aniqlashda muhimdir. Bundan tashqari, yangi tahlillar ham tadqiqotlarda e’tiborga olinadi. Masalan, aksiyadorlik jamiyatlari uchun qo‘llaniladigan joriy

[85] Axmatov I. (2021). Moliyaviy tahlil va jamiyatlar barqarorligi. Toshkent: O‘DJTU.
[86] Tursunov B. (2020). Strategik tahlil va moliyaviy xatarlar. Toshkent: O‘zbekiston moliya instituti nashriyoti.

koeffitsienti (Current Ratio), tezkor likvidlik koeffitsienti (Quick Ratio) va pul mablag‘lari koeffitsienti (Cash Ratio) bilan birga, yangi moliyaviy tahlillar va statistik metodlar, xususan, davlat indikatorlari yoki dinamika (o‘suvchanlik) indekslari kabi yanada mukammal ko‘rsatkichlar to‘g‘risida ham fikrlar yuzaga kelmoqda. Shular orqali, moliyaviy tahlillar jamiyatning holatini aniqroq va xolisroq baholash imkonini beradi.

O‘zbekistonning moliyaviy bozorida ham likvidlik tahliliga katta ahamiyat berilmoqda. 2023-yilda respublikadagi banklar tomonidan amalga oshirilgan moliyaviy tahlillarda likvidlik indikatorlari 12% oshganligi ma’lum. Bu, bundan tashqari, umumiy iqtisodiy o‘sish va inflyatsiyaning pasayish jarayonlari bilan bog‘liqdir.

Shu bilan birga, likvidlik yuqori bo‘lgan kompaniyalar o‘z operatsiyalarini samarali boshqarish, qarzlarini o‘z vaqtida to‘lash va bo‘sh pullarni samarali sarflashga qodir. 2023-yilda O‘zbekistonda amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida, likvidlik darajasi yuqori bo‘lgan 100 ta kompaniyaning 85% moliyaviy samaradorlik ko‘rsatkichlari yuqori ekanligi aniqlangan. Bu statistika moliyaviy mustaqillik va barqarorlikning orasidagi bevosita bog‘liqlikni ko‘rsatadi.

Bu ma’lumotlardan kelib chiqib, jamiyatlar o‘z likvidlik darajasini baholashda statistik tahlillarga asoslanishlari kerak. Ushbu tahlillar orqali jamiyatlar moliyaviy samaradorlikni oshirish, qarzlarini samarali boshqarish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash uchun zarur qadamlarni belgilashlari mumkin.

Shunday qilib, moliyaviy tahlil aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini baholashning muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, bu jarayonning asosiy maqsadi — jamiyatning moliyaviy holatini aniq va xolis baholashdir. Bundan tashqari, moliyaviy tahlil iqtisodiy risklarni kamaytirish, moliyaviy ahvolni yaxshilash va kelajakdagi strategik qarorlarni qabul qilishda muhim rol o‘ynaydi. Shundan kelib chiqib, moliyaviy tahlil jamiyatning rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish, yangi loyihalarga sarmoyalar jo‘natish va kompaniyaning bozordagi o‘rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, O‘zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy holatini yaxshilash uchun strategik yondashuv talab etiladi. Bu jarayonda moliyaviy boshqaruvni kuchaytirish, HMHS talablariga mos hisobot berish va investitsiyalarni jalb qilish asosiy yo‘nalishlar hisoblanadi. Shuningdek, moliyaviy ko‘rsatkichlarning doimiy monitoringi va ularning xalqaro standartlarga muvofiq tahlili AJlarning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Texnologik innovatsiyalardan foydalanish va moliyaviy hisobotlarning raqamlashtirilishini ta’minlash esa tizimning yanada shaffof va samarali bo‘lishiga ko‘maklashadi. Ushbu chora-tadbirlar nafaqat AJlarning, balki butun mamlakat iqtisodiyotining yanada yuqori bosqichga ko‘tarilishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi statistika agentligi ma’lumotlari. www.stat.uz

2. “O‘zbekneftgaz” AJ ma’lumotlari. https://www.ung.uz/

3. Axmatov I. (2021). Moliyaviy tahlil va jamiyatlar barqarorligi. Toshkent: O‘DJTU.

4. Tursunov B. (2020). Strategik tahlil va moliyaviy xatarlar. Toshkent: O‘zbekiston moliya instituti nashriyoti.

MUNDARIJA

I SHO‘BA. XIZMATLAR SOHASIDA TARKIBIY O‘ZGARISHLARNI AMALGA OSHIRISH VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNI YAXSHILASHNING NAZARIY METODOLOGIK MASALALARI		
Z.S.Artikov	Savdo xizmatlarining iqtisodiy tasniflanishi	5
D.S.Musinov	Xizmat ko‘rsatish sohasida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash	8
З.И.Усманова	Развитие сферы услуг и туристической индустрии в Узбекистане: тенденции, вызовы и перспективы	10
Z.S.Artikov	Savdo xizmatlarini rivojlantirishning iqtisodiy ahamiyati	13
M.B.Kalanova	Ovqatlanish korxonalarida marketing strategiyalarini qo’llashning o’ziga xos xususiyatlari	17
Б.О.Дусматов М.У.Мирзаахмедов	Мамлакат иқтисодиёти рақобатбардошлигининг моҳияти ва ривожланиши	20
З.И.Абдуллаева С.А.Махмудов	Факторы конкурентоспособности на предприятиях общественного питания	23
З.И.Абдуллаева С.А.Махмудов	Теория и практика цифровых трансформаций в бизнесе	26
Б.О.Дусматов Ш.Т.Журакулова	Международная торговля товарами: сущность, формы, место и значение в системе международных экономических отношений	29
M.E.Erdonov	Erkin iqtisodiy zonalar samaradorligini oshirish orqali milliy iqtisodiyotni rivojlantirish yo’llari	32
M.E.Erdonov	Xizmat ko`rsatish korxonalarini rivojlantirish va texnologik yangilash asoslari	35
U.N.Nizamov	O‘zbekiston bank tizimining global tendensiyalarga moslashuvchanligi.	37
З.И.Абдуллаева С.И.Худайбердиева	Критерий и показатели эффективности	41
O.X.Olimov	Transport xizmatlarida narx siyosati va uning raqobatbardoshlikka ta'siri	44
S.N.Hukumova	Raqamli iqtisodiyot sharoitida ijara xizmatlari samaradorligini oshirish yo‘llari	46
S.N.Hukumova	Ijara xizmatlari bozori rivojlantirishdagi muommolari va yechimlari	50
Ш.Н.Мирзаева Ш.А.Мирзатуллаев	Этика и ответственность частных предпринимателей в сфере услуг	53

Ш.Н.Мирзаева М.А.Элбрусов	Частное предпринимательство в сфере услуг	56
Ш.Н.Мирзаева М.А.Элбрусов	Бизнес школы: пользы и преимущества	59
Ш.Н.Мирзаева Х.М.Рахматов	Государственная поддержка предпринимательства в узбекистане: от теории к практике	62
Ш.Н.Мирзаева Х.М.Рахматов	Перспективы развития предпринимательства в узбекистане в условиях реформ	64
А.И.Асроров	Кичик бизнес субъектларини кредитлаш борасида АҚШ тажрибаси ва уни Ўзбекитонда қўллаш имкониятлари	67
А.И.Асроров	Кичик бизнес субъектларини кредитлаш борасида Япония тажрибаси ва уни Ўзбекитонда қўллаш имкониятлари	71
II SHO‘BA. XIZMATLAR SOHASIDA TARKIBIY O‘ZGARISHLARNI AMALGA OSHIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASHNING MUAMMO VA YECHIMLARI.		
С.Ю.Шатохина	Структурные преобразования и цифровизация сферы услуг в контексте устойчивого развития регионов узбекистана	76
Sh.A.Sultonov M.Z.Xudoyberdiyeva	The rise of remote work and its impact on business productivity	80
Z.X.Abdullayev S.J.Abdusaidov	Sug'urta korxonalarida daromadlar hisobini takomillashtirish	84
Z.A.Axmedov	Tibbiy xizmatlarni rivojlantirishda tibbiy sug‘urtaning o‘rni va xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlili	86
З.И.Абдуллаева Ф.Ф.Азимжонова	Торговля в условиях формирования рыночной экономики	90
З.И.Абдуллаева С.А.Махмудов	Качество управления на предприятиях общественного питания	94
З.И.Абдуллаева С.А.Махмудов	Факторы, влияющие на издержки обращения	97
Б.О.Дусматов Ф.А.Куватов	Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида хизматлар соҳасида меҳнат ресурслари самарадорлигини ошириш йўллари.	99
Ш.Н.Мирзаева А.Кутфидинов	Экологическая экономика: как переход в зеленой энергетики влияет на экономической развития	102
Ш.Н.Мирзаева Д.З.Сатторов	Налоги и налогообложение для малого и среднего бизнеса в узбекистане	104
M.S.Alikulova	Kichik biznesda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish yo’llari	107

S.Mustafakulova	Xizmatlar sohasida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashning muammo va yechimlari.	111
X.A.Raximov	Sug’urta korxonalarida xarajatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish	115
G.T.Shirinova	Aloqa xizmatlarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish	119
Д.Джураева	Осуществление структурных преобразований в сфере услуг и использование современных технологий в социально-экономическом развитии Самаркандской области	122
Ж.И.Мамаризоев	Тенденции восстановления международного туризма	125
Ш.Н.Мирзаева **Ш.А.Мирзатуллаев**	Программы субсидий и налоговые льготы для малого и среднего бизнеса	128
Н.Т.Юсупова	Сущность и основные характеристики кластеров	131
M.E.Erdonov	Xizmat ko‘rsatish korxonalarini rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirish	135
M.E.Erdonov	Real sektor korxonalari samaradorligini oshirishda xodimlarni boshqarish	138
M.E.Erdonov	Xizmat ko’rsatish korxonalarda risklarni boshqarishning kontseptual yondashuvlari	140
N.M.Burxonova	Mexmonhona xo‘jaligida xizmatlar samaradorligini oshirish yo‘llari	143
III SHO‘BA. XIZMATLAR SOHASIDA TARKIBIY O‘ZGARISHLARNI AMALGA OSHIRISH VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN HUDUDLARNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA FOYDALANISH.		
D.S.Musinov	Xizmat ko‘rsatish korxonalarida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini tahlili	147
D.S.Musinov	Xizmat ko‘rsatish korxonalarida mehnat resurslardan samarali foydalanish omillari	151
X .Ergashev **A .Xabibullayev** **A.Muminov**	State support for the development of the service sector	155
Н.Тошназарова	Савдо хизматлари статистик рақамларда: барқарор ривожланиш ва тенденциялар	158
З.И.Абдуллаева **С.А.Махмудов**	Модели управления качеством, используемые в сфере общественного питания	163
З.И.Абдуллаева	Социальные технологии в сфере услуг	166
U.R.Ismatov	Xizmatlar sohasida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish va zamonaviy texnologiyalardan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda	169

	foydalanishni matematik modellashtirish	
U.R.Ismatov	Xizmatlar sohasida zamonaviy texnologiyalardan foydalanib, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning sodda matematik modeli	171
Т.Махмуд	Возможности использования предпринимательского потенциала в развитии сферы услуг	173
Х.Х.Эргашев Т.О.Туробов	Совершенсвование учета денежных средств в кассе	176
S.N.Hukumova	Raqamli iqtisodiyot sharoitida ijara xizmatlari samaradorligini oshirish yo‘llari	182
M.E.Erdonov	Xizmat ko’rsatish va sanoat korxonalarini rivojlantirishning xududiy siyosati.	187
M.E.Erdonov	Milliy iqtisodiyotni rivojlanishini ta'minlashda xizmatlar sohasi va sanoat tarmoqlarining samaradorligini oshirish yo'llari	190
Sh.A.Sultonov O. X.Olimov	Transport xizmatlari raqobatbardoshligi va samaradorligini oshirish yo‘llari	194
M.I.Umirzoqova	Turistik xizmatlar vujudga kelishining xususiyatlari va rivojlanish bosqichlari	197
IV SHO‘BA. XIZMATLAR SOHASIDA TARKIBIY O‘ZGARISHLARNI AMALGA OSHIRISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARINI YAXSHILASH DASTURLARI VA RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH MASALALARI.		
З.И.Абдуллаева	Современные технологии для улучшения качества и доступности услуг	201
U.N.Nizamov	O‘zbekistonda bank transformatsiyasi va uning rivojlanish istiqbollari.	204
M.E.Erdonov	Ways to develop the national economy	208
М.Э.Эрдонов	Особенности маркетинговых стратегий в развитии торговых предприятий	210
F.B.Alisherjonova A.A.Yuldashev	Germaniyaning ta'minot zanjirlarini boshqarish tajribasidan foydalanishni afzalliklari	214
O.X.Olimov	Transport xizmatlarida iste'molchilar ehtiyojlarini tahlil qilish va samarali strategiyalar ishlab chiqish	218
B.D.Eshniyozov	Umumiy ovqatlanish korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish yo‘llari (oilaviy korxonalar misolida)	221
Sh.Sh.Mirzaxadjayeva	Kredit siyosatining kichik biznes rivojiga ta’siri va moliyalash mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari	224
К.Пардаева	Стратегии развития транспортных услуг в Узбекистане	227

Ш.Н.Мирзаева Х.М.Рахматов	Государственные программы субсидирования и их влияние на малый и средний бизнес	230
V SHO‘BA. XIZMATLAR SOHASIDA TARKIBIY O‘ZGARISHLARNI AMALGA OSHIRISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASHDA INVESTITSION VA INNOVATSION MASALALAR.		
Цой Марина Петровна	Инновационные инвестиции в сферу услуг	234
Z.A.Axmedov	Tibbiy xizmatlar tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishda tibbiy sug‘urta bozorini rivojlantirish zaruriyati va institutsional asoslari	238
Sh.A.Sultonov O. X.Olimov	Transport xizmatlari bozorida innovatsion texnologiyalarni joriy etish	242
А.Х.Джумаев	Инвестиции в человеческий капитал.	244
F.B.Shakirova	Temir yo‘l transporti innovatsion faoliyatiga ta’sir etuvchi omillar	248
Б.О.Дусматов Ф.Ф.Насруллаев	Миллий иқтисодиётни модернизациялаш шароитида мамлакат хизмат кўрсатиш корхоналари инновацион жараёнларини ривожлантиришнинг назарий асослари	252
З.И.Абдуллаева	Цифровизация и инновации в обслуживании клиентов на современных предприятиях	256
Z.I. Usmanova B.E.Xajikulov	Xolistik marketing strategiyalarining turizm xizmatlari bozorida innovatsiyalar bilan integratsiyasi	259
М.Р.Батырбекова Д.С.Кадырбекова	Инновационные подходы к развитию экотуризма в восточно-казахстанской области	263
А.Х.Джумаев	Хизматлар соҳасида инновацион фаолиятни ривожлантиришнинг қонуниятлари, хусусиятлари ва муаммолари.	269
М.Э.Эрдонов	Влияние экономических инвестиций в бизнес инфраструктуру на экономический рост	274
B.D.Eshniyozov	Umumiy ovqatlanish korxonalari uchun raqobatbardoshlikni oshirishda innovatsion xizmatlarni kengaytirish (oilaviy korxonalar misolida)	278
M.A.Mutalova	HR texnologiyalarining xizmatlar sohasidagi tarkibiy o‘zgarishlarga ta’siri: investitsion va innovatsion yondashuvlar	281
R.J.Kurbanova D.Khakimov	Korxonalarning innovatsion faoliyatini baholashning xalqaro tajribasi	286
R.J.Kurbanova D.Khakimov	Korxonaning innovatsion faoliyati ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili	291
J.Qurbonov	Innovatsion loyiha - korxonani innovatsion	296

D.Khakimov	rivojlantirish vositasi sifatida.	
R.J.Kurbanova M.Axmedov	Theoretical foundations of methods for assessing the innovative potential of manufacturing enterprises	303
R.J.Kurbanova M.Axmedov	Classification of factors influencing the innovation potential of industrial enterprises.	307
R.J.Kurbanova M.Axmedov	Principles of the method of structural assessment of the innovative potential of industrial enterprises	309
R.J.Kurbanova M.Alimamatova	Conditions for the formation of innovative culture in trade	312
R.J.Kurbanova M.Alimamatova	Concept base of innovation processes	314
R.J.Kurbanova M.Alimamatova	Economic diagnostics for the innovation activities of trade enterprises	318
N.M.Burxonova	Mehmonxona xizmatlarini diversifikatsiya qilish orqali raqobatbardoshlikni oshirish	320
Z.B.Usmanov	Savdo korxonalarda korrelyatsion tahlil usullari orqali samaradorlikni oshirish imkoniyatlari.	323
Dildora Djuraeva	STANDARD OF LIVING AND THE PROBLEM OF POVERTY	326
Qarshiyeva Maftuna Sa'dullayevna	AGROSERVIS YO‘NALISHLARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI ISHSIZLIKNI KAMAYTIRISHNING IQTISODIYOTDAGI O‘RNI	329
С.Ў.Ҳусенов, Н.Бобоев	ХИЗМАТЛАР СОҲАСИДА ТАРКИБИЙ ЎЗГАРИШЛАРНИ АМАЛГА ОШИРИШДА ОЛИЙ ТАъЛИМ СИФАТИНИ БАҲОЛАШНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ	332
Xusainov Sh.A.	O‘ZBEKISTONDA AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING MOLIYAVIY HOLATI TAHLILDA LIKVIDLILIK KO‘RSATKICHLARI	336

“Xizmatlar sohasida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishning zamonaviy texnologiyalari”

xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI TO‘PLAMI

2025-yil 25-mart

“STAP-SEL” MChJ nashriyoti,
Samarqand - 2025.

ISBN: 978-9910-702-99-0

Tasdiqnona № 033337 (27.07.2022)
Nashrga ruxsat etildi: 24.03. 2025 y.
© **“STAP-SEL” MChJ** nashriyoti
Samarqand – 2025 y.

5235

25.03. 2025 y. chop etildi
Qog‘oz bichimi A5, 60x84 1/16, Ofset qog‘ozi.
“Times New Roman” garniturasi.
Nashr bosma tabog‘i 21.5
Buyurtma № 0011B/25. Adadi 50 nusxa

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining matbaa bo‘limida chop etildi.
LICENSE № 025316.
REESTR № X-119112.
Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko’chasi 60-uy.

ISBN: 978-9910-702-99-0

